

.....
M.E.ABDULLAYEV

XALQ PEDAGOGIKASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV

MUXAMMADIMIN EGAMBERDIYEVICH

XALQ PEDAGOGIKASI

60110100 - Pedagogika (qo‘sishimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi
talabalari uchun

O‘QUV QO‘LLANMA

Andijon – 2024

UO‘K 37.013(075.8)

KBK 74.00ya73

A15

M.E.Abdullayev. Xalq pedagogikasi. [o‘quv qo‘llanma] – “Omadbek print number one” MCHJ. Andijon: 2024. – 147 b.

Taqrizchilar:

F.M.Qo‘chqarova – Andijon davlat universiteti Umumiy pedagogika kafedresi professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

M.Kuychiyeva – Andijon viloyati pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Ushbu qo‘llanma 60110100 - Pedagogika (qo‘srimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan bo‘lib, unda Xalq pedagogikasi faninig 1-moduli xalq pedagogikasi fanninig nazariy asoslari yoritilgan. Xususan, xalq pedagogikasi – fan sifatida, xalq pedagogikasi manbalari, xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari, “xalq pedagogikasi” va O‘rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari, xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida batafsil yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug‘iga asosan Pedagogika (qo‘srimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berilgan.

8725



ISBN : 978-9910-08-243-6

© M.E.Abdullayev

© Omadbek print number one

KIRISH

Xalqimizning tarixiga nazar tashlasak, ta’lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos maktab yaratganini guvohi bo‘lamiz. O‘lkamizda zardushtiylik dini hukm surgan paytda ham ma’lum pedagogik qarashlar bo‘lganini, zardushtiylikni muqaddas kitobi “Avesto”ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalari mazmunidan bilamiz. Xalqimizning madaniy-ma’rifiy taraqqiyoti asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, takomillashgan. Bu jarayonlar xalq pedagogikasida o‘z aksini topgan.

Xalq pedagogikasi xalqimizning turli davrlar mobaynida turmush faoliyati natijasida to‘plagan boy tajribalari, axloqiy, ma’rifiy, ma’naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi. Xalq pedagogikasi etnologiya, etnografiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik (arxeologiya), udumshunoslik va xalq og‘zaki ijodining barcha yo‘nalishlarini qamrab oladi. Ulardagi axloqiy-ma’rifiy g‘oyalami o‘rganadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg‘or axloqiy g‘oyalar va tajribani o‘zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan davrda ta’lim-tarbiya borasida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar va g‘oyalar, milliy odob-axloq, an’analari, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish bugungi kunning muhim va eng dolzarb masalasidir.

Ushbu qo‘llanma aynan ana shu masalalarni keng va atroficha yoritishga mo‘ljallangan.

1-MODUL. “Xalq pedagogikasi” fanining nazariy asoslari.

1-mavzu: Xalq pedagogikasi – fan sifatida

Reja:

1. “Xalq pedagogikasi” fanining mazmuni.
2. Fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni tayyorlashda xalq pedagogikasining tutgan o‘rni.

Tayanch tushunchalar: Xalq pedagogikasi, milliy pedagogika, milliy tarbiya, xalq tajribalari, ta’lim tarixi, tarbiya tarixi, Avesto, zardo‘shtilik dini.

1. “Xalq pedagogikasi” fanining mazmuni.

Insonlarning har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusini bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Ma’rifatli va ma’naviy komil insonni tarbiyalash “O‘zbek xalq pedagogikasi” fanining asosiy maqsadidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta’lim-tarbiya sohasida, milliy odob-ahloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joy-joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo‘lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza ahloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim.

O‘zbek xalq pedagogikasi ta’lim-tarbiya sohasida o‘ziga xos oliy maktab yaratgan. O‘zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Allomalarimiz “Agar kishiga hayotning o‘zi berolmasa ta’lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim” deya nasihat qiladilar, bu inson o‘z tafakkuri yordamida ta’lim-tarbiya olishi, odob-ahloq normalarini egallashi, o‘zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos, ma’naviy-ahloqiy ko‘nikma va malakalarni

o‘zida mujassamlashtirish lozimligini taqozo etadi.

2.Fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Xalq pedagogikasi – ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida muhim jarayon bo‘lgan inson tarbiyasi, uning shakllanishi, ijtimoiy me‘yorlarni o‘zlashtirishini o‘rganish bilan birga xalqning qadimiy tarbiya usullarini, qo‘sish, topishmoq, maqol va o‘yinlarini to‘playdi, umumlashtiradi, tizimga soladi va ta’lim jarayoniga tadbiq etadi. Fanimizning maqsadi, vazifasi hamda predmeti ham shu maqsadga asoslangan.

Xalq pedagogikasi fanining asosiy maqsadi - bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarda pedagogik tafakkurni shakllantirish va kengaytirish, xalqimizning o‘qitish jarayonini tashkil etish va tarbiya nazariyasi bo‘yicha to‘plangan boy ma’naviy-ma’rifiy merosi va pedagogik qarashlari, ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan tanishtirish orqali ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishdir.

Fanning vazifalari - xalq pedagogikasining ta’lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an’analari, ta’lim-tarbiya jarayonlarining xalq og‘zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta’limotlarda ifodalananish masalalarini o‘rganish hamda keljak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o‘rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan.

Shu o‘rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o‘tish o‘rinli. Buyuk pedagoglar ko‘proq xalqning pedagogik tajribalariga e’tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk pedagog Ya. A. Komenskiy ham o‘zining faoliyatini xalq og‘zaki ijodi, uning urf-odatlari, qadriyatları to‘g‘risida material to‘plashdan boshlagan.

X.X.Niyoziy “Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan” - deb ta’rif beradi. U yana o‘zbek xalqi tarbiya sohasida o‘ziga xos tizimga ega ekanini aytib o‘tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib

topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Xamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o‘z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi ro‘lining boisi, birinchidan uning hayotiyligi, ta’sirchanligi serqirra, serma’noligida bo‘lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an’analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo‘nalishga, umumbashariy g‘oya – maqsadlarga qaratilgan bo‘lganligidir.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o‘gitlaridan baxra olish va tarbiya jarayoniga tadbiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlarga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga yetish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevish, milliy odob-ahloq me’yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

O‘zbek xalqi bugungi davrda ota-bobolar, ajdodlar erishgan yutuqlardan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va taddiq etish, puxta o‘rganishi zarur. Bu esa yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyg‘ularini vujudga keltiradi va ular o‘tmish an’analariga sodiq bo‘lishga harakat qiladilar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyg‘ulari hosil qilinadi.

3.Bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarni tayyorlashda xalq pedagogikasining tutgan o‘rni.

Mamlakatimizda “Xalq pedagogikasi” fanini o‘rganishga katta e’tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiyl o‘rtalim maktablarining milliy sinflari o‘qituvchilari uchun, oliy o‘quv yurti talabalari uchun, doktarant va magistrlar uchun zarurdir.

Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olayotgan talabalar o‘zbek xalq pedagogikasini quyidagi maqsadlarda o‘rganish imkoniyatiga ega

bo‘ladi. birinchidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, mutaxassis sifatida yosh avlodga milliy g‘oya va milliy mafkura mohiyatini tushuntira olish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Har bir shaxs, xalq va millatning o‘ziga xos orzu-umidlari va ma’naviy qarashlari bo‘ladi. Ular orasida ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoj alohida o‘rinni egallaydi. Chunki har bir sog‘lom insonda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud. Aslida fikr doirasi keng va tarbiyalı insongina o‘zini erkin va baxtli his qiladi.

Har qanday davlat o‘z xalqining taraqqiyot bosqichiga mos ijtimoiy tuzumni tanlab oladi. Davlatning ma’rifat tizimi jamiyat tanlab olgan tuzumning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

“Xalq pedagogikasi” fanini o‘qitishning ustuvor yo‘nalishi: Zamonaviy milliy pedagogika o‘z mazmun va mohiyatini boyitishda, shaxs shakllanishiga ta’sirchanlikni oshirishda xalq pedagogikasi g‘oyalariga tayanadi. Xalq pedagogikasi o‘z nomi bilan xalqchil usullari, qoidalari va tamoyillari bilan yoshlar tarbiyasida asosiy manba hisoblanadi.

- eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha bo‘lgan pedagogika tariximizni chuqur o‘rganish, buyuk mutafakkirlar merosini hozirgi davr mezonida tahlil qilish, xalq pedagogikasi, ma’naviy qadriyatlar asosida qo‘llanmalar yaratish, milliy pedagogikada xalqimizning tarbiya borasidagi tajribasini singdirish, undan foydalanish metodikasini yaratish;
- xalqimizning mentaliteti, milliy mafkura, bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatni talablari asosida mustaqillikni mustahkamlash, ma’naviy salohiyatni oshirish, har bir – avlodni XXI asr sharoitida baxtli yashashga tayyorlash omilini oshirish.
- ta’lim metodlarini takomillashtirish, milliy ta’lim modeli asosida pedagogik texnologiyani yaratish;
- davrdagi mohiyatini aniqlash, tarbiya mazmunida milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligiga erishish. Hamkorlikdagi jahon xalqlari milliy qadriyatlarini o‘rganish va ommalashtirish;

- tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insonparvarlashtirish;
- ma'naviy-ahloqiy mazmunni takomillashtirish uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Ahloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish. Mahallada, oilada ahloqiy tarbiya nazariyasi va ommabop metodikasini ishlab chiqish;
- Xalq pedagogikasi fanini o'qitish jarayonida rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni didaktik jarayonga tatbiq etish usullarini takomillashtirish;
- Xalq pedagogikasi fani tarkibidagi mavzularni samarali o'qitish orqali bo'lg'usi mutaxassislarda shaxs kompitensiysi sifatlarini shakllantirishdan iborat.

2-mavzu: Xalq pedagogikasi manbalari.

Reja.

- 1.Etnopedagogika haqida tushuncha.
- 2.Xalq pedagogikasi manbaalari haqida.
- 3.Xalq pedagogikasi manbaa turlari.

Tayanch tushunchalar: maqollar, topishmoqlar, olqish va qarg'ishlar, marosim folklori, qo'shiqlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar.

1.Etnopedagogika haqida tushuncha.

Pedagogika ensiklopediyasida ta'kidlanishicha, “Etnopedagogika – Pedagogika fanining xalq milliy an'ana, ijtimoiy tajriba, ma'naviy - ma'rifiy, madaniyetnik qadriyatlarini psixologik pedagogik asoslarini aniqlash va amaliyotga tadbiq etishga qaratilgantarmog'i”¹. Etnopedagogik qadriyatlar esa o'zbek xalqi uchun qadrli, ahamiyatli bo'lgan an'analar, tajribalar majmui bo'lib, yosh avlodda milliy

¹Pedagogika: enziklopediya. III jild / tuzuvchilar: Jamoa. – Toshkent: “O'zbekiston milliy enziklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 bet. B.349

g‘urur, o‘zlikni anglash, o‘z xalqining yutuqlaridan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

2.Xalq pedagogikasi manbalari haqida.

Etnopedagogika manbalari o‘z tuzilishi, qo‘llanish o‘rni, vazifasiga ko‘ra muayyan tizimlar (guruhlar) ni tashkil etadi. Bunday guruhlarni ko‘rsatish uchun ma’lum atamalardan foydalaniladi. Etnopedagogika manbalari turlari ijtimoiy taraqqiyot davomida sekinlik bilan o‘zgarib boradi: ularning ba’zilari so‘nishi yoki boshqasi bilan almashishi mumkin.

Etnopedagogika manbalari turlarining vujudga kelishini ijtimoiy hayot taqoza qiladi. Chunki voqelikning o‘zi voqealarga, obrazlarga boy bo‘lib, xalq ijodiyoti oldiga uni g‘oyaviy-tarbiyaviy va estetik mohiyatini idrok etgan holda biror shaklda ifodalashni zaruratga aylantiradi. Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi kurashi afsona va dostonlarni, tabiat kuchlari oldidagi ojizligi esa so‘z magiyasi (afsun) ga sig‘inishni paydo qildi. Demak, voqelikning muayyan xarakteri xalq og‘zaki ijodida o‘ziga xos ifoda shaklini vujudga keltirishga xizmat qildi.

Xalq pedagogik tafakkurining tarixiy taraqqiyot darajasi ham u yoki bu turning yuzaga kelishiga olib keldi. Agar taraqqiyotning ilk bosqichida oddiy shakllar yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik murakkab shakllar paydo bo‘ldi.

Shunday qilib, o‘zbek xalq pedagogikasining janrlar turi xilma-xil bo‘lsada, u boshqa xalqlar pedagogikasi tizimlaridan farq qiladi. Jumladan, barcha xalqlar pedagogik manbalari tizimida ertak, maqol, topishmoq, qo‘sish turlari bo‘lsada, ruslarda doston, yoki o‘zbek va tojiklarda ramozon, hayitlik aytimlari, ukrain va beloruslarda, polyadkalar, ruslarda ratseyka va chastushkalar tizimlari mavjud. Bir necha xalqlardagi etnopedagogika manbalarining bir xil tizimi ham o‘z xususiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Etnopedagogik asarlar janrlari o‘z ijodkorlari faoliyati bilan ham bog‘liq. Agar topishmoq va maqol singari turlar ommaviy xususiyatga ega bo‘lsa, doston, og‘zaki drama, ertak, askiya kabilar maxsus kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Ammo, mazkur turlarga xos quyidagi tamoyillarni ta’kidlab o‘tish lozim:

1. Etnopedagogika manbalari pedagogik xususiyatlarining mushtarakligi;

2. Manbalar janrlariaro o‘zaro ta’sir, bir-biriga muvofiqlik va bir-birini boyitish xususiyatlari;
3. Har bir turning vujudga kelishida ikkinchi turning manba sifatida xizmat qilishi – genetik aloqa;
4. Bir turdag'i asarning boshqa bir tur tarkibida uchrashi;
5. Bir turdag'i asarning yana bir necha boshqa turlar tarkibida uchrashi va boshqalar.

3.Xalq pedagogikasi manbaa turlari.

Xalq pedagogikasi manbaa turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

“Maqol” atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ommaning muayyan voqeа-hodisalar, voqelik haqidagi lo‘nda xulosalarini ifodalaydi. Ularda fikr aniq, muayyan mantiqiy izchillikda, ba’zan to‘g‘ri, ba’zan ko‘chma ma’noda ifodalanadi.

Maqolda ifodalangan pedagogik g‘oyalar alohida shaxsgagina emas, balki keng xalq ommasiga qaratilgan bo‘ladi. Unda hayotiy tajribada sinalgan pedagogik fikrlar bayon qilinadi. U o‘z shakliga ko‘ra ixcham, mukammal, lekin ommabop bo‘ladi. Shuningdek, maqollar xalq pedagogik tafakkuri yo‘nalishlarini, uning pedagogik madaniyatini, ma‘naviy-axloqiy e‘tiqodini, turmush va mehnat mezonlarini, sevgi va nafratini, orzu va intilishini ifodalaydi. Shuning uchun ham L.N. Tolstoy: “Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siyosini ko‘raman”, -degan edi. Xalq maqollari mehnat jarayonida yaratilganligi tufayli unda mehnat mavzusi yetakchilik qiladi.

Mehnatga muhabbat, hurmat ulu g‘lanuvchi maqollarda dangasalik qoralanadi: Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda; Dangasaning kosasi oqarmas; Ishyoqmasga it boqmas ...

Vatanparvarlik, dushmanga qarshi nafrat targ‘ib etiladi: Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni; Vatan gadosi – kafan gadosi; Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas ...

Botirlik, saxiylik,adolat, insof qadrlanadi: Arslon izidan qaytmas, yigit so‘zidan; Erni nomus o‘ldiradi; Botirdan yov qo‘rqrar; Yo‘lga chiqsang, yo‘ldoshli chiq! ...

Ilmni egallash targ‘ib etiladi: Ilm – aql chirog‘i; Ilm ko‘p, umr oz, zarurini o‘rgan; Kitob – bilim manbai ...

Topishmoq – deb, bir-biriga o‘xhash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o‘xhash belgilari asosida uni topishga mo‘ljallangan she‘riy yoki nasriy topshiriqqa aytildi. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmoq‘ida eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy” ga o‘xhatilgan. Oy ham go‘zal, tunda olamni munavvar qiladi.

Topishmoq atamasi “Top” buyruq fe‘li va “-ish” hamda “-moq” qo‘sishimchalaridan yasalgan. Topishmoqlarda ham ta‘lim-tarbiyaviy fikrlar olg‘a suriladi, ular vositasida insonning tafakkuri, fikrlash doirasi, topqirligi, nutqi, hozirjavoblik sifatlari o‘stirilgan. O‘tmishda aholi qishning uzun tunlarida to‘planishib, maqol, matal, topishmoq, doston, ertaklar aytib vaqtini ko‘ngilli o‘tkazganlar. Bunday anjumanlarda bolalar ham qatnashgan. Jumladan: topishmoqni topolmaganlar “shahar bergan”. Masalan: Qoziq ustida qor turmas (nima? -tuxum). Agar javob beruvchi topishmoqni topolmasa: “Shahar berdim”, -degan. Shunda topishmoq aytuvchi shunday deb, sherigini uyaltirgan, izza qilib, so‘ng o‘zi javobini aytgan: “Shahar, unda boru munda kel, kelib yonimga yiqil, Ikkalamiz ketaylik, Sen keta turib bir xaloga yiqilding. Shunda bir devona: “Xey, do‘st”, -deb keldi. Men bir kurak tillo berdim, u meni maqtab ketdi. Sen bir kurak go‘ng berding, u seni qarg‘ab ketdi. Men bir otga, sen bir eshakka minding ... “javobi -tuxum” edi. Yoki, “sotdim - oldim” dialogi bilan topishmoq javobi yakunlangan:

- Sotdim. – Nimasini?. – Nima qilasan?

- Oldim. – Qo‘lini. – O‘choqqa kasov qilaman ...

Olkishlar – olkish turkiy tillarda “maqtash, sharaflash, yaxshi istak tilash” ma‘nolarini anglatadi. O‘tmishda olkishlar ulug‘ yoki oqsoqollar tomonidan ijro etilgan. Hozir ularning quyidagi turlari mavjud:

a) uchrashuv olqishlari: - Kishilar tanish-notanishligidan qat'iy nazar uchrashganlarida olqish aytib fotiha tortadi: "Omin, qadam yetdi, balo yetmasin" kabi.

b) dasturxon olqishlari: "Omin, taomning haqi, baloning dafi, har kim yesa, o'zining nafi, esonlik, tan-sihatlik, keng fe'l, ketmas davlat, xotirjamlik ... bersin" singari.

v) ish boshidagi olqishlar (so'z sehriga ishonishdan paydo bo'lgan). Jumladan, imorat qurishdan oldin: "Omin, boshlagan ishlaringda Alloh madadkor bo'lsin, ishlaring unumli va barorli bo'lsa, Hazrati Nuh o'zi qo'llasin, qo'llaring dard ko'rmasin, shu imorat baxtli kunlarga xizmat qilsin"... singari.

Qarg'ishlar – "qarg'ish" – "qir" fe'liga "-g'a" va "-ish" qo'shimchalari qo'shilishidan yasalgan. Qarg'ishda yomon kishilarga baxtsizlik, yomonlik tilansa, so'kishda kishi shaxsi haqoratlanadi. Qadimgi kishilar qarg'ish insonga tegishiga ishonganlar, qarg'ishni yo'llash va qaytarib olish mumkin deb hisoblaganlar.

Mifologik qarg'ishlar: "Arvoh ursin", "Alvastiga yo'liqqur", "Jin ursin", "Jin chalsin", "Jin chaqirsin" va boshqalar.

Tabiat bilan bog'liq qarg'ishlar: "Ko'zingga gul tushsin", "Go'shtingni quzg'unlar cho'qisin", "Joning chiqsin" ...

Jonsiz narsalar bilan bog'liq qarg'ishlar: "Sut ko'r qilgur", "Non ko'r qilgur", "Tobutingni o'zim ko'taray", "Topganing tobutingga buyursin" va boshqalar.

Olkishlar va qarg'ishlarda tarbiyaviy ta'sirchanlik g'oyat kuchli bo'lib, oilada axloqiy og'ish yuz bergen a'zolar, ularning ta'sirida o'z kamchiliklarini tuzatishga, ota-onaga, oilaga, yaqinlarga nisbatan o'z munosabatini, axloqiy sifatlarini o'zgartirishga majbur bo'lgan.

Marosim folklori, qo'shiqlar, dostonlar, og'zaki drama va askiyalar tizimining pedagogik ahamiyati.

Insonga sog'liq, to'kin-sochinlik tilash, uning hayotidagi biror muhim sanani nishonlash maqsadida o'tkaziladigan, an'anaga aylanib qolgan harakatlar marosim deyiladi. Marosimlarning mavsumiy va oilaviy-maishiy marosim turlari mavjud.

Mavsumiy marosimlar bahorgi, yozgi, kuzgi, qishki marosimlar kiradi. Ular ham turlarga bo‘linadi. Jumladan, bahorgi mavsumiy marosimlarga_loy tutish, shox moylar (dalaga qo‘sh chiqarish), navro‘z, yomg‘ir chaqirish, “Sust xotin” (“Avesto” da madh etilgan) marosimlari kirgan.

Yozgi marosimlar: “Choy momo” (Shamol ona demakdir, unda shamolda mevalarni to‘kilishdan saqlashga undalgan), va boshqalar.

Oilaviy-maishiy marosimlar jumlasiga to‘y, (beshik) to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, kelin salom, motam marosimi, yig‘i-yo‘qlovlar va boshqalarda ko‘zda utilgan kishining tarbiyaviy sifatlari ulug‘langan, insoniyat qadr-qimmati yuqori ko‘tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg‘otishga undalgan.

Qo‘shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. “Qo‘shiq” – turkiy “qo‘shmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, misraga misrani qo‘sib kuylash, aytish ma’nolarini anglatadi.

Qo‘shiqlarda xalq ma‘naviyati qudrati, irodasi ifodalanadi. U kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka, do‘stlikka, sevgi sadoqatga chorlaydi. Xalq qo‘shiqlarining mehnat qo‘shiqlari (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), lirik qo‘shiqlar, tarixiy qo‘shiqlar, termalar singari turlari mavjud.

Doston – qissa, hikoya, ta’rif, sarguzasht ma’nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo‘lib, xalqning ma‘naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari,adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ‘ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo‘rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o‘rnak olish hissi tug‘iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. “Baxshi” mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod” , “ma’rifatchi” degan ma’nolarni anglatadi.

Og‘zaki drama – etnopedagogika yo‘nalishidagi ijodning mustaqil turi bo‘lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og‘zaki dramada tomosha ko‘rsatish bahonasida hayot

qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og‘zaki dramani qiziqchilar, askiyabozlar, masxarabozlar satirik uslubda ijro etishgan. Ularda ochko‘zlik, ko‘zbo‘yamachilik, zulm,adolatsizlik, zo‘ravonlik, buzuqlik kabi salbiy axloqiy sifatlar hajv va yengil kulgi ostida tanqid qilingan.

Askiya – arabcha “zakiy” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘zamol”, “o‘tkir”, “zehnli” degan ma‘nolarni anglatadi. Askiya – so‘z o‘yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida “Bo‘lasizmi”, “O‘xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko‘pincha to‘y, sayil, marosimlarda uyshtiriladi. Askiya Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi.

Afsona, rivoyat, naql, ertak, latifa, loflar tizimining pedagogik xususiyatlari:

Afsona – arabcha so‘z bo‘lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma’nosini anglatadi. Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o‘quvchini ushbu qahramonlarga o‘xhashsga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarni egallahsga undaydi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo‘lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog‘liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat o‘quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg‘otadi.

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: “Ko‘rpangga

qarab oyoq uzat”, “Har kim qilsa o‘ziga”, “Odam-odam bilan tirik”, “Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo‘snninikida” kabi.

Naqllarda salbiy-tarbiyaviy sifatlarga ijobiy-tarbiyaviy sifatlar qarshi qo‘yiladi. Garchi, To‘g‘rivoy (Yaxshivoy, Soddavoy) yo‘lda Egrivoy (Ayyorvoy, Yomonvoy) ga aldanib qolsada, keyinchalik sehrli yordamchilar tufayli u g‘alaba qilib, murodiga yetadi. Egrivoy esa misi chiqib, sharmanda bo‘ladi.

Naqllarda yashirin holda tarbiyaviy o‘gitlar ifodalanib, nihoyasida qissadan hissa chiqariladi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy) so‘zidan olingan bo‘lib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma’nosini anglatadi. Ertak – Surxon, Qashqa, Farg‘ona vohasi, Samarqandda “matal”, Xorazmda “varsaqi”, Toshkent atrofida “cho‘pchak” deb ataladi.

Ertaklarda mo‘jiza yoki sarguzasht ma’lum voqea-hodisalarni hayot bilan bog‘lab, haqiqat, ozodlik, to‘g‘rilik, odamiylik, oljanoblik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Shuning uchun ular bolani o‘ziga ko‘proq jalg etadi. Ertaklar ham didaktik, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Jumladan: “Chol bilan kampir”, “Bulbuligo‘yo”, “Ur to‘qmoq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Bo‘ri bilan qo‘zichoq”, “Baxtli kal” singari ertaklar shular jumlasidandir. Ertaklarning hayvonlar, qushlar haqidagi turlari, mitti polvonlar (“No‘xatvoy”, “Quloqvoy”, “Handalak polvon”, “Yapaloqpolvon” ...) haqidagi turlari, bir yoki ikki epizodli satirik ifoda vositasida salbiy tarbiyaviy sifatlarni tanqid, masxara qiluvchi etnopedagogika turidir.

Latifa arabcha – latif, mayin, lutf demakdir. Latifa satira va yumorga asoslangan bo‘lib, latifalarda o‘ta aqli, noziktabiat, insonparvar, mehnatsevar kishi sifatida salbiy axloqiy sifatli kishilarni masxara qiladi. Zaxarhanda kulgi, kinoya, kesatiq, xazil-mutoyiba vositasida yomonliklarni bartaraf qiladi.

Lof – mustaqil etnopedagogik tur bo‘lib, ularda notabiiy voqealar, salbiy xislatlar tanqid ostiga olinadi. Loflar mubolag‘ali epizodga mantiqiy mos javoban, urushi yillarida dushmanqa nisbatan nafrat ruhidagi xalq qo‘schiqlari yaratildi.

Porloq kelajakka umid ko‘zi bilan boqqan ajdodlarimiz inson qobiliyati va qudratini ideallashtiruvchi mifologik obrazlarni yaratgan. Mifologik obazlarning ilk namunalari qadimiy mif va afsonalarda o‘z aksini topgan.

Mif grekcha “myfhos”-so‘z, rivoyat so‘zidan olingan bo‘lib, dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to‘qima afsonalardir. Mifologiya - miflarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Insonning tabiat stixiyalariga qarshi kurashdagi ojizligi (bo‘ron, sel, zilzila, dovul...) tufayli ularga qarshi kurasha oluvchi g‘ayritabiiy obrazlar yaratishga ehtiyoj tugilgan. Natijada yaxshilik va yomonlik haqidagi mifologik tasavvurlar paydo bo‘lgan. Olam haqidagi bunday ibtidoiy miflar ta’sirida osmon, oy, quyosh va turli hayvonlar, xudolar, g‘ayritabiiy pahlavonlar haqidagi miflar vujudga keldi. Hayvonlar va tabiat stixiyalariga qarshi kurashga qaratilgan (so‘z kuchi, afsun “avrash” vositasida ularga ta‘sir etish tufayli, yovuz kuchlarga teng keladigan qurol inson ixtiyorida bo‘lmagan bir paytda) miflar yaratildi. Ko‘rinib turibdiki, miflar insonga osoyishta yashash, yovuz kuchlarni yengishga ko‘maklashuvchi orzular ifodasidir.

Miflarda yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xudbinlik, yorug‘lik va zulmat orasidagi kurash jarayoni tasvirlanadi. Komil insonlar hamisha yaxshilik, go‘zallik, yorug‘likning tantana qilishi ko‘maklashadi. Aniqroq aytiganda, miflarni o‘qigan o‘quvchi ijobiq qahramonlarning tarafdoriga aylanadi. “Avesto”da yaxshilik – Axura Mazda, yomonlik – Axriman qiyofasida namoyon bo‘ladi. Kitob g‘oyasiga ko‘ra barcha hodisalar (tabiat va jamiyatdagi) ana shu ikki yaratuvchining o‘zaro kurashidan kelib chiqadi.

Mitra – quyosh va yorug‘lik xudosi, Noxit – obodonlik, farovonlik xudosi, Xumo – baxt, tole xudosi va boshqa yaxshilik tantanasiga ko‘maklashadi. Yomonlik kuchlari: ajdar, dev, jin, yalmog‘iz va boshqa mifologik obazlarda tasvirlangan. Shuningdek, Kayumars va Jamshid haqidagi miflar ham O‘rta Osiyoda qadimdan tarqalgan. Uning turli variantlari mavjud (“Avesto” da, “Qadim

xalqlardan qolgan yodgorliklar”da, “Shohnoma”da va b.) Kayumars “G‘iyosul lug‘at”da Govmard (inson - buqa) deb ta‘riflanib, Amudaryo bo‘yida yashagan, bo‘yi daryoning narigi betiga yetgan va hokazo

Miflardagi ijobiy obrazlar xalq manfaati uchun,adolat, go‘zallik uchun kurashadi. Kishilarga hayotda, kurashda yordam beradi. Ularga oliv insoniy sifatlarda o‘rnak ko‘rsatadi, kasb-kor o‘rgatadi. Demak, miflarda xalq ommasining ilk pedagogik tafakkuri o‘z ifodasini topgan, deyish mumkin.

Jamshid haqidagi mif O‘rta Osiyo va Eronda keng tarqalgan bo‘lib, unda Jamshid najotkor qahramon sifatida ko‘rsatilgan (“Avesto”da).

Jamshid adolatli podsho bo‘lib, uning ming yillik shohlik davrida qahraton sovuq, jazirama issiq, kasalliklar va o‘lim kamaya borgan. Uning yerida mollar va odamlar ko‘paya borgach, u yerni uch marta ko‘paytiradi, chorva va qushlarni ham ko‘paytiradi. Ammo, to‘satdan qahraton qish, toshqin boshlanadi. Odamlarni qutqarish uchun Jamshid ariqlar ochadi. Bu afsona A. Navoiyning “Mulki Ajam”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlarida tasvirlangan. Bunday mifologik obrazlar keyinchalik ertak va dostonlarda rivojlantirildi.

“Odami Od” hikoyasida Nuh payg‘ambar bo‘yi bulutga yetadigan usta yordamida chinordan kema yasatib, odamlarni kemaga o‘tqazib, o‘zi kemani torta ketibdi (“Od” – fors-tojikcha “ulkan odam”). “Er Xubbi” mifi ham insonga g‘amxo‘rlik timsolidagi etnopedagogik asardir. U Xorazm va Farg‘onada keng tarqalgan. Xubbi insonparvar, daryoning hokimi, Amudaryoda 700 yil yashagan va bu davrda daryoga jinlar yaqinlasha olmagan. Jamshid taxtga o‘tirishi bilan u domdaraksiz g‘oyib bo‘lgan. Bundan Xubbining opasi aza tutgan, u bilan birga daryo, tog‘u-toshlar, qushlar, hayvonlar, odamlar, osmonda farishtalar, yer ostida devlar yig‘lagan. Ular Xubbi tirik, qiyomatgacha yashaydi, deb tasavvur qilganlar.

“To‘maris”, “Shiroq” rivoyatlari, Rustam haqidagi epos, qadimgi qo‘shiqlarda ham yuksak tarbiyaviy sifatlar targ‘ib etilgan. Ularda kishilar yaxshilik qilishga, xushxulq bo‘lishga, yomon odatlardan xalos bo‘lishga chorlangan.

3-mavzu: Xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari.

Reja

- 1.Xalq pedagogikasi-milliy tarbiya asosi sifatida.
2. Xalq pedagogikasining didaktik tamoyillari.
- 3.Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari.

Tayanch tushunchalar:Milliy qadriyatlar,milliy urfodat, millat, tarix, taraqqiyot, tirikchilik, xulq-atvor va milliy an’ana.

1.Xalq pedagogikasi-milliy tarbiya asosi sifatida.

Talaba – yoshlarda milliy tarbiyani umumbashariy qadriyatlar bilan shakllantirishni dunyo miqyosida erishilayotgan umumbashariy yutuqlar va zamonaviy fan asoslarining tarbiyaviy jihatlarisiz tasavvur etish qiyin.

Shunga ko‘ra oliy pedagogik ta’limda yoshlarga pedagogik malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirish, umumbashariy bilimlarni o‘zlashtirishga ham imkoniyat yaratib berish lozim. Milliy qadriyatlar asosida shakllantiriladigan tafakkur va dunyoqarash yoshlarning umuminsoniy va zamonaviy yutuqlarni to‘liq egallashlari uchun zamin yaratadi, zamonaviy bilimlar va ko‘nikmalarni egallah esa chuqur va mustahkam bilim olish uchun poydevor vujudga keltiradi.

Shu sababli yoshlarda milliy tafakkurni va zamonaviy bilim ko‘nikmalarni o‘zaro aloqada shakllantirish va olgan bilimlarni umumlashtirishga, ish jarayoniga xalq pedagogikasini olib kirishga o‘rgatish barkamol insonni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Yoshlarni ma’naviy qarashlarini shakllantirishda, ularni ma’naviy qadriyatlarimizni buyuk mutafakkirlar ilimiylar merosini, falsafiy qarashlarini, muhim jihatlarini o‘rganish, bugungi kun zavonaviy ilm-fan va texnika taraqqiyotiga erishilayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirish bilan bog‘liq tar’lim-tarbiyaviy faoliyatga kuchli e’tibor qilinayotganligi beziz emas.

Yoshlarning intellektual salohiyatini qo‘lga kiritishlarida ta’lim jarayonida ularni mustaqil fikr eritishga o‘rgatish, dastlabki manbalarni o‘zlashtirishning aniq usullarini egallah, olingan bilimlarga ongli ravishda yondashishga o‘rgatish

muhim rol o‘ynaydi. Bunda asosiy e’tiborni dars jarayoniga qaratib, ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar va zavonaviy bilim hamda ko‘nikmalar ustidagi ishlarni qo‘sib olib borish zarur. Shunga ham ko‘ra, barcha fanlar tizimiga milliy va umumbashariy qadriyatlarning ilmiy asoslarini kiritish darkor. Bundan ko‘zlangan maqsad umuminsoniy qadriyatlarni e’tirof etadigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Buni ayniqsa “Xalq pedagogikasi”ni o‘qitish misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Xalq pedagogikasi bu o‘zbek xalqining ta’lim sohasida erishgan buyuk qadriyati sanaladi va u ko‘p jihatdan umumbashariy qadriyatga aylanib qolgan.

Talabalarga tarbiyaviy ishlarda “Xalq pedagogika”ni o‘zaro bog‘lovchi to‘rtta elementni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Xalq madaniyati tarixi, tili, dini, urf-odatlari haqida bilimlar majmuasi. Bu bilimlar majmuasini o‘zlashtirish orqali bo‘lajak mutaxassislarning milliy ongi shakllanadi, amaliy tajribaga to‘g‘ri metodologik yo‘nalish beradi.

Anglash, mehnat qilish va shu kabi vazifalarning asosi bo‘lib hisoblanadigan umumiy intellektual hamda amaliy malakalarning tizimi. Bu tizim orqali bo‘lajak mutaxassislarning milliy madaniyatini saqlab, yosh avlodga yetkazishni ta’minlaydi.

Bo‘lajak mutaxassislarning xalq tajribasini bugungi sharoitda tarbiya jarayonida foydalanish va uni yanada rivojlantirish.

Atrof-muhit orqali olingan bilim, malka hamda unga nisbatan tajribasi bo‘lajak mutaxassislarda ishonch, qimmatli hislatlarning o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning tarbiyaviy ishlarida “Xalq pedagogikasi” asosida yondashishga tayyorgarligi – bu xalq pedagogikasining tajribalarini tarbiyaviy ishlarda foydalanishning metodologik asosini bilish, shaxsning har tomonlarma tarbiyasi, beriladigan tarbiyaning mazmuni, uslublari, turlari, shakllari haqida bilimlarni o‘zlashtirish.

Xalq pedagogikasi tajribalaridan foydalanishga tayyorlashning quyidagi shakllarini ko‘rsatish mumkin: ma’ruza, seminar, amaliy tajriba darslari, maxsus kurslar, auditoridan tashqari darslar pedagogik amaliyot, talablarining ilmiy-

tadqiqot ishlari, kurs ishlari, diplom ishlari va hokazo.

Uslublari: hikoya, suhbat, intervyu, treninglar, munozaralar.

Manbalar: xalq og‘zaki ijodi, milliy o‘yinlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, xalq an’analari, milliy san’at namunalari va hokazo.

Xalq pedagogikasini ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiqu etishdan maqsad, tarbiya texnologiyasining ahamiyati, tarbiyaviy ishlarda “Xalq pedagogikasi”ning xususiyatini to‘liq tushuntirish, tajribalarini foydalanishga tayyorgarligini shakllantirish, tarbiyaviy ishlarning uslublari, shakllari, jihozlaridan o‘rinli tartibda foydalana olishga o‘rgatish. Olingan nazariy bilimlarni, malaka va ko‘nikmaga aylantirish, amaliy jihatdan qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda shu vaqtga qadar ta’lim-tarbiya ishlarida xalqning boy pedagogik merosidan, hadislar va she’riy mantlarda oldinga surilgan g‘oyalardan to‘la foydalana olganimiz yo‘q. Aslida bular inson ma’naviy kamolotining hamma davrlari uchun ham ahamiyatli bo‘lib qoladigan zaminlardir.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosidan, ahloq, odob, tarbiya borasidagi an’analardan qanchalik samarali foydalansak, milliy Vatanimizning chinakam fidoiysi bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash borasida shunchalik sezilarli yutuqlarga erishamiz.

Talabalardagi yetuk jihatlarni shakllantirishda boshqa fanlar bilan bir qatorda “Xalq pedagogikasi” fanining ahamiyati katta. Bu fan yoshlarda mavxum qoidalarni emas, balki hayotda halol vijdon va iymon bilan yashashni o‘rgatmog‘i kerak. Har bir fan kishilarga muayyan bilimlarni o‘rgatadi. Bu bilimlar kishilarning yuksak ahloqiy fazilatlari bilan qo‘shilganda yetuk ma’naviy boylikka aylanadi.

Milliy an’analalar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish ko‘rinishi. Milliy an’analalar umuminsoniy an’analarning bir millat darajasida namoyon bo‘lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o‘ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalardagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkazadi.

2. Xalq pedagogikasining didaktik tamoyillari.

Milliy an'analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari namoyon bo'ladi. Millatning har bir avlodni milliy an'analarni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Millatning tanazzuli milliy an'analarning ham tanazzulidir.

Xalq qadim zamonaldayoq aql faqat bilimni emas, balki bilimni amalda qo'llashni ham o'z ichiga oladi, degan fikrga keldi. U aql g'oyalar majmuidan iborat, aqli odamgina barcha hayot hodisalarini tushuna oladi va maqsadga erishadi degan fikrni olg'a surdi. Buning uchun bolaga yoshligidan boshlab ta'lim berish lozimligini ta'kidlaydi. Xalq o'z tafakkur kuchi va tajribasiga asoslanib, o'z ta'lim metodlarini ham tavsiya etadi. Ushbu ta'lim metodlari buyuk mutafakkirlarning didaktik qarashlaridan qolishmaydi.

Etnopedagogika manbalarida ta'kidlanishicha, o'qishning kechi bo'lmaydi. Hadislarda: "Beshikdan qabrgacha ilm izla", - degan fikr xalqning ushbu fikriga mazmunan juda yaqin. Shuningdek, A. Navoiyning:

"Bilmaganin so 'rab o 'rgangan olim,

Orlanib so 'ramagan o 'ziga zolim" ...

tarzidagi hikmatli baytlari ham etnopedagogika durdonalaridan mohirlik bilan foydalanish natijasi bo'lib, u o'quvchini ilmlarni boshqalardan tinimsiz o'rghanishga chorlaydi. Shuningdek, xalqda: "Agar o'zing bilmasang, bilganlarga quloq tut", deyiladi.

Etnopedagogikada ilm egallash mashaqqatli yo'l ekanligi ta'kidlanib, uning: "Ilm olmoq igna bilan quduq qazish bilan teng" ligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "Takrorlash – bilimning onasi" ekanligi "Bir saboqni ming takror qil!" maqolida yanada kuchliroq mazmun kashf etadi.

Xalq ta'limni tizimli va uzlusiz olish lozimligini allaqachon anglab yetgan. Uning didaktik qarashlarida o'qish – oqimga qarshi suzishga o'xshatiladi. Chunki, oqimga qarshi suzishda to'xtagan kishi orqaga ketganidek, o'qishda to'xtash ham ilm egallashni orqaga suradi.

Ta’limning ko‘rsatmaliligi ham xalq e’tiboridan chetda qolmaydi. “O’n marta eshitgandan bir bor ko‘rgan yaxshi” maqoli bu fikrni yorqinroq ifodalaydi.

Ta’limning muhim elementi – bilimlarning mustahkamligi tamoyili. Yoshlikda samarali amalga oshishini: “Yoshlikda o‘rgangan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabitidir” maqolida bayon qilinadi.

Shuningdek, xalq pedagogikasi manbalarida ilmning qiymati uning amalda qo‘llanilishi bilan o‘lchanishi alohida ta‘kidlanadi. Hayot uchun foydasiz ilmni egallash qoralanadi. Amalda qo‘llanmaydigan bilim – yomg‘irsiz bulutga, uz bilimini boshqalarga o‘rgatmagan kishilar ko‘zaga solib qo‘yilgan yorug‘likka o‘xshatiladi.

Tillarni o‘rganishga xalq olamni bilish imkonini kengaytiruvchi vosita deb qaraydi. O‘zbeklar shuning uchun: “Tilni bilish- dilni bilishga yo‘l ochadi”, “Yuzta tilni bilgan kishi yuzta aqlning egasidir,-” deyishadi.

Ona tilini bilish, uni asrash – avaylash, ta’limni ona tilida olish aqliy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etishi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta‘kidlangan. Ona tili – xalqning bebaho boyligi, u “ona” so‘zini aytish, o‘z ismini bilish bilan bola qalbiga kiradi. Shu til vositasida bola olamni bila boshlaydi, ilk allalar bola qalbiga xalq san’ati ruhini olib kiradi va uni umrbod sehrlab qo‘yadi.

Xalq pedagogikasida ilmni yoshlarga amaliy hayotda zarur bo‘lgan tabiiy bilimlar bilan bog‘lab tushuntirishga alohida e‘tibor beriladi.

Shuningdek, miflar, afsonalar, dostonlardagi ijobiy qahramonlar ham ilm va ustozlarini hurmat qiluvchi, bilimdon, topqir, kasb – hunarli, matonatli, hayot qiyinchiliklarini o‘zi egallagan ilm va hunar vositasida bartaraf etuvchi kishilar sifatida ko‘rsatilgan. Dushmanga qarshi kurashdagi mahorat ham harbiy ilm sifatida tasvirlangan.

Laylakning kelishi bahordan, qaldirg‘och va yovvoyi kabutar – yozdan, qarg‘an qag‘illashi – qordan, sovuqdan darak beradi deb tushunilib, shunga mos yumushlar (hosil yig‘ish, ekish ...) bajarilgan.

Bolalarga sigirning 9 oyda, tuyaning 12 oyda, qo‘ylarning 6 oyda bolalashi, mollarning yoshini ularning tishlariga qarab aniqlash o‘rgatilgan. “Baliq”, “sigir”

yillari serhosil, “ilon”, “ot”, “sichqon” yillari qurg‘oqchil bo‘ladi deb tushuntirishgan.

Matematikaga doir bilimlar masofani, hosilni, qurilayotgan uylar o‘lchamini o‘lchash bilan; fizikaga doir bilimlar amaliyot bilan bog‘liq holda oddiy richaglar, shamol va suv kuchidan foydalanish misolida; kimyoviy ilmlar chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash (masalan, sutdan qatiq, yog‘ ... olish, yog‘ni kuydirish ...), o‘simgiliklardan bo‘yoq olish, kiyimlarni tozalash, yuvish bilan; astronomiyaga doir bilimlar yulduzlar va quyoshga qarab vaqtni aniqlash misolida; tibbiyotga bog‘liq bilimlar dorivor o‘simgiliklarni to‘plash va hayvonlar hamda o‘simgiliklar yog‘laridan foydalanib kasallikkarni davolash misolida o‘rgatilgan. Bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan mustahkam bog‘lab tushuntirilganligi ahamiyatlidir.

Xalq pedagogikasida bolalarning tafakkuri, mushohada qobiliyatini o‘stirishda topishmoqlardan unumli foydalanilgan. Topishmoqlar vositasida bolalarga ibtidoiy hisob (qo‘sish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari) o‘rgatilgan. Bular jumlasiga: “Pak-pakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor” (piyoz), “Aylanaverib-aylanaverib semirdi xonim” (urchuq), “Otarda yuz qo‘y va echki bor. Ularning nechta oyog‘i va qulog‘i bor?” (100 ta qo‘y va echkida 400 oyoq, 200 qulog bor) va boshqalarni kiritish mumkin.

Yoki otasidan: “Yoshingiz nechada?” deb so‘ragan bolaga ota: “O‘zingning yoshingga ... yoshni qo‘shsang, mening necha yoshga kirganligimni topasan”, - deb javob bergen.

3.Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari.

Xalq pedagogikasida aqliy tarbiya bilan birgalikda yoshlarga tarbiyaning boshqa yo‘nalishlarini ham singdirishga alohida e‘tibor berilgan.

Biz ushbu bandda xalq pedagogikasida tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz, xalos. Chunki, keyingi mavzularda tarbiyaning har bir yo‘nalishi xususida alohida fikr yuritish ko‘zda tutilgan.

Jismoniy tarbiya etnopedagogika manbalarida yetakchi tarmoqlardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Ularda ichish, chekish singari salbiy odatlar tanqid qilinadi.

Jismoniy – tarbiya komil shaxs tarbiyasining ajralmas qismi ekanligi afsona va dostonlar qahramonlari misolida; ertaklar, maqollar vositasida ko‘rsatib beriladi. Jismoniy – tarbiya sog‘liqning garovi ekanligi, sog‘liq esa eng qimmatli boylik, unumli mehnat, to‘kin – sochinlik, baxtli hayot vositasi, go‘zallik manbai ekanligi, Vatan, el-yurt qalqoni ekanligi yuksak pardalarda kuylanadi.

O‘yinlar – bolalarni jismoniy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, milliy tarbiyada zarur vosita ekanligi hisobga olingan. Jismoniy – tarbiya, o‘yin, mehnat jarayonida qo‘shiqlar aytilib, estetik tarbiya amalga oshirilgan.

Aytishuvli o‘yinlar, qo‘shiqli o‘yinlarni ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Masalan: “Oq terakmi, ko‘k terak, bizdan sizga kim kerak?” kabi. O‘yinlarda aytiladigan qo‘shiqlarning mazmuni yil fasllari bilan, mavsum va boshqalar bilan bog‘langan:

“Quyosh chiqdi olamga, yugurib bordim xolamga ...”,

“Boychechagim boylandi, qozon-tovog“ing ayrondir ...”,

“Yomg‘ir yog‘aloq, yam-yashil o‘tloq,

Endi ekinlar chiqarar qulqoq ...” va boshqalar.

“Ko‘pkari”, “Uloqtortar”, “Qizquvdi”, “Olomon poyga”, “Kurash”, “Chillak” “Beshtosh” singari o‘yinlar jismoniy-tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Xalq pedagogikasida oilaviy tarbiyaga ham alohida e‘tibor berilgan. O‘tmishda ota-bobolarimiz yoshlarni ota-onani, qarindosh va yurtdoshlarni hurmat qilishga chorlovchi maqol, matallarni yaratishgan. Oilaviy turmush axloqi puxta egallagan, bolajon, insonparvar qahramonlar afsona va dostonlarda kuylangan:

“Bolaginamning bolasi – qandak o‘rikning donasi”, “Davlating – ota-onang”, “Yomon xotin – umr azobi”, “Ota rozi – xudo rozi”, “Odobli bola elga manzur”, ... kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, xalq pedagogikasi manbalarida komil insonni shakllantirish uchun ularga ilm, kasb-hunar o‘rgatish; tarbiyaning ijtimoiy turmush uchun zarur yo‘nalishlarini mustahkam singdirish lozim ekanligi targ‘ib etiladi.

Vatan - bu faqat yer, suv, tog‘lar, daryolar, tabiiy boyliklarda emas, balki u odamlar, ularning ma’naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy munosabatlari hamdir.

Atoqli shoir G‘. G‘ulom aytganidek: “Insonga hurmat bu – o‘zni tanimak” dir. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida inson olamdagи eng ulug‘ jonzod sifatida ulug‘lanadi.

Xalq pedagogikasida azaldan insonni ulug‘lash, uning qadr-qimmatini, xalq manfaatini yuqori qo‘yish targ‘ib etiladi. Jumladan xalq maqollarida olamda yashayotgan barcha kishilarga bu yorug‘ jahonda har bir inson mehmon ekanligi va buni yodda tutib, bir-birini qadrlash zarurligi uqtiriladi:

Bir uy to‘la jonsan,

Bir biringga mehmongan.

Etnopedagogikada inson shaxsining shakllanishi, tarbiysi va rivojlanishi murakkab, uzlucksiz jarayon ekanligi g‘oyatda to‘g‘ri talqin etiladi. Shuning uchun uni qadrlash, insonni arzimas kamchiliklari uchun yerga urmaslik lozimligi targ‘ib etiladi. Negaki, shaxsning shakllanishi jarayoni g‘oyat murakkab kechadi va u mashaqqatli mehnat evazigagina yuz beradi. Jumladan:

Bir yigit qirq yilda voyaga yetar, yoki:

O‘z qadrini bilmagan, kishi qadrini bilmas.

Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar.

Insonni qadrlash masalasi xalq pedagogikasida bolaga nisbatan munosabatda ham ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun bolaning tarbiyasiga ona qornidan boshlab e‘tibor berish darkorligi ta‘kidlanadi. “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Bolaginamning bolasi, qandak o‘rikning donasi” va b.

Xalq pedagogikasida insonning ulug‘lanishi ota-onas, oilaning boshqa a’zolari, er-xotin munosabatlari, do‘s, qarindoshlarga bo‘lgan munosabatlar misolida ko‘rsatib o‘tiladi. Yomon odamlarni qadrlash befoyda ekanligi ta‘kidlanadi. Chunonchi, “Davlating-ota-onang”, “Boqmasang, moling ketar, xo‘rlasang, xotining ketar”, “Bo‘z yaktak qichitar, yaxshi xotin tinchitar”, “Yaxshi-qand yedirar, yomon-pand yedirar”, “It bilan tenglashma, kuchuk bilan o‘ynashma”, “Yomon o‘zini bilmas, o‘zgani ko‘zga ilmas”, “Dili qing‘irning tili qing‘ir” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Dostonlarda tasvirlangan personajlararo konfliktlar ham inson qadr-qimmatini joyiga qo‘ymaslik va boshqa salbiy axloqiy sifatlar zamirida tug‘iladi. Jumladan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li va Bozirgon” va boshqa dostonlarda aka-uka, do‘stlararo munosabatlarda bir-birini qadrlamaslik oqibatida inson taqdiri va hayotini o‘zgartirib yuborish darajasidagi voqealar sodir bo‘ladi.

Tarbiyaning vorisiylik xususiyati faqat hozirgi zamon pedagogika fanida emas, balki qadim zamonlardayoq xalq pedagogikasi manbalarida ta’kidlangan. Shuning uchun biz xalq pedagogikasi durdonalaridan yoshlar tarbiyasi borasida foydalanishimiz davr talabidir.

Oila noyob va yaqin qon-qarindoshlik hissiyoti asosiga qurilgan jamoa. Bola o‘zining eng ardoqli hissiyotlarini oila a‘zolari bilan baham ko‘radi. Oilaning ichki munosabatlarida ota-onaning o‘rni g‘oyat kattadir. Unda ota-onaning tarbiyaviy ta‘siri bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi. Chunki, bola muhim tarbiyaviy sifatlarni ota-onadan, oila a‘zolaridan o‘rganadi. O‘g‘il otasiga yoki akalariga, qiz esa onasi yoki opalariga o‘xshashga harakat qiladi. Shu maqsadda bola oilada kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi. Ularni zimdan kuzatib, o‘zi uchun ma’qul sifatlarni o‘zlashtirib oladi. Shuning uchun xalqda balalar haqida fikr yuritilganda uning otasi yoki boshqa biror qarindoshiga o‘xshab ketishi haqida aytildi. Hatto, kelin tanlash, turmushga berishda ham oilasi, ota-onasi surishtiriladi. Masalan:

“Onasini ko‘rib, qizini ol!”

Inson shaxsidagi tarbiyaviy sifatlar har doim ochiq namoyon bo‘lavermaydi. Insoning ichki dunyosini bilish uchun uni ba’zan yillar davomida kuzatishga to‘g‘ri keladi. Hayotda kishi o‘zi bilmagan holda gohida bolalikdan uz oilasida ongiga singgan tarbiyaviy sifatlarni namoyon qiladi.

Tarbiyadagi vorisiylik tarixan keksa avlodlardan kelajak avlodlarga meros sifatida o‘tadi. Har bir millat va xalqning o‘z milliy tarbiya metodlari shu millat birga yashaydi. Hayotda tajribasiz yoshlarga keksalardan pand-nasihat olish, o‘rganish tavsiya etiladi. Ayniqsa, vatanparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik,

mehnatsevarlik, tarbiyasiga doir tarbiyaviy o‘gitlar hozdirgi davr uchun ham qimmatlidir. Shuning uchun xalq pedagogikasida keksalarni e’zozlashga undaladi.

4-mavzu: “Xalq pedagogikasi” va O‘rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari.

Reja:

1. Sharq uyg‘onish davri allomalari merosi-bebaho ma’rifiy meros.
2. Buyuk mutafakkirlar hayoti va faoliyati – ibrat maktabi.
3. Ma’rifatparvar olimlar manbaalarida xalq pedagogikasining talqin etilishi.

Tayanch tushunchalar: Uyg‘onish davri, Mavarounnah, geodeziya, “Baytul Hikma”, ta’lim-tarbiya yo‘llari.

1. Sharq uyg‘onish davri allomalari merosi-bebaho ma’rifiy meros.

Erkin shaxs ma’naviyati, zamonaviy demokratik g‘oyalar va milliy-ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish fozil jamiyat haqidagi qarashlar Forobi, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy adabiy-ilmiy merosidan ham quvvat oladi.

Shunday ekan, Mamlakatimiz yoshlariga yanada zamonaviy ta’lim-tarbiya berish va ularga ta’lim berish jarayonida buyuk mutafakkir olimlarimizni

ijod yo‘llarini tanishtirib, yoshlarda jonajon Yurtimizga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir.

Bugungi kunda iqtisodiy va siyosiy soxalardagi barcha isloxtatlarning asosiy maqsadi yurtimizdayashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib xayot sharoitlarini tashkil qilishdan iboratdir. Shu jihatdan har tomonlama mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zeroki, istiqlol davrida ma’naviy merosimizni tiklashda amalga

oshirilgan ulug‘vor ishlar, tariximizni xolisona o‘rganish, ulug‘ allomalar adabiy ilmiy asarlarining tarjima va nashr qilinishi, ta’lim berishni takomillashtirish, adabiyot, san’at sohasidagi yutuqlar bularning barchasi jamiyatda ma’naviy - ruhiy ko‘tarilishga olib keldi va iqtisodiyotimizning ustivor yo‘nalishlaridagi islohotlarga qo‘shimcha kuch bag‘ishladi. Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tengi yo‘q fikr, g‘oyalarni ilgari surganlar, ta’limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o‘rganish tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o‘zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon ham jamiyatidagi obro‘ e’tiborini yanada oshiradi. Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to‘plagan tajribalarini o‘rganish esa ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

2. Buyuk mutafakkirlar hayoti va faoliyati – ibrat maktabi.

Abu Abdulloh ibn Muso al-Xorazmiy (783-850). Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor bergen. Bunda u ilm izlovchilarining ilmiy manbalarni to‘plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, “Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala” asarida olimlarni uch guruhga bo‘lib shunday yozadi: Ulardan biri o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o‘zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo‘lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to‘playdigan odam bo‘lib, u o‘zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmaydi va o‘zi qilgan ishidan mag‘rurlanmaydi.

Shuningdek, al-Xorazmiyning falakiyot ilmiga oid asarlari ma’lumotlaridan ikki asrdan ko‘proq vaqt davomida ko‘plab rasadxonalarda foydalanib kelindi.

Xususan, Sharqda va G'arbiy Yevropada (Nyuton, Gershel asarlari paydo bo'lganga qadar) asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, al-Xorazmiy "Donishmandlik uyi"da falakiyat, riyoziyot va boshqa soha olimlari orasida o'zining ulug' salohiyati, qobiliyati bilan ajralib turgan. Al-Xorazmiy bu davrda o'zining ilmiy faoliyati, tabiiy-ilmiy qarashlari bilan ilg'or ma'rifiy-pedagogik tafakkur va tabiiy-ilmiy fanlar rivojiga keng yo'l ochdi. Riyoziyotda mavhumlikni (abstraksiyani) kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumi yechish usullarini hal qilib, deduksiya hamda umumi usullari yordamida turli xususiy masalalarni yechdi. Uning kashfiyotlari va asarlari dunyoviy, ya'ni aniq fanlarni mustaqil rivojlantirishga keng imkon yaratdi.

Shuning uchun ham al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy kashfiyotlari bilan o'zidan keyingi butun ma'naviy taraqqiyotga, tabiiy-ilmiy tafakkurga, haqiqatni aniqlash uslublariga juda katta ta'sir o'tkazdi. Al-Xorazmiy ob'ektiv munosabatlarning, tabiiy jarayonlarning eng muhim xususiyatlarini o'rganish zarurligini, atrof-muhitni tadqiq etishda insonning ongi va ilm-fanning ahamiyatini yuqori baholadi.

Shularni e'tiborga olsak, o'z vaqtida al-Xorazmiy tabiiy-ilmiy fanlarning, ayniqsa, riyoziyot, falakiyat, jo'g'rofiyaning rivojlanishiga, bu fanlarning mustaqil taraqqiyotiga to'g'ri yo'nalish berishda o'zining tutgan yo'li bilan ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu boisdan ham hozirgi zamon olimlari IX asrning birinchi yarmini "Al-Xorazmiy davri" deb atayotganlari bejiz emas.

Abu Nasr Forobiy(873-950) o'z asarlarida ta'lim tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim tarbiya usullari haqida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt va saodatga erishuv to'g'risida", "Ixso al-ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to'g'risida" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Forobiy ta'lim tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi. U ta'lim-tarbiyaga birinchi bo'lib ta'rif bergen olim.

Ma’rifat - tarbiyalanuvchining xohishi va irodasini kerakli yo‘nalishda boshqarish san’atidir, deydi.

Forobiy ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya ta’limning nazariy fazilatlarni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish”.

Forobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm xikmatni o‘rganagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ – salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi ahloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Bu fikrlardan Forobiyning ta’lim –

tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezat mog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi. Forobiy “tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o‘zi tarbiyali bo‘lmog‘i shart”, deydi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy –

ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, otao naning asosiy maqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota – ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatda bo‘lish, unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat jismoniy, aqliy tarbiya bilan uzviy

birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishga da'vat etgan. U bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

-bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;

-ta'limda yengildan og'irga borish orqali bilim berish;

-olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;

-jamoabo'libmaktabda o'qitishga e'tiborberish;

-bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;

-o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Ibn Snno o'zining "Tadbiri manzil" asarining "Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash" bo'limida to'xtalib, ta'lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Bolalarga bilim berish pedagogning asosiy burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino pedagog qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

-bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish;

-berilayotgan bilimni bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;

-ta'limda turli usullardan foydalanish;

-fanga qiziqtira olish;

-berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;

-bilimlarni bolalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

-har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan ijtimoiy muhit alohida rol o'ynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki

uning hulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta'sir etishi ni, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyyotkor bo'lish, uni yomon

ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilai bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi. Bolaga hali u tug'ilmasdan turib g'amxo'rlik qilish, go'daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini

ta'kidlaydi. IbnSinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishida asosiy mezon sifatida talqin qilinadi.

Qomusiy olim **Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy** (973-1048) ong, idrok jarayoni va uning kechishini puxta o'rganishga harakat qilgan. Idrok etish faoliyatini faollashtiruvchi o'qitish shakl va usullarini ilmiy jihatdan asoslab bergen.

Alloma quyidagi pedagogik tamoyillar, o'quv-tarbiya shakllari va usullarining shaxsini kamolga yetkazishdagi o'rni va roli beqiyos ekanligini ta'kidlaydi:

- berilayotgan ma'lumotning tushunarligi (bilimlarni berishda o'quvchi-talabalar uchun tanish bo'lган, ya'ni yaqindagi ob'ektlar asosiad unga tanish bo'lмаган, (uzoqdagi) ob'ektlarning mohiyatini yoritib berish, ma'lum bilimlar negizida noma'lum tushunchalarning asoslanishi ijobjiy natijalarni kafolatlashiga e'tiborni qaratadi);
- o'quvchi-talabalarni ilmiy asoslar bilan qurollantirish (ushbu jaryonda o'quvchi-talabani ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirish, unda tajriba o'tkazish va amaliy kuzatishni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini shakllantirish, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni doimiy ravishda takrorlab borish bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam berishini qayd etib o'tadi).

Beruniyning ta'limning muhim masalasi ta'lim jarayonida amaliyotda sinalgan, ishonchli dalilllar bilan o'quvchi-talabalarni qurollanishidir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday ta'lim jarayoni o'quvchi-talabalarning ongli faoliyatini, uning mantiqiy mushohada yuritishini faollashtirishga yo'naltirilgandir. Chunki anglamagan hodisalar anglagan hodisalar orqali tushuniladi. Tajriba asosida yangilik o'zlashriladi.

Og'zaki va yozma ma'lumotlarni o'rganish tajribasi, dalillarga tanqidiy yondashishi, qiyoslash, mnatiqiy umumlashtirish, bilimni ongda qayta ishslash borliqni anglashning ilmiy uslubidir, deydi Beruniy.

Beruniyning ta'kidlashicha, bilim olish va insoniyat yaratgan bilimlarni egallash uchun o'quvchi-talabadan dastlab axloqiy poklikni talab qiladi. Shuningdek, ta'lim bilan tarbiyaning bir butunligini ko'rsatadi, faqat shu birlikka amal qilgan shogirdlar kamolot sari bora oladi, deb ishontiradi.

O'quvchi-talabalarning yaxshi o'qishi uchun muallim rostgo'y, savodxon, shogirdlariga prinsipial yumshoq muomalali bo'lishi kerak. Muallim o'quvchi-talabani doimo to'g'ri yo'lga boshlashi, uning sezgir va talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi. ZOTAN, o'quvchi-talabaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim-tarbiya mezonidir.

Beruniy o'qitish jarayoni muallimning o'qib-o'rgatishi, takrorlashi bilan bevosita bog'liq ekanini alohida uqtiradi. Shuningdek, u kitob o'qishning usul va metodlariga alohida e'tibor beradi. Kitoblarni shunchaki emas, balki fikrlab, kichik-kichik bo'limlarga bo'lib o'qish, hamma o'qilgan joylarini umumlashtirib, qayta o'qish haqida didaktik mulohazalar bildiradi.

Beruniy o'qitishga faqat induktiv yo'l bilangina emas, balki deduktiv yo'l bilan ish tutish lozimligini ta'kidlaydi. Bunda olim har qaysi metodni o'z joyida qo'llamoq zarurligini yaxshi bilgani ko'rinish turibdi. Bunday o'qish tafakkurni o'stirib, bilishning sifatini yaxshilaydi, aqliy bilimlarni boyitadi.

Ma'lumki, o'quvchi-talabani to'g'ri, ravon o'qishga o'rgatish, asosan, alifboni o'rgatish davrida amalga oshiriladi. O'qish bilan savod o'rganish jarayonida o'quvchi-talabaning bilim va malakalari takomillashtiriladi. O'qish darslari grammatika, orfografiya, matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlardan beriladigan bnimlarni mustahkam egallahda muhim rol o'ynaydi.

Abu Rayhon Beruniy dastlab o'quvchi-talabaning ongli o'qishi, matnning hajmi kichik, mazmuni sodda, keyinchalik esa xajmi katta mazmuni murakkabroq bo'lganlarini o'qishga kirishishi, o'qish jarayonida taqqoslash, qiyoslashga e'tibor berish talabalarning ongli bo'lishiga asos solishini eslatib o'tgan.

Olim o'qilganlarning xammasini qaytarib o'qish deganda, asosan, xato qilmay, so'zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlamatmay, bo'g'lnlarni tushirib qoldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi.

O‘qishning tez, to‘gri va ifodali bo‘lishi, o‘qish davomida bolaning o‘z- o‘zini tuzatib borishi xatosiz o‘qishga yordam beradi. Bunday o‘qishda asar mazmunini tushunib so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilib va ifoda etilgan voqealarning ichki va tashqi mohiyatini anglab o‘qishni ta’kidlaydi.

Hozirga vaqtida o‘quvchi-talabaning savodli o‘qishida to‘rtta asosiy tarkibiy qism, ayniqsa ahamiyatlidir. Bular ongli, ifodali, to‘g‘ri va tez o‘qishdir. Ular o‘zaro ichki bog‘lanish motivlariga ega. O‘rta asrning buyuk donishmandi Beruniy o‘qish haqida ana shu o‘zaro bog‘liqlik o‘quvchi-talabalarning o‘qish faoliyatini mukammallashtirishga, rivojlantirishga imkon yaratishini nazarda tutgan edi.

Abu Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qo‘yadi, shu bilan birga, bilim berish xilma-xil yo‘l bilan, eng muhimi, o‘quvchi-talabani toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan o‘quvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilishni chukurlata borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi. U haqiqiy maqsadga erishish uchun yo‘lini to‘sib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyojkorlik bilan xarakatlanish lozimligi, o‘zlashtirilgan bilimlar xayotda tajriba qilib olinmasa bundan hech naf bo‘lmasligi haqida gapiradi. X-XI asrlarda Beruniyning didaktikasidagi ta’lim berish usullari va metodlari ayrim jihatlarining soddaligi va qarama-qarshiliklariga qaramasdan, katta kashfiyotligi va ilmiyligi bilan qimmatlidir.

Yusuf Xos Hojib (1015-1070) o‘z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. U “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari muallifidir.“Qutadg‘u bilig” –baxtva saodatga eltuvchi bilim, ta’lim degan ma’non bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlari, ta’lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma’rifiy asar ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.“Qutadg‘u bilig” — XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf odat va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan. Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o‘tish olimning ta’lim - tarbiya, axloq

masalalarini qay darajada chuqur bilganligiadolat, ishonch, sadoqat, xushmuomala -lik, shirin so‘zlik, saxovat, mardlik, xurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql-zakovat, xalollik, ezgulik kabi, xislatlar ulug‘lanadi.“Qutadg‘u bilig”da bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday ko‘rgan bo‘lsa, shu asosda o‘z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga Sharq etikasiga ahamiyat berib kelgan. Sharq xalqining ulug‘ an’anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan shoir mazkur muhim axloqiy muammoni o‘ziga xos falsafiy talqin qiladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun, u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim.Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o‘zining badiiy ifodasini topgan yirik ta’limiy – axloqiy

dostondir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1.Aqliy kamolot-bilim va zakovat.

2.Axloqiy kamolot.

3.Jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.

O‘z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli allomalaridan biri
(XI asr) Kaykovusdir.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari Sharqda saqlanib kelayotgan an’anaga ko‘ra pand-nasixat tarzida yozilgan bo‘lib, bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim

qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. U Sharq ma’rifatchilik fikri taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o‘rinni egallaydi.U yoshlarga o‘zini uch narsadan: ko‘zni yomon nazardan, qo‘lni yomon ishdan, tilni yomon so‘zdan saqlashni tavsiya etadi.Kaykovusning “Qobusnoma”si XI asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o‘sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari otta yurish, merganlik,suvda suzish, harbiy mashqlar, ifodali o‘qish, xattotlik, she’r yozish, musiqa bilimini egallashi kabilar o‘z ifodasini topgan.Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyat bilan bog‘lab olib bordi, uning o‘gitlari har qanday tuzumda ham o‘z qiyomatini yo‘qotmadni va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulugbek (1394-1449)

Markaziy Osiyo
xalqlari ilm
fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Markaziy
Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan
biridir. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib,
ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da’vat etdi. Faqat rivojlangan fan va
madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta’minlashga ishondi. Allomaning
uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiya
lanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota –
onalar ayniqsa, o‘qimishli ota –
onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tib
or berishlari lozim . Mirzo Ulug‘bek o‘z pedagogik qarashlarida
bolalarning jismonan sog‘lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib
yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Mirzo Ulug‘bekning fikricha, odam sog‘lom
va baquvvat bo‘lishi uchun yoshlik chog‘idayoq jismoniy mashqlar bilan
shug‘ullanishi, ta’lim –
tarbiyada qalloblik bo‘lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo‘lishi kerak.
Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish

haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga

bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi, ya’ni oilada ota – onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.Qomusiy bilimlar soxibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham va san’atni turli sohalari; adabiyot, tarix, til, musiqa, xattotlik, tasviriy san’at, me’morchilik va boshqa bilimlarni rivojlantirish bilan birga ta’lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e’tibor bergandi.

Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ma’rifiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etadi. Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta’lim tarbiya aqidalari, o‘zidan ilgari o‘tgan mutafakkirlarning karashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o‘rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning moxiyatini yoritib berdi.Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ibetadi. U bilimni uzlucksiz o‘rganish zarur, deydi.

Buyuk alloma bilim olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini o‘z davrida maktab, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda bilim olish imkoniyatlaridan foy dalanishni tavsiya etadi.Alisher Navoiy har bir inson aqlli, ahloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdir, saxovatli, sabrqanoatli,adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo‘lmog‘i lozim, deb ta’kidlardi.Navoiy bunday fazilatlarga ega bo‘lgan barkamol insonning faqat badiiy obrazini yaratib qolmay, uni tarbiyalash usullarini ham bayon etdi va ma’rifat, ilm-fan taraqqiyotida “Nazmul-javohir”, “Xayratul-abror”, “Mahbub-ulqulub”dek shoh asarlari bilan munosib o‘ringa ega bo‘ldi. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. “Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab

tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir –birlariga bo‘lgan ruxiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi”, deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi.

Buyuk shoir va olim, fors-tojik mumtoz adabiyotning ulug‘ namoyondasi **Nuriddin Abduraxmon Jomiy (1414-1492)** o‘zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o‘lmas me’ros qoldiradi. U o‘z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo‘lda yozilgan “Bahoriston” asarida ta’lim–tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi. Jomiy o‘z asarlarida yoshlarni ilmlarini egallashga da’vat etadi. U o‘z pedagogik qarashlarida kishilarniadolat, xushmuomalalik va dono so‘z bilan zulmkorlarga ta’sir etishga da’vat etadi. A.Jomiy “Muallim bilimli, aqlli,adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”, deb ta’kidlagan.

3.Ma’rifatparvar olimlar manbaalarida xalq pedagogikasining talqin etilishi.

Sharq jonlanish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi. Birinchi yo‘nalish — matematika-tibbiyat yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyat, farmakalogiya va boshqa shunga o‘xhash fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniylar matematikaga oid, Zakarnyo Ar-Roziy va Ibn Sino kimyo va tibbiyatga oid yirik asarlar yaratdilar. Ikkinci yo‘nalish — ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish, bunda falsafa, tarix, matniq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va shunga o‘xhash boshqa fanlar bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar Forobi, Al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar.

Uchinchi yo‘nalish — ta’lim va tarbiya yo‘nalishi bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarn tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar o‘z asarlarida ta’lim - tarbiyaniig nazariyasini ifodalaganlar. Ma’lumki, Sharq jonlanish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo‘lgan. Shuning

uchun ham ta'limtarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan. Ma'rifiy risolalarda as osan axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Koshifiy, Kaykovus, Sa'diy, Jomiy, Navoiylarning "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv haqida", "Ahloq ha qida risola", "Ishq risolasi", "Qutadg'u bilik", "Axloqi Nosiriy", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Muxsiniy", "Hibbatul haqoyiq", "Qobusnama", "Guliston", "Bo'ston", "Maxbubulqulub" kabi ta'lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, ma'naviyati ni shakllantirish muammosini hal etishda sof ma'rifiy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda insonning ma'naviy kamolga yetishishi yuksak xulqodob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g'oya ilgari surilgan.

Bugungi kunda xalq pedagogikasining rivojlanishida yuqorida kelirilgan ma'rifatparvar olimlarni asarlari qimmatli fikr va g'oyalari muhim axamiyat kasb etadi.

5-mavzu Xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifatida.

Reja

- 1.Xalq og'zaki ijodi haqida.
2. Xalq og'zaki ijodi turlari va uning janrlari.
- 3.Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Xalq og'zaki ijodi, Afsona, ertak, maqol, topishmoq, latifa, lof, me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, urfatlar, an'analar.

1.Xalq og'zaki ijodi haqida.

Uzoq o‘tmishda, hali yozuv kashf etilmagan paytlarda, kishilar o‘zlarining tabiat va jamiyatga bo‘lgan barcha munosabatlarini og‘zaki bayon etganlar. Mana shu jarayonda ularning og‘zaki ijodi paydo bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi o‘ziga xos bir necha xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning barcha janrlari ijro jarayonida yashaydi. Shu bois og‘zakilik xalq ijodiyotining yaratilish va yashash tarzi hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi yakka shaxslarning orzu-istiklari emas, balki jamoaning, ko‘pchilikning orzu-istiklarini ifodalaydi. Chunki og‘zaki ijod xukmronlik qilgan paytlarda ijodkor shaxsiyati hali ommaning ijodiy jarayonidan ajralib chiqmagan edi. Demak, ijodning ommaviyligi faqat xalq og‘zaki ijodigagina xos xususiyat xisoblanadi.

Albatta, har qanday asarni xalq ichidan chiqqan iste’dodli shaxslar yaratadi. Biroq bu asarlar ommaning g‘oyaviy-badiiy qarashlarini ifoda etadi, og‘izdan-og‘izga o‘tib, badiiy sayqal topadi va ommaning umumiy ma’naviy mulkiga aylanadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi asarlarining dastlabki yaratuvchilari noma’lum bo‘ladi. Asar ijodkorining noma’lumligi esa xalq og‘zaki ijodining o‘zigagina xos yana bir xususiyatdir.

Xalq og‘zaki ijodida xalq hayotining barcha sohalarida o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi janrlari nihoyatda xilma-xil bo‘lib, ular kishilar turmush faoliyatining turli sohalari turlicha shakllarda ijro etilgan. Masalan, kishilar tirikchilik uchun zarur bo‘lgan turli-tuman ishlar bilan shug‘ullanish jarayonida qo‘shiqlar kuylaganlar.

Xalq og‘zaki ijodining shunday janrlari borki, ular qo‘shiq sifatida ijro etilmay, balki bayon qilinadi. Afsona, ertak, maqol, topishmoq, latifa, lof kabi janrlar buning yorqin misoli bo‘la oladi.

Shunday janrlar ham borki, ular maxsus cholg‘u asboblari yordamida (masalan, do‘mbra, dutor kabi) o‘ziga xos tarzda kuylanadi. Bunday janrlarga termalar va dostonlar mansub.

Xullas, xalq og‘zaki ijodi turli davrlarda vujudga kelgan, turlicha ijro etiladigan xilma-xil janr namunalaridan tarkib topgan. Xalq og‘zaki ijodi asosan

yozuv paydo bo‘lgunga qadar yaratilgan bo‘lsa-da, yozuv kashf etilib, yozma adabiyot vujudga kelgandan keyin ham to‘xtab qolmadi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodining maqol, topishmoq, qo‘sish qabi janrlariga mansub namunalar hozirga qadar ham yaratib kelinmoqda.

Shuni ta’kidlash joizki, milliy – ma’naviy yuksalishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni masalasini chuqur tahlil qilish uchun birinchi galda tarixiy jarayonlar tahliliga murojaat qilishimiz kerak.

Shu bois milliy – ma’naviy yuksalishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni masalasini har tomonlama chuqur o‘rganish va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

2. Xalq og‘zaki ijodi turlari va uning janrlari.

Xalq ommasining badiiy faoliyati inson nutqi shakllanishi bilan, xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimgi tur va janrlari xam qorishiq xolda yuzaga kela boshladi. Kishining badiiy tafakkurining turli shakllarini o‘z ichiga olgan bu ijod namunalari ibtidoiy inson turmush tarzi va faoliyatining barcha jixatlari bilan maxkam bog‘langan bo‘lib, qadimgi qarashlarini, boshlang‘ich ilmiy bilimlarini, tabiat va jamiyat xaqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimgi xalq, og‘zaki ijodining bunday namunalari bizgacha yetib kelmagan, balki ularning izlari, ayrim udumlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bogliq, turli-tuman tasavvur va qarashlarida, xalq, urf-odatlari, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba’zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda yozib olingan folklor asarlarida saqlanib qolgan. Afsona, rivoyat, lof, latifa, makal, topishmok,, ertak, doston, qo‘sish, va boshqalar xalq, og‘zaki badiiy ijodining asosiy turlari va janrlari xisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi insoniyat nutqi paydo bo‘lishi bilan yuzaga kela boshladi. Uni tashkil topishida o‘sha davr shart-sharoiti odamlarning mexnat turmush tajribalari, dunyoqarash va tushunchalari xal qiluvchi rol o‘ynagan. Eng avval, og‘zaki nasriy turining dastlabki namunalari vujudga kelgan. Ular nixoyatda sodda bo‘lib, turli xildagi undov, xitoblar va vokealar bayonidan iborat bo‘lgan mehnat jarayoni xamda ongning rivojlanishi voqeа va xodisalar talqinida oddiy bayondan obrazli tasvirga olib keldi. Sodda va takroriy jumlalar badiiy til vositalari bilan boyib

boshlagan. Shunday qilib, dunyoni estetik did bilan faxmlay olish badiiy so‘z tajribalarining taraqqiyoti dastlabki janrlarni yuzaga keltirdi. Avval kichik-kichik naql va miflar, mexnatni anglashtiruvchi, hayol og‘ishiga olib kiruvchi ertak hamda afsonalar yaratildi. Mexmat jarayonini ifodalab beruvchi qo‘shiqlarning namunalari paydo bo‘ldi. Demak, eng qadimgi xalq og‘zaki ijodi yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bulgan yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim xissa qo‘shgan, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib ijodiy ishlagan.

3.Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati.

Ajdodlarimiz turli vositalar orqali voqelikka o‘z munosabatlarini bildirganlar. Ularda insonning munosabatlari va ehtiroslari o‘z ifodasini topgan. Dastlab o‘z munosabatlari va tuyg‘ularini turli ovozlar, harakatlar yordamida ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik so‘zlar yordamida o‘z fikrlari va qarashlarini bayon qilgan. Asta-sekin moddiy olamning yaralishi, undagi voqeа-hodisalar haqida turli afsonalar, ertaklar, afsonalar, hikoyalar to‘qiganlar. Ularda insonning hayratlari, munosabatlari, tasavvurlari o‘z ifodasini topgan. Shaxslararo munosabatlar, ijobiy va salbiy qarashlar ajdodlarimizning qahramonliklari, jasorati, faxru iftixori haqida qo‘shiqlar, afsonalar, dostonlar yaratilgan. Ota-bobolarimiz yosh avlodni tarbiyalashda huddi manashu vositalardan unumli foydalanganlar. Mazkur etnopedagogik qadriyatlar jamoaviy turmush sharoitida yoshlarni ahloqiy tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, milliy g‘urur, fidoiylik, qabila sha’ni uchun kurashga undovchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bu vositalar xalq og‘zaki ijodining yorqin namunalari hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari tarbiyaviy imkoniyatlarining kengligi bilan alohida pedagogik ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz tomonidaan ilgari surilgan pand-nasihatlarda insoniylikning asosiy shartlari: To‘maris, Alp Erto‘nga, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik xalq qahramonlarining mardligi, jasorati, g‘ururi o‘zbek xalqining urf-odatlari, an‘analari bilan uyg‘un tarzda afsonalarning asosiy mazmunini tashkil etgan. Xalq tomonidan yaratilgan va etnopedagogik qadriyatlarga aylangan qo‘shiqlar, maqollar, ertaklar, dostonlar, bolalar folъklori namunalarida yosh avlodni g‘ururli qilib tarbiyalash yetakchi g‘oya sifatida

namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki namunalari etnopedagogik qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Etnopedagogik qadriyatlarda o‘zbek xalqining aqlidroki, pedagogik tafakkurini namoyon etadi.

O‘zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari etnopedagogik qadriyatlarni barcha turli, me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, urf-odatlar, an’analar va marosimlarda o‘z ifodasini topgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari etnopedagogik qadriyatlarning katta tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan turi hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiyaviy jarayonlarda xalq afsonalar, qo‘shiqlar, ertaklar, maqollar, dostonlar, matallar, aytimlar, topishmoqlardan keng foydalilaniladi.

6-mavzu: “Avesto” va xalq pedagogikasi g‘oyalaridagi uyg‘unlik.

Reja.

- 1.Xalq og‘zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati.
- 2.“Avesto” - qadimiy qo‘lyozma manba sifatidagi tarbiyaviy ahamiyati.
- 3.Avesto – ezgulik va adolat g‘alabasi namunasi sifatida.

Tayanch tushunchalar: Avesto, Zardusht, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik.

1.Xalq og‘zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati.

Inson azaldan atrofdagi voqelikka o‘zining shaxsiy munosabatini bildirgan va undan ta’sirlangan. Jamiyat a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlar, xatti-harakatlarda insonning o‘zligini anglashiga ko‘maklashadigan vositalar aks etgan. Natijada inson va jamiyat, odamlarning xis-tuyg‘ularini ifodalovchi ertaklar, hikoyalar, dostonlar xalq tomonidan to‘qilgan va unda shaxslararo munosabatlarning turli shakllarida namoyon bo‘lishi ta’minlangan. Turli qabilalarga mansub yigit-qizlarning xis-tuyg‘ulari, jasorati, mardligi, g‘ururiftixori haqida afsonalar vujudga kela boshlagan. Bu hikoyalar og‘izdan-og‘izga o‘tib, xalq og‘zaki ijodining asl namunalari shakliga kelgan. Ajdodlarimizning

yoshlarga bergan o‘gitlari, pand-nasihatlari, qadrli bo‘lishga oid talablar, Alp Erto‘nga, To‘maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari haqidagi afsonalar, o‘zbek xalqining urf-odatlari, milliy fazilatlarimiz maqol, qo‘sishiq, ertak, doston, bolalarga bag‘ishlangan asarlarda o‘z ifodasini topgan.

Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi namunalari etnopedagogik qadriyatlar sifatida e’tirof etiladi. Ular folklor namunalari hisoblanadi. Folklor atamasi ilk bor 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms tomonidan ilmiy muomalaga kirtilgan. Folkloarning asl mazmuni “xalq donoligi” tushunchasida aks etadi. Folklor xalq tomonidan yaratilgan barcha ijod namunalarini anglatadi. Me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, xalq og‘zaki adabiyot namunalarini folklor tushunchasi o‘zida mujassamlashtiradi. Ushbu tushuncha pedagogikada etnopedagogik qadriyatlar sifatida e’tirof etiladi. Maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qo‘sishiq, ertak, dostonlar, an’analar, urf-odatlar xalq musiqalari, tasviriy san’at namunalari etnopedagogik qadriyatlar sifatida o‘quvchi-yoshlarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

2.“Avesto” - qadimiyo qo‘lyozma manba sifatidagi tarbiyaviy ahamiyati.

Avesto — “Avesgo” (asli “Ovasto”) so‘zi “Ogoxnoma”, “Donishnoma” degan ma’nolarni ifodalaydi. “Avesto” zardushtiylik dinining mukaddas kitobi xisoblanib, o‘z davrida o‘sha paytlarda bu dinga e’tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob sanalgan va unga bir necha ming yillar davomida ixlos bilan amal qilib kelganlar. Xozir esa bu kitob ajdodlarimiz madaniyati, ma’naviy qadriyatlardan darak beruvchi, jadon tamadduniga (sivilizatsiyasiga) muhim hissa qo‘sghan, olmshumul ahamiyatga ega bo‘lgan ona yurtimizning eng qadimgi, mo‘tabar va nodir, madaniy tarixiy, ma’rifiy yodgorligi sifatida o‘rganiladi. Avesto uzoq, davrlar mobaynida - miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og‘zaki tarzda shakllanib avloldan-avlodga o‘tib kelgan. Muqaddas “Avesto” ning yozuvlari turli davrlarda yozilgan va bu yozuvlar xar xil ijtimoiy muxitning maxsuli bo‘lgan. Ularni milloddan avvalgi XII—VIII asrlar orasida Xorazmda tugilib o‘sgan Zardushta (Zardusht) bir tizimga solib, o‘zi xam “Avesto”ning

“Goxlar”(Gotlar) qismini yozib kitob qilgan va “Zardushtiyya”diniga asos solgan. Ya’ni Zardusht o’sha davrdagi ko‘pxudolik g‘oyalari va u g‘oya bilan bog‘liq, bo‘lgan urf-odat va diniy marosimlarga qarshi chiqib, yakkaxudolik g‘oyalarini targ‘ib etadi.

Zardusht insoniyat hayoti uchun g‘oyat zararli bo‘lgan ko‘pxudolik e’tiqodollarining g‘ayriinsoniy mohiyatini chuqur anglab yetdi va o‘z bilimlarini yakkayu yagona Oliy Tangri — Ahuramazda vaxiylari bilan boyitib, insoniyat ongi va mafkurasida inqilob yasab, o‘tmishning daxdshtli sarqitlariga bolta urub chil-parchin qilib tashladi va kishilik jamiyatining ma’naviy taraqqiyotini yangi yo‘nalishga soldi. Uning ta’limoti, siymosi va nomi bilan ataladigan “Zardushtiylik” dini insonlarga asrlar buyon ma’naviy madad, ruhiy oziqa bo‘lib xizmat qildi. Avestodagi qo‘shiqlar, sanolar bashariyat tomonidan uzoq-uzoq, yillar mobaynida qiroat bilan kuylab kelindi va insonlarda kelajakka umid, yaxshilik, ezgulik, mardlik, qaxramonlik, pokizalik, rostgo‘ylik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, yovuzlikka nisbatan esa nafrat xissini uyg‘otishga xizmat qildi. Ushbu qadimiyo qo‘lyozma manbaaning tarbiyaviy ahamiyati anashundadir. Zardushtiylik mamlakatlar bo‘ylab keng tarqaldi. Jumladan, qadimgi Parfiya, Baqtriya, So‘g‘diyona, Parkana, Ozarbayjon, Eron, Xuroson, Iroq, Mo‘g‘ulistondan tortib to Suriya, Xitoy, Shimoliy Xindiston, Rim, Habashiston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoning “Goxlar” (Goglar) qismini o‘zi yozadi, kitobning qolgan qismini esa xalq og‘zaki ijodini bir tizimga soladi.

Abu Rayxon Beruniyning yozishicha, Iskandar Zulqarnaym mil. avv. 330-yilda axamoniylar imperiyasini mag‘lub etgach, insonlarni yakkaxudolikka targ‘ib qilgan. Avestodagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doyir qismlarini tarjima qilib qoldirgan, qolgan ko‘pxudolikka oid qismini yoqib yuborishni buyurgan.

O‘tmishda “Avesto” va Zardushtning vatani qaerda bo‘lganligi to‘g‘risida olimlar o‘rtasida baxs-munozaralar bo‘lib o‘tgan. Pirovardida o‘ttizdan ortiq chet ellik mashxur avestoshunos olimlar va o‘zimizning qadimshunos, tarixchi, avestoshunos tadqiqotchi olimlar Zardushtning vatani O‘zbekiston, Xorazm deb

qatiy bir to‘xtamga kelganlar. Olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini BMTning maorif va madaniyat bo‘limi — YuNESKO ham tasdiqlagan. .

3.Avesto – ezgulik vaadolat g‘alabasi namunasi sifatida.

Avesto o‘zida dastlabki Zardushtiylik dini nomi bilan mashhur bo‘lgan muqaddas matnlar toplamidan iborat. Kitob o‘sha davr lahchasida yozilgan. “Avesto” matnlari ma’lum tartibda joylashgan bo‘lib, u murojaat mazmuniga ega. Avestoning asosiy qismi Yasna deb yuritiladi, Yasna atamasi marosim nomidan olingan. Zardushtiylikka bag‘ishlangan madhiyalardan iborat. Yasnaning asosi 5 iborat bo‘lib, ularning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Yasnaning tarkibiy qismi bolgan eng qadimgi Avesto Avesto tilida yozilgan. Yasnaning matni parchalarida Kichik Avesto bayon qilingan ma’lumotlar orqali nafaqat til haqida, balki o‘sha hududga doir muhim geografik ma’lumotlar aks etgan.

Eramizdan oldingi minginchi yillarning o‘rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mazmunida juda ko‘plab afsona, rivoyatlar aytilgan bo‘lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas kitobi - «Avesto»ga kiritilgan. «Avesto»ning o‘zi kim tomonidan yaratilgani to‘g‘risida turli taxminlar mavjud.

Ma’lumotlarga qaraganda, “Avesto” eramizdan avvalga XII asrning oxiri va VIII asrning boshlarida yaratilgan bo‘lib, to‘liq kitob shaklida eramizdan avvalgi I asrda shakllangan. Ushbu kitobda inson shaxsining takomiliga oid ma’rifiy fikrlarning mahlum bir tizimi ifodalangan. Hatto uni tabiiy, ilmiy, ma’rifiy fikrlar to‘plangan dastlabki pedagogik asar deyish mumkin.

Kitob 1200 bobdan iborat bo‘lib, 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan, deyiladi. Ushbu kitob Iskandar istilosigacha Istaxr shahrida saqlangan. Keyinchalik Iskandar ushbu kitobni Yunonistonga olib ketib, kerakli joyini olib qolganini yoqib yuborgan. Zardusht - «Sariq to‘n egasi», degan mahnoni bildiradi. Ushbu kitob bizga 2 nusxada yetib kelgan: Birinchisi: Duolar to‘plamidan iborat bo‘lib, «Vendedat sede», yahni «Pok Vendedat» deb ataladi. Bu kitobga «Yasna»lar, «Visperad» ham kiritilib, yaxlit tarzda shakllangan. Ikkinchisi: Birinchisi kabi «Vendedat», «Yasna» «Visperad»lar qatori ularning izohli tarjimasini

- «Zand” kiritilgan.» Avesto» ikkinchi variantiga ko‘ra quyidagi qismlardan iborat: «Vendedat». U 22 bobdan iborat bo‘lib, asosan, Axuramazda bilan Zardushtraning savol-javoblari shaklida yozilgan. Bu bob yomon ruhlar – devlarni yengish voqealari, gunohlardan pok bo‘lish qoidalari va mifologik unsurlarni o‘z ichiga oladi. «Visperad” 24 bobdan iborat. Butun borliq Ollohniki. Ibodat yo‘sinlaridan iborat. «Yasna» 72 bobdan iborat bo‘lib, diniy ibodatlar paytida, qurbanlik marosimida aytildigan qo‘shiqlar, xudolar madhi va boshqalardan iborat. «Yashtlar». U zardushtiylik mahbudalarini madh etuvchi 22 qo‘shiqni o‘z ichiga oladi. Kichik Avesto Quyosh, Oy, Ardvisura, Olov va boshqa xudo hamda mahbudlar sharafiga yig‘ilgan kichik ibodat matnlaridan iborat. Demak, “Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan miloddan avvalgi 529-548 yillar orasida Amudaryo sohillarida yaratilgan. Keyinchalik Janubiy Eron otashparastlik dinining ulamo-kohinlari tomonidan to‘ldirilib, takomillashtirilgan. Zardusht ta’limoti tobora xalqqa kuchliroq ta’sir o‘tkazayotganini sezgan muholiflar unga qarshi kurashga kirishadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht bir guruh tarafdorlari bilan Xorazmdan Eronga qochib o‘tadi va o‘sha yerda o‘z ta’limotini uzil-kesil shakllantiradi. Zardusht shoh Gushtaspning vaziri Farashashtraning qizi Xavoviga uylanadi va undan Istavatra, Urvatatrana, Xvarechitra ismli uch o‘g‘il va Freni, Griti, Porigista ismli uch qiz ko‘radi. U yagona xudo Axuramazdani kashf etadi va yakka xudo g‘oyasini ilgari suradi. Firdavsiy va Beruniy tasviricha, Zardusht birinchi bo‘lib o‘z dinini Eron shohi Vishtaspga asoslab ko‘rsatib, uning e’tiborini qozonadi. SHahristonxonning «Eron” kitobida Vishtasp farmoniga ko‘ra Zardusht 1200 bobdan iborat pandnoma, «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib, shohning otashkadasiga topshirgan, deyiladi. Vishtasp o‘z ukasi Arjasjni yenggach, Eronu Turon yagona zardushtiylik diniga bo‘ysunadi. So‘ng Zardusht xohishi va Vishtasp farmoniga ko‘ra barcha shaharlarda otashkada – ibodatxonalar quriladi. Ularning eng kattasi Balxda edi.

Zardusht 77 yoshida o‘zining dushmani, ko‘pxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan o‘ldiriladi. Lekin uning ta’limoti Islom ta’limoti tarqalgunicha Ajam

o‘lkalarida asosiy din sifatida saqlanib qoldi. Nima uchun o‘sha davrlarda zardushtlik – yakka xudolik g‘oyasiga alohida e’tibor berilgan? CHunki bu g‘oya tufayli ko‘p g‘oyaviy, siyosiy, madaniy, axloqiy masalalar tartibga solindi, mazkur g‘oya keyinchalik ham fan-madaniyatning rivojiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Grek olimi Pliniy «Avesto»ni 2 million baytdan iborat degan edi. Bu kitobdan qadimgi xalqlar marosimi, urf-odatlari, e’tiqodi, ibodatlari to‘g‘risida yagona syujetlar, Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxitpa, Adivissura, Zaxxok, Faridun, Bahrom singari ko‘plab mifologik obrazlar, rivoyatlar bilan bog‘liq atamalar to‘g‘risida ma’lumot olamiz.

«Avesto»da tibbiyot to‘g‘risida fikrlar ilgari suriladi:

Tashrex (anatomiya) va mizon (fiziologiya).

Bemorlikning oldini olish yo‘llari.

Kasalliklar haqidagi ma’lumotlar.

Bemorlarni davolash yo‘llari.

Tabiblar axloqi va tabobatga oid qonun-qoidalar haqida fikr yuritiladi. Bu kitobda, shuningdek, ekologik masalalar va ularni hal etish yo‘llari aytildi. Axlat, iflos narsalar ko‘mish yo‘li bilan saqlanishi. Otash, issiqlik va sovuqlik yo‘li bilan yo‘qotish. Kimyoviy yo‘l: kul, sırka, sharob, turli giyohlarni tutatish yo‘li bilan saqlash.

Jarrohlikda asl sharobga nasha qo‘sib berib, behush qilish orqali operatsiya qilingan, Buqrotning tabiblar qasamyodi haqidagi fikridan bir necha asr ilgari «Avesto»da tabiblarning maxsus qasamnomasi keltirilgan, shuningdek, tabobat ramzi – ilon zahar sochayotgan idish – jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvirlangan. Umuman, olganda qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» eng qadimgi noyob hazinadir. Unda olamdagи barcha – diniy, dunyoviy, tabiiy, tibbiy fanlar bo‘yicha teran mulohazalar mavjud.

7-mavzu: Masal, matal va maqollarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati.

Reja.

- 1.Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlari.
2. Xalq pedagogikasi manbalarida xalq og‘zaki ijodi janrlaridan masal va matallar.
3. Topishmoqlar va maqollarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: maqollar, belgilar, topishmoqlar, hazillar, til o‘yinlari, so'zlar, yaxshi tilaklar, la’natlar.

1.Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlari.

Xalq ijodi — xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyati; an’anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og‘zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi (musiqa folklori), xalq teatri (tomosha san’ati), xalq o‘yinlari (raqs), qo‘g‘irchoqbozlik, dor va yog‘och oyoq o‘yinlari (xalq sirki), xalq tasviriy va amaliy bezak san’ati hamda texnikaviy va badiiy havaskorlik kabi ijodiyot turlari. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko‘pchilikning ishtiroki bo‘lgan Xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mole ravishda shakllanib, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tib, doimiy ravishda mukammallahib, sayqallahib, tobora an’anaviylashib borgan va nihoyat, kasbiylik (professionallik) xususiyatiga ega bo‘lgan, jonli ijro sharoitlari va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Shuningdek, Xalq ijodining bir qator qadimiy namunalarini yozma manbalarda, tarixchi va yozuvchilarning asarlarida, qoyatoshlarda (Sarmishsoy, Zarautsoy rasmlari kabi), arxeologiya va arxitektura yodgorliklarida, uy-ro‘zg‘or buyumlarida saklanib kelgan.

Xalq ijodi namunalarida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e’tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg‘ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi o‘y-fikrlari o‘z ifodasini topgan. Jamiyat taraqqiyoti va mehnat taqsimotining kuchaya borishi bilan Xalq ijodi janrlariga nisbatan ayrim iste’dodli shaxslarning ixtisoslashuvi osha borgan. Shu tariqa baxshilar,

masxarabozlar, qiziqchilar, qo‘g‘irchoqbozlar, raqqoslar, mashshoqlar, naqqoshlar, kulollar, o‘ymakorlar, kashtado‘zlar va h.k. san’ati yuzaga kelgan. Ammo uning yaratilishi va o‘zlashtirilishida ko‘pchilikning ishtiroki, har bir ijro yoki amaliyot qadimdan qaror topgan mustahkam an’analar doirasida voqe bo‘lishi saqlanib kelgan. Har qanday badiha, ijodiy xattiharakat, yangilik barqaror an’analar va ustoz shogird munosabatlari doirasida ro‘y bergen. Bir tomondan, an’analarning o‘zi rivojana borgan, ikkinchi tomondan, har bir ijro yoki amaliyot davomida o‘zgartirishlar, yangiliklar kiritilgan, yangi asarlar yuzaga kelgan. Qay birlari unutilib, ijro va amaliyotdan tushib qolgan.

Xalq ijodi professional san’atning yuzaga kelishi va rivojida katta o‘rin tutadi. O‘z navbatida, professional san’at ham Xalq ijodi rivojiga ta’sir ko‘rsatib, uni boyitib kelmoqda. Jamiyatda Xalq ijodi namunalarini saqlash va rivojlantirish, yo‘qolganlarini tiklash ehtiyoji o‘zining estetik talablarini qondirish, yaxshi yashash va hayotini mukammallashtirishga bo‘lgan intilishidan kelib chiqqan. Bugungi kunda Xalq ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Umum davlat miqyosidagi muzeylar va qo‘riqxonalarning ishlayotganligi, Xalq ijodi namunalarining ilmiy o‘rganilishi va nashr etilayotganligi, ko‘plab folklore etnografik ansambllarning mavjudligi, badiiy havaskorlikni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning tasdig‘idir.

Xalq og‘zaki badiiy ijodi (folklor). Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimiy turi va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi. Kishilik badiiy tafakkurining turli shakllarini o‘z ichiga olgan bu sinkretik ijod namunalari inson faoliyatining barcha jihatlari bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, qadimgi odamlarning diniy e’tiqodi va mifologik qarashlarini, boshlang‘ich ilmiy (empirik) bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirgan. Biroq qadimgi folkloarning bunday namunalari bizgacha yetib kelmagani, balki ularning izlari va ayrim qismlari xalqning yashash va turmush tarzi bilan bog‘liq turli tuman tasavvur va qarashlarida, xalq urfodatlari, udumlari, marosimlari, bayramlari tarkibida, ba’zi bir yozma manbalarda, keyingi davrlarda

yozib olingen folklor asarlarida qoldiq holidagina saqlanib qolgan. Yozuvning yuzaga kelishi natijasida xalq og‘zaki badiiy ijodi bilan tarixan bog‘liq adabiyot xam paydo bo‘ldi. Badiiy matnning ayrim ijodiy (yozuvchi, shoir, dramaturg) faoliyat bilan bog‘lanishi, muayyan ijodiy harakat sifatida yozuv bilan mustahkamlanishi adabiyotning asosiy xususiyati bo‘lib, insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotidagi o‘ziga xos burilish nuqtasidir. Adabiyot o‘zining taraqqiyoti davomida folklordan barcha estetik tushunchalar va badiiy shakllarni olganligiga qaramay, o‘ziga xos badiyat qonuniyatlari asosida mustaqil rivojlanma bordi. So‘z san’atining mustaqil turi sifatida folklor ham u bilan birgalikda yonma yon yashab keldi. Chunki kishilik jamiyatining umumiy estetik talabi va ehtiyoji uzoq yillar davomida faqat adabiyot bilan emas, balki folklor bilan ham mustaxkam bog‘liq bo‘ldi.

Adabiyot va folklor o‘zlariga xos muayyan estetik tizim, janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlarga ega bo‘lgan so‘z san’atining mustaqil 2 turi — og‘zaki va yozma turi sifatida rivojlanishda davom etdi.

Yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og‘zakiligi va unda ko‘pchilikning ishtirok etishi (jamoaviylik) xalq og‘zaki badiiy ijodining asosiy xususiyatidir. Uning an’anaviylik, o‘zgaruvchanlik, variantlik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma'lumligi) kabi ko‘pdan ko‘p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo‘ladi. Folklor namunalari og‘zaki yaratilib, ajdodlar va avlodlar aloqadorligida og‘zaki tarqalar hamda ommaviy repertuardan keng o‘rin olar ekan, bunda badiiy shakllarning barkarorligi (turg‘unligi), matndan matnga o‘tuvchi umumiy o‘rirlarning qat’iy lashganligi, o‘xshash sayyor syujetlarning ko‘pligi imkoniyat yaratadi. Har bir ijodkor va ijroda an’anaviy asardagi nimalardir o‘zgaradi, nimalardir avvalgisidan boshqacharoq talqin etiladi, nimalardir qo‘siladi yoki tushib qoladi. Bunday o‘zgaruvchanlik ijtimoiy muhit, maishiy sharoit, eshituvchilar talabi va ijrochi (ijodkor) salohiyatiga bog‘liq. Lekin har qanday o‘zgarish, ijro davomidagi qayta ijod asrlar davomida puxta an’alar doirasida sodir bo‘ladi. Demak, jonli

og‘zaki an’ana doirasidagi folklor asarlarining ko‘p variantlarida tarqalishiga olib keladi.

Xalq og‘zaki badiiy ijodining deyarli barcha janrlari turli-tuman ijrochi va ijodkorlar faoliyati bilan bog‘liq. Iste’dodli ijodkorlar folklor namunalarini saqlab qolish va keng ommalashtirish bilan birga og‘zaki an’analar doirasida uni yanada mukammallashtiradilar, ba’zan yangilarini ham yarata oladilar. Biroq bunda barqarorlashgan va qat’iy lashgan jamoaviylik an’analari yetakchilik qiladi. Ayrim janrlar (topishmoq, maqol kabi) ommaviy xarakterga ega bo‘lsa, ya’ni ularning namunalaridan har bir kishi ozmi-ko‘pmi ayta olsa, boshqalarining (doston, og‘zaki drama singari) ijrosi muayyan tayyorgarlikni talab qilgan. Shu tariqa xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarini yaratish va ijro etishda o‘ziga xos kasbiy ijodkorlik yuzaga kelgan. O‘zbek folklorida ijodkor va ijrochilarning kasbiylashuvi nihoyatda rivojlangan. Baxshilar, ertakchilar, askiyabozlar, qiziqchilar, dorbozlar ijrochiligi professional san’at bo‘lib, uni egallash uchun bo‘lg‘uvchi ijodkor maxsus tayyorgarlik ko‘rishi va muayyan ustozdan ta’lim olishi zarur bo‘lgan.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, maqol, topishmoq, ertak, doston, qo‘sishiq, askiya, og‘zaki drama va boshqalar xalq og‘zaki badiiy ijodining asosiy janrlari bo‘lib, ular so‘z san’ati namunalari bo‘lish bilan birga muayyan ijtimoiy maishiy funksiyalarni ham ado etadilar. Mas, ho‘p mayda, ho‘sh-ho‘sh, turey-turey, churey-churey kabi qo‘sishiq turlari mehnat jarayonlariga aloqador bo‘lsa, yor-yor, o‘lan, lapar, kelin salom singarilar har xil marosimlar bilan bog‘liqdir. Folklor janrlari g‘oyaviy badiiy xususiyatlari bilan emas, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, jamoaviy ijrochilik, sozli, kabi) jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ularning biri kuylash uchun, ikkinchisi aytib berish, hikoya qilish uchun, boshqasi ko‘rsatish, namoyish etish uchun yoki ham kuylash, ham o‘ynash, ham aytish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Folklor janrlari qanchalik xilma-xil, ba’zan o‘ta funksionallashgan va qat’iy vazifador bo‘lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi.

2. Xalq pedagogikasi manbalarida xalq og‘zaki ijodi janrlaridan masal va matallar.

“Zarbulmasal” arabcha zARB va masal so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan bo‘lib, “masallar yig‘indisi” ma’nosini beradi. Masal so‘zi o‘tmishda biz hozir qo‘llaydigan maqol ma’nosida ishlatilgan. Zarbulmasal maqol, matal va ramzli hikoyalar asosida yaratilgan ta’limiy hikoyalar. Bunday hikoyalar ko‘pincha pand-nasihat ma’nosida bo‘lib, ma’lum g‘oyani yoritish uchun xizmat qiladi. Zarbulmasallarda majoziy ma’no, kinoya, razm yetakchi badiiy vosita sifatida qo‘llaniladi.

“Kalila va Dimna”, “Marzbonnoma”, “Sindbodnoma”, “Qobusnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Muhammad Ali Habaliyning “Jome ut-tamsil” asari zarbulmasalga misol bo‘ladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari ushbu janrning mukammal namunalaridan biri hisoblanadi.

Maqol va matallar - og‘zaki nutqning umumiylari hayotiy janrlari xalq ijodiyoti. Ular og‘zaki va yozma nutqda qo‘llaniladigan majoziy nutq iboralari bo‘lib, til bilan eng yaqin, bevosita aloqaga ega.

Maqollar va matallar nafaqat bevosita hayotiy kuzatishlar natijasida paydo bo‘ladi - ular xalq she’riy va adabiy asarlaridan so‘zlashuv nutqiga qo‘yiladi.

Ha, gaplar Tovuq oyoqlari ustidagi kulba; Kaltaklangan mag‘lubiyatsiz omadli; Tuyoqli ot bor joyda panjali qisqichbaqa bor; Shlyapa tatda yonmoqda, o‘g‘ri uni ushlab oladi va boshqalar - ertak, ertak, latifa va boshqalardan so‘zlashuv nutqiga o‘tgan. Bundan tashqari, rus xalqining og‘zaki repertuariga xorijiy maqol va maqollar ham kiradi. Ulardan ba’zilari xalqlar o‘rtasidagi aloqa munosabatlari natijasida, boshqalari esa yozma manbalardan olingan.

Ilgari mavjud bo‘lgan, yangi mazmun bilan to‘ldirilgan eski maqollarning o‘zgarishi natijasida yangi maqol va matallar ham vujudga keladi.

3. Topishmoqlar va maqollarning tarbiyaviy ahamiyati.

Maqollarni hayot qomusi, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Shuningdek, maqollar o‘z

ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she’riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo‘lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me’yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in’ikosini topgan. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o‘z o‘rnida unumli va o‘rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Biz o‘zaro muloqat jarayonida o‘z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko‘p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go‘zal, jozibali va ishonchli bo‘lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: “Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o‘zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o‘sha ishni o‘zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir”.

Xalqimiz boy ma’naviy merosining ajralmas bir bo‘lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal, topishmoqlarni va iboralarni o‘rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg‘ular tasvirini ko‘rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi o‘z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O‘zbek millatini ma’naviy qiyofasini, o‘zligini ko‘rsatib beradigan xalq og‘zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o‘rganish va o‘rgatish yoshlarimiz ma’naviyatida o‘z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida xalq og‘zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og‘zaki ijodining yirik namunasidir. Maqollarni o‘rganishimiz o‘z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg‘usini rivojlantirishga katta

yordam beradi. Shu bilan birga maqollarimizni chet el maqollari bilan taqqoslash ularni o‘rganish ham boshqa millatlarga nisbatan hurmatni va ularni dunyo qarashidan boxabar bo‘lishimizga katta turtki bo‘ladi.

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofkillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘slik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an’analari, tarix va madaniyat, ta’lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to‘la namoyon etuvchi ko‘p qirrali hodisadir. Xalq og‘zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she’riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo‘lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliv axloqiy me’yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in’ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo‘qki, u maqollarda o‘z aksini topmagan. Maqollar o‘z navbatida pedagogika sohasida, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o‘tgan ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Maqollar to‘plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo‘lingan. Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o‘zi ichki tasniflashda oz so‘zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso‘zlik, to‘g‘ri so‘zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokozo

mavzularni o‘z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o‘z o‘rnida unumli va o‘rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

8-mavzu: Dostonlar va afsonalar – beba ho qadriyatlar majmui sifatida.

Reja

- 1.Dostonlarning xalq pedagogikasidagi o‘rni.
- 2.Dostonlarning turlari haqida.
- 3.Afsonalar tarixiy voqealar asosi sifatida. Afsonalarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Doston, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, Malikai ayyor, Ravshanxon, Kuntug‘mish, Rustamxon.

1.Dostonlarning xalq pedagogikasidagi o‘rni.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida dostonlar avlodlar dunyoqarashi va pedagogika olamining ko‘zgusi bo‘lib, komil insonni tarbiyalashda o‘ziga xos beba ho qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni yengib, har jihatdan chiniqib borishi har bir yosh uchun ibratdir. Dostonlar xalqning o‘zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an’analarini ifodalab beruvchi ko‘zgu ekanligini yuqorida ta’kidladik. Xalq donishmandligi ruhi bilan sug‘orilgan dostonlarni chuqur va atroficha o‘rganish esa yosh avlodning ma’naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘zbek folklorshunosligida xalq dostonlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borilyapti, maqolalar chop etilgan, bu izlanishlar o‘z navbatida, dostonlarning haqiqiy mohiyatini olishga yordam beradi.

«Doston» so‘zi qissa, hikoya, shonu-shuhrat, sarguzasht, ta’rif va maqtov ma’nolarida ishlataladi. Adabiy termin sifatida yirik hajmli epik asar nazarda tutiladi. Dostonlarnda tasvirlangan voqeа-hodisalar yakka shaxs favqulodda kuch qudratga ega bo‘lgan xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Badiiy

adabiyotda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylanib kelingan dostonlar bo‘lsa, ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlardir.

Masalan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlar “Malikai ayyor”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” kabilar og‘zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, A. Navoiyning “Xayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Og‘zaki ijoddagi dostonlarni baxshilar kuylaydilar. Qadimda “Baxshi” so‘zi xalqona usullar bilan bemorni davolovchi “tabib”, ayrim hududlarda “ustoz” ma’nolarini anglatgan. Bugungi kunda xalq dostonlarini kuylaydigan san’atkor ma’nosini bildiradi. Dostonlar ham she’riy ham nasriy parchalardan bo‘lib, baxshi soz chertganda sozanda, she’riy parchalarni kuya solib aytganda xonandaga aylanadi. Ijrochi baxshilar do‘mbira, tor, dutor chalib, doston aytganlar. Shu bois dostonchilik kechalari har tinglovchi uchun katta bayram bo‘lgan. Bunday kechalarda odamlar o‘rtasidagi hamma ginaxonliklar unutilgan, turmush tashvishlari chekingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Islom shoir, Po‘lkan shoir, Amat baxshi, Murod baxshi, Qurbannazar Abdullayev (bola baxshi) kabi folklorshunoslar tomonidan o‘zbek xalq baxshilaridan 150 dan ortiq (variantlari bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi alohida-alohida kitoblar sifatida nashr etilgan.

2.Dostonlarning turlar haqida.

Dostonlar mazmuniga ko‘ra ham bir necha turlarga tavsiflanadi. Jumladan:

1. Qahramonlik dostonlari: “Alpomish”, “Yodgor”.
2. Jangnoma dostonlar: “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek bilan Bolibek”, “Xoldorxon” va b.
3. Romantik dostonlar: “Rustamxon”, “Murodxon”, “Kuntu-g‘mish”, “Go‘ro‘g‘li” va b.
4. Tarixiy dostonlar: “Edega”, “Shayboniyxon”, “Oychinor” va b.

5. Kitobiy dostonlar: “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Zavarxon”, “Oshiq G‘arib va Shoxsanam”, “Sayyod va Hamroh” va b.

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g‘oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma’naviy kamolot sari yetaklagan.

Ana shunday umrboqiy asarlardan biri “Alpomish” dostonidir. O‘n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M. Qo‘spressoqning yozishicha: “Alpomish alp bo‘lgan uchun ming yillar davomida xalq yuragida o‘lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomitsh obarizining bir qirrasi xolos. Alpomish aslida ma’naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma’naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik kurashgan qahramon... Ma’naviyat qahramoni bo‘lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi. Shuning uchun o‘zbek xalqi o‘z tarixining eng qora kunlarida ham Alpomishni yuragida saqladi, undan madad oldi. Undan ibrat qilib Alpomish o‘g‘illarni, Barchin qizlarni voyaga yetkazdi”.

“Alpomish” dostonida ishq-muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma’lumotlar bor, ma’lu sabab bilan ajalib ketgan xalqni birlashtirish yo‘lida xizmat ko‘rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarları, o‘zidan son va kuch jihatidan ustun turgan dushman bilan olishuvlar aks etadi. Dostonda kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish kabi ibratlari tarbiyaviy tushunchalar, oilada farzandlar fikriga qulog solish, ular bilan maslahatlashish, aka-ukalar o‘rtasidagi munosabatlar ham tasvirlangan. Shuningdek, o‘zbekning qadimiy urf-odatlaridan bo‘lgan sovchilarni kutish, mehmon qilish, ularning hurmatini joyiga qo‘yish, izzatini qilish, shirinso‘zlik bilan muomala qilish kabi ahloqiy hislatlar ham o‘z ifodasini topgan.

Dostondagi qahramonlik jasoratlarini Barchin obrazida ham ko‘rishimiz mumkin. Barchin alplarning eng zo‘ri Ko‘kaldoshdan olti oy muhlat so‘raydi, ular ko‘nishadi; o‘n yigitga o‘n bedov otni berib xat yozib Alpomishga jo‘natadi: «Olti oychalik yo‘lga keldim, qalmoqning eliga keldim, zo‘r yovning qo‘lida qoldim, olti oylik muhlat oldim, mendan umidi bo‘lsa, Alpomish kelsin, bo‘lmasa

javobimni bersin”, – deydi. Doston yoshlarga yoriga vafodorlik, sadoqatlik kabi hislatlarni shakllantirishda ham muhim vosita sanaladi.

Dostonda aka-singil o‘rtasida mehr-oqibat, oila sha’nini himoya qilish, singilning akaga mehri kabi hislatlar ham ifodalangan. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining sevikli dostoni bo‘lgani bejiz emas. Undagi voqealar hayotiyligi va ta’sirchanligi bilan ajralib turadi, mardlik, fidoiylik, samimiyat, to‘g‘rilik, hamiyatlilik, do‘stga sodiqlik, yorga vafodorlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlardan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy ruhiyati yaqqol ko‘rinadi.

“Alpomish” dostonining 1000 yilligi 1999-yilda Termizda nishonlandi. Taniqli tilshunos olim Nizomiddin Maxmudov ta’kidlaganlaridek, “Turkiy tarixning eng chuqur qatlamlaridan ibtido olgan bu doston o‘zbekning o‘lmas so‘zi timsoli sifatida munavvarlik olib kiradi. Chinakam xalq so‘zining umri boqiydir”.

Xalq dostonlarining juda katta qismi sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga bag‘ishlanadi. Ishqiy-romantik dostonlarda voqeа tuguni oshiqning ma’shuqa xakida xabar topishdan boshlanadi. Masalan, “Ravshan” dostonida Ravshan Zulkumorni uzukda ko‘rib qoladi. “Kuntug‘mish”da Holbeka yigitni tushida ko‘radi, Kuntug‘mish qizning sur’atiga oshiq bo‘lib qoladi, ya’ni bir birini ko‘rmagan odamlar o‘rtasida g‘oyibdan sevgi paydo bo‘ladi. Sar sevgi esa hamisha odamni qahramonlikka, jasurlikka, jasoratga undaydi.

“Zavarxon” dostonida Zavar va Malikai Xubon o‘rtasidagi chuqur insoniy munosabatlar, visol va xijron, vafo va sadoqat, do‘stlik tarannum etiladi. “Kuntug‘mish” dostonida yoshlarni kasb-hunar o‘rganishga undovchi misralar behisob. Qilichxon laqabli podshoning Kuntug‘mish degan yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, o‘n to‘rt yoshga to‘lguncha ilm – hunar o‘rganadi, kasb-kamolot hosil qiladi. O‘n to‘rt yoshdan keyin esa qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko‘pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o‘rganadi, har tomonlama komil shahzoda bo‘lib etishadi.

“Ravshan” dostoni ham ishqiy – sarguzasht dostondir. Bu doston ham “Go‘ro‘g‘li” turkumiga mansub, “Ravshan” pok va samimiу muhabbatini

kuylovchi maqsadga erishish yo‘lida mardlik va botirlikni ulug‘lovchi, zulm va adolatsizlikni qoralovchi asardir.

“Malikai ayyor” dostoni ham “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiradigan dostonlardan biri. Unda muhabbat xangomalari va ishqiy sarguzashtlar serob. Dostonda ornomus, imon-e’tiqod, insoniy iroda, chidam, topqirlik singari ezgu ma’naviy sifatlar tasvirlanadi. O‘zbek yigitlariga xos eng olijanob fazilatlar Avaz timsolida aks etgan. Dostonda xalq maqol, matal va qo‘shiqlaridan juda keng foydalanilgan. “Oysuluv” dostonidagi Oysuluv o‘zbek xotin-qizlarining umumlashma obrazidir. Uning hozirgi zamон xotin-qizlariga ibrat bo‘luvchi go‘zal xislatlari juda ko‘p. Masalan, Oysuluv o‘g‘lining zindonband bo‘lganini eshitib esankirab qolmaydi, balki sabr-toqat qilib, mulohaza blan ish ko‘radi, qo‘rqmay Eron elchilariga qarata: “Men Turon mamalakatimni, el-u xalqimni unga bermayman!” – deb xitob qiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan dostonlarning barchasi chin insoniy fazilatlarni shakllantirishda xalq pedagogikasining eng muhim manbalaridan ekanigi bejiz emas.

Dostonlar xalqimizning o‘ziga xos badiiy tarixi bo‘lib, tarixiy – madaniy ahamiyati tengsizdir. Ularda xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan orzu-umidlari, kelajak haqidagi o‘y-fikrlari mujassamlashgan. Xalq dostonlari milliy iftixon va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, o‘zaro ishonch, do‘stlik tuyg‘ularini tarbiyalashda juda katta g‘oyaviy-estetik vazifani o‘taydi.

3. Afsonalar tarixiy voqealar asosi sifatida. Afsonalarning tarbiyaviy ahamiyati.

Afsona — xalq og‘zaki ijodi janri. U xayolot, uydirma va tukimadan iborat bo‘lsada, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan xaqiqatdek tasavvur etiladi, xatto

bo‘lib o‘tgan davri, makon xam ko‘rsatiladi. Afsonalar og‘izdan - og‘izga, eldan elga o‘tib kelgan. Afsona og‘zaki xikoyat bo‘lib, u xayoliy obraz yoki tasavvu

rasosiga quriladi, xikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir

shunday bo‘lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o‘larok, afsona zaminida, albatta, mo‘jiza, sexr-jodu bo‘ladi. Afsonalar olam xalqda, toponimik, elatlarning kelib chiqishi, xayvonot dunyosiga oid, tabiat voqeа-xodisalari xususida, tarixiy shaxslar to‘g‘risida, diniy va boshqacha turli-tuman mavzularda bo‘ladi.

9-mavzu: Oila tarbiyasining xalq pedagogikasi manbalarida aks etishi.

Reja

- 1.O‘zbek oilalarining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 2.“Xalq pedagogikasi” manbalarida oilaviy tarbiya masalalarining ifodalaniishi.
- 3.Oila tarbiyasi-hayot maktabi sifatida.

Tayanch tushunchalar: Oila, nikox, jamiyat, oila vazifalari, jamiyatga munosabat, odamlarga munosabat,rekreativ, psixoterapevtik.

1.O‘zbek oilalarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Oila haqida bir necha xil tushunchalar mavjud birinchidan, oila-bu nikoh va qon-qaridoshchilikni asoslangan kichik ijtimoiy guruh, uning a’zolari birgalikda yashaydilar va uy ishlarini bajaradilar, bir-biriga nisbatan o‘zaro majburiyatlar bilan birlashganlar. Ikkinchidan, oila bu-ijtimoiy institut bo‘lib, unda odamlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar barqaror mustahkam shaklda bo‘ladi. Ana shu o‘zaro munosabatlar doirasida odamlarning kundalik hayoti asosiy qismi amalga oshiriladi. Oila-nikoh munosabatlari insoniyatga qadim davrlardan ma’lum. Neolit davridayoq (15-20 ming yil ilgari) ongli inson paydo bo‘lganda, odamlar jamoasi paydo bo‘lgandayoq ularning birgalikda xo‘jalik yuritishdagi va bola tarbiyalashdagi vazifalari tabiiy jiysiyligi, yoshiga qarab (erkak, ayol) ajratilishiga asoslangan. Tarixda qayd etilgan oilaviy munosabatlarda farqlar bo‘lishiga qaramay hamma oilalarni birlashtiradigan qandaydir umumiylig bor. Bu oilaviy

tarzda hayot kechirishdir, bunda insoniyat yashashning yagona imkoniyatini topgan. Olimlar oilaning turli vazifalarini ko'rsatadilar. Biz birinchi navbatda bolani tarbiyalash va rivojlantirishga taalluqlilarigagina to'xtalib o'tamiz.

Reproduktiv vazifasi (produktio lotincha so'z – qayta ishlab chiqarish, ko'payish) oilaning muhim bo'lgan vazifalaridan reproduktiv (jamiyatning biologik uzlusizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirgan) Reproduktiv vazifasi inson zotini davom ettirish zaruriyati sababini asoslaydi. Xozirgi kunda 2-3 kishidan tashkil topgan oilalar soni ortib bormoqda.

Oila bola shaxsi shakilanishida faol ta'sir ko'rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy guruhdir oila ijtimoiy mikro muhitdir va ijtimoiy ta'sir ko'rsatish omilaridan biridir.U bolaning jismoniy psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.Oilaning vazifasi bolani tabiatiga mos ravuishda rivojlanib borishi uchun uni asta -sekin jamiyatga kirib borishdan iboratdir.

Ijtimoiylashtirish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo'lganlar va shunday bo'lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi sharoit va muhit bola shahsi shakilanishiga ta'sir ko'satadi. Ota-onalarning shahsiy ibratlari bolaning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish muhim vositasidir. Uning tarbiyaviy ahamiyati bolaning taqlid etishga qiziqishi havas qilishga asoslangan. Bilim va tajribalarga ega bo'lmay bola kattalar qilgani takrorlaydi ularning harakterlariga ta'qlid qiladilar. Ba'zan bolaning oilada olgan tajribasi bolaning oilada olgan tajribasi bolaning atrof –odamlarga nisbatan yagona o'lchov belgisi bo'lib qolgan.

Oilaning tipologiyasi- oilaning ko'plab tipologiyalari mavjud bo'ladi: psixologik, pedagogik sosiologik. Ijtimoiy pedagogning faoliyati vazifalari kompleks tipologiyasi javob beradi, u jamiyatda ijtimoiy moslashuvi darjasini bo'yicha farq qiladigan oilaning 4 kategoriyadagi tiplarini ajratiladi:

1. Yuqori darajasi – mustahkam oilalar.
2. O'rtacha darajasi – xavfi bor oilalar guruhi.
3. Past darajasi – notinch (baxtsiz) oila.

4. Juda past darajasi – asosional oilalar.

1. **Tinch, baxtli oilalar** o‘z vazifalarini bajara oladilar, ijtimoiy pedagog yordamiga deyarli muhtoj emas. Bunday oilalar moslashish qobiliyatları hisobiga, ya’ni moddiy, psixologik va boshqa ichki imkonoyatlariga aoslangan qobiliyati hisobiga o‘z bolasining talab-ehtiyojlariga tezlikda moslashib oladi va uni tarbiyalash, rivojlantirish masalalarini muvafaqiyatl hal etadi. Muammolar paydo bo‘lgan hollarda ularga ijtimoiy pedagogning bir martalik yordami (maslahati) etarli bo‘ladi.

2. **Xavfi bor guruhi oilalari.** Qoidalaridan bir qancha chetlanishi bilan ifodalanadi (to‘la bo‘lmagan oila, kam ta’minlangan oila va shu kabilar.) bular oilaning moslashish qobiliyatini pasayti radi. Ular bolalarni tarbiyalash vazifalarini o‘zlarining ko‘p kuchlarini ishlatib bajaradilar, shuning uchun ijtimoiy pedagog oila holatini kuzatib borishi kerak va kerak bo‘lganda o‘z vaqtida yordamini taklif etishi zarur.

3. **Notinch oilalar.** Bu hayot faoliyati biror bir sohasida yoki bir vaqtida bir nechtasida past ijtimoiy mavqe’ga ega bo‘lgan oilalar, masalan oila daromadi past darajada yomon psixologik muhit, oilada madaniyat darjasini past. Bunday oilalar ularga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning moslashish qobiliyatları past, bolani oilaviy tarbiyalash jarayoni katta qiyinchiliklar bilan o‘tadi, natijasi kam bo‘ladi. Bunday turdagи oila uchun ijtimoiy pedagog tomonidan faol davomiy yordam kerak bo‘ladi.

4. **Asosional oilalar.** Bu ota-onalari xulqi buzuq, qonunga hilof ravishda hayot kechirayotgan oilalar va bu oilalarda yashash –turmush sharoitlari eng oddiy sanitary gigienik talablarga javob bermaydi. Bunday oilalarda odatda bolalar qarovsiz qoladilar, yarim och, yarim yalang‘och bo‘lib rivojlanishda ortda qoladilar, ota-onalar, boshqalar tomonidan ham jabrlanadilar, ijtimoiy pedagoglarning bunday oilalar bilan birgalikda, hamda vasiylik qilish hmkorlikda olib borilishi kerak. Oila tarbiyasi kabi katta ma’suliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o‘rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat bu – Onadir. Ota ko‘pchilik xalqlarda

oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan an'anadir. SHunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir xalqimiz: "Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi" deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq-odob aqidalari bola ruhiga ko'proq ona suti bilan kiradi.

Oila tarbiyasida to'g'ri yoki egri o'sishga bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liq. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'ymasa, u noto'g'ri o'sadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir o'xshashlik mavjud. Bundan ko'rinish turibdiki axloq-odobning normalari – kattalarga xurmat, kichiklarga shafqat, xalollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to'kinligi so'ng xalq farovonligini ta'minlashda ko'rindi. Uning barcha faoliyati shu oliyjanob tuyg'u bilan uyg'unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Turmushning hamma qiralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan mehnatkash inson har sohada o'z yo'lini topa oladi.

Oilada bolaga ma'naviy axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarni hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, ularda ijobiy xatti-harakatlar ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

2.“Xalq pedagogikasi” manbalarida oilaviy tarbiya masalalarining ifodalaniishi.

Oila — hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya maskanidir. SHu bois mamlakatimizda barcha xayrli ishlar, ezgu amallar, avvalo, oilalarni mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadini ro'yobga chiqarmoqda. Zero, oilada shakllangan sog'lom muhit farovon turmush, osuda hayot tarzimizning mustahkam

poydevoridir. Oilani milliy qadriyatlarimiz hamda zamonaviy qarashlar uyg‘unligi asosiga qurish — kechagi kundan xulosa, bugunidan ma’no va ertangi kunga ishonch bilan yashayotgan xalqimiz tanlovi, mustahkam ma’naviy ildizlarga tayanib yashash saodatidir.

Oila ikki ustundan iborat: Birinchisi - iqtisod, ikkinchisi — ma’naviyat. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma’naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. SHunda oila mustahkam qo‘rg‘onga aylanadi. “Eng do‘zaxi ayol — eri imkoniyati darajasidan ortiq talab etuvchi ayoldir”, — deb uqtiriladi muborak hadislarda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma’naviy o‘zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy hayotida mazmunan boy ishlar qilindi.

Bola tug‘ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi xis etadi. Bu o‘rinda ilgari surilayotgan pedagogik g‘oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, mustahkamlash, yanada chuqurlashtirish bilan bog‘liqdir. Oila tarbiyasi deganda ota-on, oiladagi katta kishilar, buva-buvilar, aka-opalar tomonidan bolalarning to‘g‘ri milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan etishishi ota-on, aka-opa va boshqalarning o‘zaro muomala munosabatlariga xulq-atvoriga bog‘liq. Xalqimiz: “qush uyasida ko‘rganini qiladi” deb bejiz aytmagan.

Oila tarbiyasi kabi katta ma’suliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o‘rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat bu – Onadir.

Ota ko‘pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta’minalash, qolaversa oilaning xo‘jalik ishlari bilan band bo‘ladi. Bu o‘zbek oilalarining tarixidan ma’lum bo‘lgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan an'anadir. Shunga ko‘ra bola bilan ko‘proq ona birga bo‘ladi. Axir xalqimiz: “Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi” deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq-odob aqidalari bola ruhiga ko‘proq ona suti bilan kiradi.

Oila tarbiyasida to‘g‘ri yoki egri o‘sishga bog‘bon mehnati va mahorati ga bog‘liq. Egri o‘sayotgan niholning qaddini rostlab qo‘ymasa, u noto‘g‘ri o‘sadi. Yangi tug‘ilgan go‘dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o‘rtasida qandaydir o‘xshashlik mavjud. Bundan ko‘rinib turibdiki axloq-odobning normalari – kattalarga xurmat, kichiklarga shafqat, xalollik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik va shu kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to‘kinligi so‘ng xalq farovonligini ta’minlashda ko‘rinadi. Uning barcha faoliyati shu oliyanob tuyg‘u bilan uyg‘unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Turmushning hamma qiralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan mehnatkash inson har sohada o‘z yo‘lini topa oladi.

Oilada bolaga ma’naviy axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarni hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvorga o‘rgatish, ularda ijobiy xatti-harakatlar ko‘nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

3.Oila tarbiyasi-hayot maktabi sifatida.

Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida oila muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiynunmosabat, ota-onan obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llab quvvatlash va hokazo. Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimiyl bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-onan obro‘s, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud

an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola astasekin kamol topib boradi. An'ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuqlarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo'yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga ham bog'liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim-tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O'z navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam

hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. oilada ota-ona, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta’sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘sining yuqori bo‘lishi, bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e’tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo‘yish, oilada qat’iy rejim va kun tartibini o‘rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo‘llabquvvatlash va hokazo. Oila qanchalik tartibli, uning a’zolari o‘rtasidagi munosabat samimi bo‘lsa, Oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasida ota-ona obro‘sisi, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko‘p qismi oilada o‘tadi. Shu boisdan mavjud an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiliy ta’sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An’ana va marosim Oila tarbiyasining qudratli qurolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo‘lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Oila tarbiyasida yutuklarga erishish ota-onalarning pedagogik bilimlarga egaligi, Oila tarbiyasi bo‘yicha tajribalar almashishi, ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg‘in jalb qilishga ham bog‘liqdir. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o‘qishga, mehnat qilishga o‘z vaqtida jalb etish ham Oila tarbiyasining muvaffaqiyati garovidir. Oilada ota yoki onaning yo‘qligi yoki ularidan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta’sir kuchi yo‘qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjaxl, qo‘pol,

dag‘al bo‘lib qoladi, kattalarga ishonmay qo‘yadi, o‘qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro‘sni katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog‘lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ta’lim-tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o‘z farzandlari to‘g‘risida ko‘proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-onasi oila bilan maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-onasi maktab bilan yaqin aloqa o‘rnatishi, farzandining darslarini o‘zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo‘lib turishi, tarbiya masalalarida o‘qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so‘ng nima bilan mashg‘ulligi haqida o‘qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim. O‘z navbatida o‘qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o‘qishi, odobi, xulqi, maktabda o‘zini tuta bilishi haqidagi ma’lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug‘ilganda paydo bo‘lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-onasi maktab jamoasining a’zosi bo‘lib qolishi kerak. O‘qituvchi va sinf rahbari ham o‘z o‘quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ymog‘i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

10-mavzu: “Xalq pedagogikasi”da yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari.

Reja:

1.Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.

2.“Xalq pedagogikasi”da yoshlarni tarbiyalashdagi metodlar, usul va vositalari.

Tayanch tushunchalar: Noahloqiy, xalq madaniyati, Sharq xalqlari, metod,

vosita, tarbiya usullari, o‘git-nasihat.

1.Xalq pedagogikasida tarbiya metodlari.

Xalq pedagogikasi o‘zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turlicha tarbiya metodlari hamda vositalaridan foydalaniladi. Bu metod va vositalar nihoyatda rang-barang bo‘lib, ko‘p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Binobarin, ushbu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

1. Tushuntirish (hikoya qilish, o‘rgatish).
2. Mashqlantirish (odatlantirish, mashq qildirish).
3. Namuna (maslahat berish, uzr so‘rash, o‘rnak bo‘lish).
4. Nasihat qilish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma’qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo‘l tilash va hokazolar).
5. Qoralash va jazo (ta’kidlash, ta’na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayplash, uyaltirish, qo‘rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazolar).

Xalq pedagogikasi namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta’sirlar muayyan vositalar yordamida qo‘llanilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar (choyxona, to‘y marosimlari), sayillar, oilaviy an’analar (tug‘ilgan kun, fuqarolik pasporti, umumiyo o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ma’lumotga egalik to‘g‘risidagi attestat va diplom, davlat mukofotlarini olish kabi holatlarni nishonlash) va musobaqalar o‘ziga xos tarbiya vositasi sanaladi.

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko‘rsatish metodi ustida gap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o‘zi katta tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek xalq ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo‘llaniladigan namuna ko‘rsatish metodi juda ko‘p shakllarda uchraydi. Ertak va dostonlarda

uchraydigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli tomoni uning asosan ikki yo'nalishida ko'zga tashlanishidir. Bir tomonidan, ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomonidan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan qochishga targ'ib qilinadi. Masalan, «Erali va Sherali» dostonida aka-ukaning ustozи bolalarga odob-ahloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi.

Xalq ijodi materiallarida bolalarning odob va ahloqiy tarbiyalash yuzasidan xilma-xil tarbiya vositalaridan foydalangani ham ko'rsatiladi.

Folklor materiallarida uchraydigan ahloqiy tarbiya vositalari juda ko'p tur va shakllarga ega bo'lsa ham, asosiy vosita sifatida:

Bolalar o'yinlari.

Choyxo'rlik – choyxona gurungi.

Bolalar gapi – gap yejish.

To'y marosimlari.

Sayillar va hokazolar.

Shubhasiz, bunday davra yoki yig'inlarning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan va hozir ham u juda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Madaniyat deganda inson xulq-atvorining go'zalligi, sahovat va himatliligi, oljanobligi, va'dasiga vafodorligi, o'ziga xosligi bilim olishi, donoligi, bag'ri kengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg'uborligi va shu singari yoqimli urf-odatlar tushuniladi.

...Ma'rifatning insonga ko'rsatadigan ta'sirlaridan biri shuki, u odam dunyoqarashini kengaytiradi, unga notanish uning hayotiga begona hodisalarning asl ma'nolarini tushunishga yordam beradi. Ma'rifat ilm va madaniyat nuridir.

Aqliy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yetakchi tarkibiy qismi bo'lib o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik xislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Hadis kitoblarida har bir mo‘min-musulmon uchun ilmning naqadar zarurligi bayon etilgan. «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» - degan nurma’no hadisi shariflar so‘zimiz isbotidir.

Muhammad alayhissalom o‘z hadislarida – «Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarda yo‘ldosh, baxtli daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda qurol» deganlar.

Xalq pedagogikasida ham hadislarda ham, xalq og‘zaki ijodida ham ilmli bo‘lishga, ilmgaga intilishga yuksak darajada shariat berilgan, ular bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z ahamiyatiga ega.

Yusuf Xos Xojib o‘z asarlarida bilimdon bo‘lish tarbiya bilan chambarchas bog‘liqligi, bola qanchalik erta tarbiya qilinsa, shuncha yaxshiligi haqida yozadi:

«Agar kimda bo‘lsa aql, ilm zehn,
Uni madh etib sen, tugal er degin,
Ziyod bo‘lsa kimda o‘quv, uquv, aql, bilim,
Yomon va kichik bo‘lsa ham maqtagain».

Alisher Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida ilm orqali Farhodning aql-idrokli bilimdon, hunarmand, kamtar insonparvar, irodali va e’tiqodli inson bo‘lganligi ko‘rsatadi.

Demak yuqorida ta’kidlaganidek, yoshlar aqlini o‘stirish uchun birinchi galda vazifa ilm olish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga da’vat etishdir.

Aqliy tarbiya fikrlash, xis qilish, tasavvur, hayol va xotira qobiliyatini o‘stirish, ichki dunyosini ma’naviy jihatdan boyitish, yosh avlodni mehnat qilish qobiliyatini o‘stirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.

Tarixiy an’ana va tajribalardan ma’lumki, ta’lim-tarbiya doimo muayyan va tuzum yuritgan siyosat o‘z oldiga qo‘ygan vazifa va maqsadlar asosiga qurilgan.

O‘zbek xalqi ota-bobolaridan qolgan buyuk madaniy merosga ega. Bu boyliklar jamiyatda fan va madaniyat adabiyot va san’at, mustaqilligimiz ravnaqiga, ma’naviyatimizni yuksaltirishga, milliy g‘urur iftixorimizni mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham xizmat qiladi. Bunday

ma’naviyatning bulog‘idan yosh avlodni baxramand etish, tarbiya jarayonida ulardan mohirlik bilan foydalanish biz pedagoglarni asosiy burchimizdir. Bunday meros xalqni o‘zligini anglash, ajdodlar bilan faxrlanish, xalq mentalitetiga mos ravishda shakllanishga ulkan xissa qo‘shadi.

Xalq pedagogikasida xalqning milliy – tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an’analari va urf – odatlariga sodiqlik xissini tarbiyalash g‘oyalari ilgari surilgan.

Hamma zamonlarda ham inson, uning ma’naviy-ahloqiy kamoloti, bosh masala bo‘lib kelgan.

Insonda ana shunday jihatlarni rivojlantirishda quyidagi milliy aqidalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zaro hamjamiyat va jamoa bo‘lib yashash hamda mehnat qilish

Kattalarga hurmat kichiklarga shafqat, el-yurtga muhabbat

Ota-onani qadrlash, farzandlik burchini to‘la ado etish

Oilaga va farzandlarga g‘amxo‘rlik qilish

Millat ayirmaslik

Boshqalar qayg‘usiga sherik bo‘lish

Xasharchilik an’analarini tiklash va yordam berish

Vatanga muhabbat tuyg‘usini yanada rivojlantirish

Ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish

Islom diniga e’tiqod tuyg‘ularini tarbiyalash

Milliy madaniyatni tobora rivojlantira borish

Bilim olishga ahamiyat berish

Ustoz-ziyolilarga, ma’rifatparvar kishilarga hurmat-ehtiromda bo‘lish

Milliy odob-ahloq me’yorlariga to‘la rioya qilish

Ko‘rsatilgan shu ma’naviy-ahloqiy aqidalarga amal qilish hamda o‘tmishdagi olimu fuzalolaru shoirlarning benazir merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan va u hamon o‘z ta’sir kuchiga ega ekanini yodda tutgan holda amalga tadbiq etish zarur. Bu tarbiyada natijaga erishishning muhim shartlaridan biridir.

O‘zbek Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo‘nalishga yoppasiga safarbar

qilishda milliy qadriyatlarga tayangan holda, talaba yoshlar qalbiga kirib boradi, ularni ijtimoiy ongini o'stirishda yetakchi o'rinni tutadi.

Komil inson tushunchasi, insonning dunyoqarashi, jumladan diniy e'tiqodi, ruhiyati va xulq-atvor normalari, qolaversa, ahloq-odobi bilan bevosita aloqadordir.

Barkamol insonlar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'laydilar. Bunday insonlar mutelikda qaramlikda yashashni istamaydilar. Barkamol inson o'zida insoniylik fazilatlarini mujassam etgan, odob-ahloq me'yorlariga amal qiluvchi, o'z shaxsiy fikriga, g'oyasiga, mukammal bilimga ega bo'lgan jihatlarni qamrab olgan bo'lishi kerak.

Ana shunday maqsadli, e'tiqodli insonlarga jamiyat ishonadi, tayanadi, ular hamma vaqt xalq, millat iftixori bo'ladi.

Keksa avlod, ota-onan o'z farzandlarini uzoq zamonlar mobaynida to'plangan va takror-takror sinovdan o'tgan ajoyib insoniy fazilat qoidalari hamda uni amalgalashmetod va vositalarini yaratganlar va shu asosda zamona yoshlarini o'sha ijtimoiy hayot talablariga muvofiq kishilar qilib tarbiyalab kelganlar.

Xalq ijodi materiallarining ko'rsatilishicha, bolalarda insoniy xis-tuyg'ularni tarbiyalashning mazmuni kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiyligi, halol va rostgo'y bo'lish kabi dastlabki elementar odob va ahloq qoidalari o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasi yoshlarda yuqoridagi kabi ma'naviy fazilatlarni tarkib toptirmoq uchun, birinchi navbatda bolalarni o'ziga yaqin kishilarga ota-onan, aka-uka va oiladagi kattalarga bo'lgan tabiiy muhabbat tuyg'ularini tarbiyalab voyaga yetkazish zarurligiga amal qilingani ko'rindi.

Ma'lumki, kishilarning shu jumladan bolalarning ota-onan va kattalarga bo'lgan mehribonligi, g'amxo'rliги tug'ma hodisalar bo'lmay, tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma'naviy fazilatlardir.

Ota-onalarning bolalarga mehr-muhabbat, fidokorlik va g'amxo'rliklarining o'zi bolalarda ota-onani qadrini oshiradi. Ota-onan bolalar ko'z o'ngida muqaddas

va mo'tabar bo'lib gavdalanadi. Ularning ota-onaga bo'lgan tabiiy muhabbat hislarini tarbiyalab boradi. Bolalardagi bu hissiyot ayniqsa, bolalarning maktab yoshigacha bo'lgan davrida, ota-onaning suyushi, erkalashi, ardoqlashi zaminida rivojlanib boradi.

Biroq o'zbek xalq og'zaki ijodida, shuningdek, xalq pedagogikasida ota-ona bolani qanchalik sevmasin va unga qanchalik mehr qo'ymasin, bu sohada ma'lum me'yor mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Bolani haddan tashqari ardoqlash, erkalash, taltayib ketishiga yo'l ochib bermaslik uqtiriladi. Xalq pedagogikasida ota-onaning o'z farzandini sevishi, ardoqlashi, erkalashi, uning kelajak istiqboli baxtli bo'lishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgandagina bolaga ijobiy ta'sir etishi mumkin ekanligini ko'rsatadi.

Xalq og'zaki ijodida ota-onalarning o'z farzandlarini zo'r berib erkalashi va taltaytirishlari natijasida ularning injiq, irodasiz, tantiq, xushyoqmas, dangasa, odobsiz, o'jar va xudbin bo'lib qolishlarini tasvirlovchi asarlar ko'plab uchraydi.

Erka tutsa onasi,

Taltayadi bolasi.

O'zbek xalq poetik ijodida bolalarni oilada va bola yashab turgan muhitda insoniy fazilatlarni tarbiyalashning juda uzoq zamonlardan beri davom etib kelayotgan o'ziga xos xilma-xil metod va vositalari mayjud ekanligi ko'rinadi.

Insoniy fazilatlarni tarbiyalashda namuna ko'rsatish metodi ustida gap yuritilar ekan, avvalo shuni aytib o'tish kerakki, insoniylik mavzusida aytilgan ertak va dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi, metodi sifatida xizmat qiladi. Ertak va dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli tomoni – uning asosan ikki yo'nali shida ko'zga tashlanishidir. Bir tomonidan ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomonidan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga targ'ib qiladi.

Masalan, «Erali va Sherali» dostonida, aka-ukaning ustozи bolalarga odob-ahloq haqida juda ko'p pand-nasihatlar aytadi. Shu o'git-nasihatlardan xulosa chiqarib, Erali ukasiga: - «Aqli rasolarning gapini ko'rdingmi» deb, u shunday

donolardan ibrat olish kerakligini aytadi.

«Orzigul» dostonida Suvonxon otasi Suyonxonning o‘zi uyida parvona bo‘lishining qadriga yetmaydi. Arzimagan gap bilan otasiga nisbatan ginaxonlik qilib yuradi. Otasi esa bundan ranjiydi. Shu orada Suvonxon farzand ko‘radi. U bolasini juda sevadi. U: «Farzand qanday yaxshi! Yurakning moyidan, kishining mehri joyidan bo‘lur. Ko‘rar ko‘zimni yig‘latma», - deb Orzigul bilan o‘g‘lining qoshiga kelib: «Kishi farzand ko‘rmaguncha ota-onaning qadrini bilmas ekan», deb otasidan ibrat olishiga, uni qadrlashga ahd qildi. shuningdek, «Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga», «Sen ham bo‘larsan mendek» ertaklarini ham ko‘rsatish mumkin.

Demak, ota-onagi oiladagi kattalarning ijobiy fe’l-atvor va hatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta’sir qilgani holda oiladagi kattalarning nojo‘ya hatti-harakatlari bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida insoniylikni tarbiyalash yuzasidan qo‘llaniladigan rag‘batlantirish va qoralash bir necha formada ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik ertak va dostonlarda rag‘batlantirish metodi: 1) ma’qullah va maqtash, 2) alqash, 3) mukofotlash shakllarida, jazolash metodi esa: 1) qarg‘ash, 2) jismoniy jazo berish shakllarida uchraydi.

Rag‘batlantirish metodi ahloqiy tarbiya yuzasidan eng ko‘p qo‘llaniladigan metodlardan biri, xalq og‘zaki ijodida u turli shaklda ishlataladi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhgaga ajratgan holda talqin qilish mumkin.

Ma’qullah va maqtash. Xalq og‘zaki ijodiyoti asarlarida bolalarni insoniylik yuzasidan amalga oshirgan ibratli ishlarini kattalar tomonidan ma’qullah, taqdirlash, rahmat aytish va maqtov bilan bir o‘rinda tasvirlanadi. Masalan: «Erali va Sherali» dostonida, Erali bilan Sheralinin insoniylik yuzasidan el-yurt, oshna-og‘ayni o‘rtasidagi munosabatlari usta Odilni juda quvontiradi, ularning fe’l-atvoriga qoyil bo‘ladi.

Usta Odil ikkalasining yuziga qarab: «Barakalla aka-ukalikda o‘zgalar sizlardan ta’lim olishlari kerak. Ta’lim bergen ustozingga ming rahmat, ustozdan ibrat olgan aqllaringga rahmat, ikkinchi padaringga rahmat!» deydi.

«Suxrob va Muzrob» ertagida tasvirlanishicha, Suxrob bilan Muzrob ikkisi katta bir mamlakat xalqiga taxlika solib turgan devlarni o’ldiradi. Shunda saroyga yig‘ilgan kishilar Suxrob va Muzrobynning baxodirlarcha qilgan xizmatlariga ofarinlar aytib qoyil qolishibdi.

Yuqorida keltirilgan asarda bolalar o‘zlarining odobi, insonpavarliklari bilan ota-onas, ustoz ham xalq ommasining olqishlariga sazovor bo‘ladilar. Ba’zan ertak va dostonlarda bolalarning taqdirlanish sabablari ko‘rsatiladi, ularning kelajakda ham shunday bo‘lishiga da’vat etiladi.

2.“Xalq pedagogikasi”da yoshlarni tarbiyalashdagi metodlar, usul va vositalari.

Sharq xalqlari jumladan o‘zbek bolalari tarbiyasiga befarq qaramaganlar. Hayotdagi har qanday hatti-harakatning ham oqibati to‘g‘ri baholangan. Yoshga monand ta’sir ko‘rsatish yo‘l va vositalari yaratilgan. Kerak bo‘lganda rag‘batlantirish turlaridan foydalaniłgan, lozim bo‘lsa jazolangan. Noahloqiy hatti-harakatlarni qisqa va lekin o‘ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan «yomon bo‘ladi» iborasi bilan tavsiflangan.

Masalan, xalqimizning qadimdan amal qilib kelayotgan odob-ahloq qoidalariga nonga hurmat ulug‘langan va non ushog‘i bexosdan yerga tushib ketsa, «yomon bo‘ladi» deb uni qo‘lga olib ko‘zga surtib, o‘pib og‘izga solingan.

Birgina «yomon bo‘ladi» iborasi juda katta va ta’sirchan tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilgan. «Yomon bo‘ladi» iborasi orqali kattalarga xurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, tarbiyalangan, yetim bolalarga, boshiga tushgan oilalarga ozor yetkazilmagan. Otaga tez javob berish, xotin-qizlarga behayolik qilish «yomon bo‘lishi»ni yoshlikdan tushuntirilgan. Bunda bolalarni yoshi xatti-harakatlari o‘ziga xos xususiyatlari xisobga olingan. Ayrimlariga noahloqiy xatti-harakatlarining yomonligi Qur’oni Karim hadislardan misollar keltirish, xikoyalar aytib berish orqali ifodalansa, ayrim yoshdagи bolalar ota-onas; aka-uka, opa-singil, qo‘ni-qo‘shnilarning ijobiy xatti-harakatlari namunasida tarbiyalangan.

O‘zbek xalqida bolalar bilan bog‘liq juda ko‘p an’analar mavjud. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-muhabbat, ularni sevish, erkalash, parvarish qilish,

ta’lim-tarbiya berish, extiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ‘ib qilib kelgan.

Xalqimizning o‘zining tarbiya usullarida bolalardan kattalarga birinchi bo‘lib salom berishni kattalar suhbatiga aralashmaslikni, ularni hadeb savollar bilan charchatmaslikni, kattalar o‘z joylariga o‘tirgunga qadar o‘tirmaslikni, uyga mehmonlardan so‘ng kirishni, lekin eshikni birinchi bo‘lib ochib, ushlab turish, ularga yordam berish kabi odob qoidalariga rioya etishni har doim talab qilgan.

Ota-onada dasturxonadagi taomga qo‘l uzatmaguncha hech kim qo‘l uzatmagan. Yuqoridagi odob qoidalari deyarli o‘z ahamiyatini yo‘qotgan, ular milliy hulq-atvorimiz bezaklaridir.

Xalq madaniyatining eng muxim belgilaridan xushmuomilalikka hozir javoblikkha alohida e’tibor berilgan. Sharq xalqlari o‘z bolalariga soxtalik yasamalikdan nari yurishni singdirib kelgan samimiyy munosabatni ulug‘lagan, o‘rgatgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, xalq ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida qo‘llaniladigan: tushuntirish, namuna ko‘rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, istak bildirish, maslahat berish, yolvorish-iltijo, duo qilish, la’natlash, kaltaklash kabi metodlari bo‘lsa-da, yoshlarning insoniy fazilatlarini tarbiyalashda asosan o‘git-nasihat, ibrat ko‘rsatish, maqtash, qarg‘ash kabi metodlaridan foydalangani ko‘zga tashlanadi.

O‘git-nasihat xalq og‘zaki ijodida bolalarda insoniy fazilatlarni tarbiyalab yetishtirishda eng ko‘p qo‘llanadigan metodlaridan biridir. Avvalo, kishilarni kishi tomonidan va rostgo‘y bo‘lish, yaxshilik haqida teran fikr yuritilgan xalq maqollari asosan panj-nasihat formasida tinglovchiga nisbatan maslahat, nasihat, istak va buyruq formasida ishlatiladi. Masalan:

Yomonning yaxshisi bo‘lguncha

Yaxshining yomoni bo‘l!

Birovga o‘lim tilaguncha,

O‘zinga umr tila!

Qadrlasang qadring oshar,

Qadrsizdan hamma qochar
kabi maqollar tinglovchilarga nisbatan o‘g‘it-nasihat formasida aytilgandir.

Bolalarni insoniylik ruhida tarbiyalashda qo‘llaniladigan eng xarakterli shakllardan biri, xalq donishmandliklarining ahloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so‘zlari-maqollarini u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ishlatilishidir, ya’ni ahloq va odob masalalariga bag‘ishlangan xalq maqollarining naqadar haqiqat ekanligini (Har kimsa etsa-o‘ziga) ertagi mazmuni orqali ochib berilishidir.

11-mavzu: Diniy ta’limotlar xalq pedagogikasining muhim ma’naviy- axloqiy tarbiya vositasi sifatida.

Reja:

- 1.Diniy ta’limotlar xalq pedagogikasining muhim tarbiya vositasi.
- 2.O‘zbek xalqining boy pedagogik qarashlari muqaddas Qur’oni Karim, Hadislari kabi diniy ta’limotlar bilan hamohangligi.
- 3.Islom ta’limotida ilm olish masalalari.

Tayanch tushunchalar: Islom dini, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, Arab istilochilari, diniy tarbiya.

1.Diniy ta’limotlar xalq pedagogikasining muhim tarbiya vositasi.

VII asr boshlarida Islom g‘oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o‘z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabit eta boshladi. Butun Arabiston yarim oroli, shuningdek, Eron, Suriya, Janubiy Ispaniya, Kavkaz orti hamda Shimoliy Afrikada joylashgan bir qator mamlakatlar xalifalik tarkibiga kiritildi. Arab istilochilari VII asrning o‘rtalariga kelib Movarounnahrni to‘la zabit etishga erishdilar.

Arablar tomonidan bosib olingan yerlarda xalqlar Islom dinini qabul qilishga majbur etildi. Arab istilochilari xalqni o‘zlariga bo‘ysundirish va ular tomonidan Islom dinini qabul qilinishiga erishish maqsadida harbiylar hamda Islom dini targ‘ibotchilarining xizmatidan birdek foydalandilar. Natijada o‘z oldilariga

qo‘ygan asosiy maqsadga erishdilar. Movarounnahrda Islom ta’limoti g‘oyalarining yoyilishi, kishilar tomonidan Shariat qoidalari, Islom dini aqidalariga bo‘ysunish, yagona va qudratli Ollohga sig‘inish, shuningdek, Ollohning yerdagi rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad Alayhis-salom ko‘rsatmalariga rioya etish xalqning ongiga chuqur singib, ular tomonidan mazkur din asoslarining qabul qilinishiga zamin hozirladi. Natijada Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi. Ulkan hududni qamrab olgan Arab xalifaligi davlatining hukmronligi davrida ijtimoiy hayot, turmush tarzi, shuningdek, ilm-fan va madaniyat yanada rivojlandi. Ushbu davrlarda qadimgi yunon va rim madaniy merosi negizida bir qator fanlar yangi tushuncha va bilimlar bilan boyidi. Yunon va Rim mutafakkirlari tomonidan yaratilgan va astronomiya, tibbiyot, kimyo, matematika va geografiyaga oid deyarli barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

Yunonlardan esa fanlar tasnifi (klassifikatsiya) olinib, fanlar nazariy va amaliy fanlar tarzida ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruhga quyidagi uchta fan kiritilgan: tabiyot to‘g‘risidagi fanlar, ilohiyot to‘g‘risidagi fanlar va matematika fani kiritilgan bo‘lib, ushbu fanlar tarkibidan arifmetika, handasa (geometriya), astronomiya va musiqa fanlari o‘rin olgan. Ikkinci guruhga kiritilgan fanlar qatorida etika, iqtisod va siyosatga oid fanlar e’tirof etilgan. O‘scha davr nuqtai nazaridan bir muncha yuksak taraqqiy etgan hind fani arab madaniyatining umumiy rivoji, xususan, arifmetika, algebra va tibbiyot fanlari asoslarining boyishiga munosib hissa qo‘shdi. Sonlarning mohiyatini yoritib beruvchi hind nazariyasi mazmuni bilan yevropaliklar Arab xalifaligi tasarrufiga kiruvchi hududlarda istiqomat qilgan mutafakkirlarning sa‘i-harakatlari orqali tanishishga musharraf bo‘lganlar. Bu borada ma’lumot beruvchi muhim manba Muhammad al-Xorazmiy tomonidan asoslangan “Al-jabr” (“Algebra”) asari bo‘lib xizmat qildi.

Islom dini Arabiston yarim orolida uning ko‘p asrlik tarixi negizida shakllangan. Islom dini kishilik jamiyatining ibridoiy davri xususiyatlaridan voqif bo‘lish va O‘rta asr Uyg‘onish davrining ro‘y berishi uchun ma’naviy-g‘oyaviy poydevor qo‘ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga keldi. Islom ta’limoti o‘zining insonparvar g‘oyalari va ularni insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari

tufayli o'n to'rt asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzda idrok etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Islom ta'limotining bu qadar ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida e'tirof etilishida Ollohning rasuli (yerdagi vakili) bo'lgan payg'ambar Muhammad Alayhis-saloming o'rni beqiyosdir.

2.O'zbek xalqining boy pedagogik qarashlari muqaddas Qur'oni Karim, Hadislar kabi diniy ta'limotlar bilan hamohangligi.

«Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Yuqorida ta'kidlanganidek, «Quron»da uylanish, er-xotin, ota-onalar farzandalar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan.

Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziylar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi Islom olamida Qur'onidan keyingi o'rinda turuvchi hadislar ishonchli axloqiy manba hisoblanadi. Haqiqiyligi puxta o'rganib chiqilgan ishonchli hadislar sahif deyiladi. Sahih so'zining ma'nosini sog'lom, to'g'ri, xatosiz degani. Hadislarni to'plagan muallif esa muhaddis deb yuritiladi.

Hadislarni to'plash ishlari VIII asrdan boshlangan. Payg'ambar alayhissalomni ko'rgan va bilganlardan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, dastlabki hadis to'plovchilar ibn Shahob az-Zuhriy, Yahyo ibn Sa'd al-Ansoriy, Ibn Jurayj kabilar bo'lgan. Dunyoga mashhur muhaddislar Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn Hajjoj, imom Nisoiy, Imom Ibn Majj' Kazviniy, Abu Iso Muhammad as-Samarqandiy, Imom at-Termiziylardir. Yuqorida nomlari zikr qilingan muhaddislarning hadis to'plashdagi xizmatlari juda katta. Bu ulug' alloma birgina "Al jome' as-sahih" ("Ishonchli majmua") asari ustida o'n olti yil ish olib borgan. Va olti yuz ming

hadisni to‘plab, 7275 tasini tanlab olgan. Shuningdek, “Al-jome’ as-sahih” asaridan odob-axloq mavzuiga bag‘ishlangan hadislarni tanlab olib, alohida kitob holiga keltirgan. Bu kitob Al-adab al-mufrad (“Adab durdonalari”) deb nomlangan bo‘lib, bu asar 1322 ta hadisni o‘z ichiga olgan.

At-Termiziyning ijodiy faoliyatida yaratgan asarlari ichida, “Al-Jomi’ as-sahiyh” (“Ishonchli to‘plam”) eng Asosiy qism o‘rinni egallaydi. Ushbu asar yuqorida qayd qilganimizdek “al-Jomi’ al-kabiyr” (“Katta to‘plam”), “Sahiyh at-Termiziy”, “Sunan at-Termiziy”, (“Termiziy sunnatlari”) kabinomlar bilan ham yuritiladi. Tarixchi ibn Hojar al-Asqaloniyning yozishicha at-Termiziy ushbu asarini 270 hijriy (884 melodiya) yilda, ya’ni qariyb oltmis yoshlarida, ilm-fanda katta tajriba orttirib, imomlik darajasiga erishgandan keyin yozib tugatgan.

Abu Iso at-Termiziy yozib qoldirgan “al-Jome’ as-sahiyh”, “ash-Shamoil an-nabaviya” kabi asarlarida keltirilgan hadisi shariflar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib insonlarni halol, adolatli, e’tiqodli, diyonatli, pokiza, mehnatsevar, muruvvatli, rahm-shafqatli, ota-onasiga, ayollarga nisbatan hurmatda va e’tiborli bo‘lishga chorlaydi.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan bo‘lib, ushbu fazilatlar sirasiga o‘zgalarga mehr-oqibat ko‘rsatish, saxiylik, ochiq ko‘ngillik, ota-onasiga, kattalar va qarindoshlarga nisbatan muruvvatli bo‘lish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, vatanga muhabbat, mehnat va kasbhunarni ulug‘lash, halollik, poklik, do‘slik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kamtarlik, rostgo‘ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi.

Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo‘lishi quyidagi uch shartga qat’iy amal qilinishiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan:

- to‘g‘ri e’tiqodli bo‘lmoq;
- kishilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmoq;
- kishi o‘z ustida ishlamog‘i va o‘zini ibodat va itoatga chaqirmog‘i¹

¹ Al-Buxoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Xadis. 4 jildli kitob. 1-kitob. Al-jome’ as-saxix (Ishonarli to‘plam). Arabchadan Ismoil tarjimasasi. – Toshkent, qomuslar bosh taxririyyati. 1991. 14-bet

Hadislarda inson ma’naviy kamolotining mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o‘z bilimi bilan atrofdagilar va jamiyatga foyda keltirguvchi shaxs bo‘lib yetishishida muhim omildir deya ko‘rsatiladi. “Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham”. Bilimsizlik kishilarning nodonligiga zamin hozirlashi, ilmsiz jamiyatda esa jaholat hamda razolatning hukmronlik qilishi aloqida ta’kidlab ko‘rsatiladi.

Ammo ilmga e’tiborsizlik va nodonlik (jaholat)ning avj olishi jamiyatning inqiroziga olib keladi.

Bir qator hadislarda ilmning ibodatdan ustun ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, “Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir” (268-hadis). Biroq ilmning manfaatsiz holda sarflashdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi aytildi va ilm ahlini ana shunga da’vat etiladi (173-hadis), haqiqiy komil insonning bilimga boy, xushxulq, sog‘lom bo‘lishi (182-hadis), uni faqat foydali ishlar va insonlarning farovon hayot kechirishlari yo‘lida sarf etish kerakligi ham uqtiriladi: “Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing! Rasulloh sallallohu alayhi-vassalamning sahabalari yoshlari ulg‘ayganda ham ilm o‘rganganlar. Rasulloh sallallohu alayhi-vasallam: ikki narsadan o‘zgasiga hasad qilmoq joiz emas, biri-kishiga Olloh taolo halol mol-dunyo bersa-yu, uni Haq yo‘lida sarflayotgan bo‘lsa, ikkinchisi-kishiga Olloh taolo ilmu hikmat ato etsa-yu, u shu tufayli oliy maqomga erishib, hukm surayotgan, odamlarga bilganini o‘rgatayotgan bo‘lsa”, – deydilar”¹.

Ma’lumki, islom ta’limotida eng yuksak xislatlardan biri sifatida ota-onaga g‘amxo‘rlik, ularni e’zozlash, ota-onan haqqini o‘z o‘rniga qo‘yish, farzandning ular oldidagi haqqi borasidagi masalalarning yoritilishiga alohida e’tibor beriladi. Hadislarda ham ana shu talablar o‘z ifodasini topgan. Ota-onani xafa qilib yig‘latish eng katta gunohlari sifatida e’tirof etilgani quyidagi, ya’ni, Olloh Taoloning mavjudligiga shirk keltirish, odam o‘ldirish, urush maydonidan ochish,

¹ Al-Buxoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Xadis. 4 jildli kitob. 1-kitob. Al-jome’ as-saxix (Ishonarli to‘plam). Arabchadan Ismoil tarjimasи. – Toshkent, qomuslar bosh taxririyyati. 1991. 33-bet.

afifa (o‘zini pokiza saqlagan) xotinni fohisha deb tuhmat qilish, ribo (ijarax o‘rlik), yetimlar molini yemoq, Olloh Taoloning qudrati va irodasini inkor qilish, odamlarni masxara qilish hamda ularni kamsitish kabi holatlar qatorida tilga olib o‘tiladi. Hadislarda ota-onaning dilini og‘ritib, ozor berish, ularni xafa qilib, buyruqlarini bajarmaslik ham qoralanadi: “Abdulloh ibn Amr (Roziyollohu anhu) aytadilar: bir kishi Rasulloh huzurlariga hijrat qilmoq uchun bay’at qilishga keldi. Ammo ota-onasi uning ketishiga rozi bo‘lmay, xafalikdan yig‘lab qolgan edilar. Shunda Rasulloh: “Sen hozir ota-onang oldiga bor! Hijrat qilaman deb ularni xafa qilganingdek, endi hijrat qilmaydigan bo‘ldim, deb ularni xursand qil”, -dedilar (13-hadis). Islomda eng katta gunoh Olloh Taologa shirk keltirish va ota-onaga oq bo‘lish hisoblanishi 15-hadisda alohida ta’kidlanadi. Ota-onaning ham o‘z navbatida farzandlarini tarbiyat etmog‘i, odob o‘rgatishi, yaxshilik qilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Har bir kishining ota-onasiga yaxshilik qilganidek, bolalariga ham yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo‘ynida ota-onaning haqqi bo‘lganidek, bolaning ham haqqi borligi xususidagi g‘oyalar qur’oni Karimda ham, Hadisi Sharifda ham uqtiriladi.

Hadislarda kishilarning bir-biri bilan do‘s, tinch-totuv yashashlari, o‘zaro muruvvatli, mehr-shafqatli bo‘lishlari kerakligi haqidagi g‘oya ham ilgari suriladi. Bu g‘oya opa-singil, aka-uka, qarindosh hamda qo‘snilalar o‘rtasida tashkil etiladigan muomala va munosabatlar mazmunining ochib berishga yo‘naltirilgan hadislar mohiyatida aks etadi. Ma’naviy-axloqiy xislatlarga ega bo‘lgan inson ota-on, opa-singil, aka-uka va qo‘snilarga yaxshilik qiladi, bu yaxshilik ular o‘rtasidagi totuvlikni keltirib chiqaradiki, pirovardida jamiyat taraqqiy etadi, tinchlik barqaror bo‘ladi, aholi farovon hayot kechiradi.

3.Islom ta’limotida ilm olish masalalari.

Islom falsafasida ma’naviy omil jamiyat rivojida yetakchi o‘ringa qo‘yiladi. Ma’naviy-ahloqiy barkamollik hukmron bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash g‘oyasi hadislar mazmunida o‘z yechimini topadi.

Alloh o‘zining yagonaligiga ham ilmli kishilarni guvoh qilgan: «Alloh albatta uning o‘zi yagona iloh, undan boshqa ibodatga sazovor zot yo‘qligiga shohidlik beradi. Shuningdek, farishtalar va ilm egalari ham bu narsaga adolat bilan shohidlik berdilar» («Oli Imron» surasi, 18-oyat).

Shu oyatda Alloh ilmli kishilarning shohidligini o‘z farishtalarining shohidligi bilan tenglashtirgan. Bu esa, ilmli kishilarning hurmati Alloh huzurida naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, Qur’on ilmsizlarni tanqid qiladi: “Shunday qilib Alloh ilmsizlarning qalbini berkitib qo‘yadi”. (“Rum” surasi, 59-oyat). Qur’on ilmning chegarasi yo‘q ekanligini ham bayon qilib o‘tgan: “Har bir ilmlining ustidan undan ham ilmliroq bor” (“Yusuf” surasi, 76-oyat).

Bu oyatdan maqsad shuki, olimlar o‘z ilmlari bilan mag‘rurlanib, o‘z ustida ishlashni tark etmasinlar, doimo ularni ham birov tanqid qilib qolishiga o‘zlarini tayyorlab tursinlar, demakdir. Qur’on muslimonlarni barcha narsaning haqiqatini bilish uchun doimo ilm payida bo‘lishga chaqiradi: «Ey, parvardigor, mening ilmimni ziyod qilgin deb ayt” (“Toho” surasi, 114 -oyat).

Islom kishilarni ilmgaga chaqirish bilan kifoyalanib qolgan emas, balki aqliy va fikriy harakatsizlikning oldini olish asoslarini kishilarga ko‘rsatgan. Bu quyidagi narsalarda ayon bo‘ladi:

1. Ilm biror narsani hujjatli, aniq dalil bilan bog‘lamaguncha, uni haqiqat deb tan olmaydi. Qur’on ham muslimonlarga dalilsiz narsani qabul qilmaslikni buyuradi: «Ular aytdilar, jannatga kim yahudiy yoki nasroniy bo‘lsa kiradi. Bu ularning orzusi xolos. Sen, agar gaplaringiz to‘g‘ri bo‘lsa, dalil va hujjat keltiringlar, deb aytgin” (“Baqara” surasi, 111-oyat).

Ilm doimo mavhum narsani deb aytishdan qaytaradi. Gumanни rost deyish to‘g‘ri emas. Bir masala to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilish uchun uning hujjati, kuchiga qaraladi, agar xujjati kuchli bo‘lsa, masala haqiqat, hujjat kuchli bo‘lmasa, masala guman. Mana shu ilmiy farqlash Qur’on ta’limotlariga ham to‘g‘ri keladi.

Qur’on haqiqiy - ilmiy narsalarga suyanishga, guman va xayollardan uzoqda bo‘lishga buyurgan va gumonga ergashganlarning holi yomon bo‘lishini aytib

o‘tadi: «Balki zolimlar ilmsiz ravishda havoyi-nafslariga ergashadilar» («Rum» surasi, 29-oyat).

Alloh musulmonlarga ilmiy asosda ish olib borishni ko‘rsatib, shunday deydi: «O‘zing bilmagan narsaga ergashma. Albatta, ko‘z, qulqoq va qalb barcha narsadan so‘raladi» («Isro» surasi, 36-oyat). Oyatning ma’nosi shuki, o‘zing aniq bilmasang, senga aytildigan turli-tuman narsalarga ergashma. Chunki inson qiyomat kunida qulog‘i eshitgan, ko‘zi ko‘rgan, qalbi jo qilgan barcha narsalar haqidagi so‘roqlarga javob berishi kerak. Biz eslab o‘tgan oyatlarning barchasi ishning asosi aniq, sobit, ilmiy ravishda bo‘lishi zarurligini, guman va turli fikrlar bo‘lmasligini anglatadi.

Ilm ko‘r-ko‘rona taqliddan qaytarishda Qur’on bilan muvofiqdir. Qur’onda bir fikrni ota-bobomiz qilgan, deb, o‘zлari aql ishlatmay yurganlarni tanqid qilingan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga va payg‘ambarga yaqin kelinglar, deyilsa, ular ota-bobolarimizdan qolgan narsa bizga kifoya qiladi, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan, va to‘g‘ri yo‘lda yurmagan bo‘lsalar, unda nima bo‘ladi» («Moida» surasi, 104-oyat).

Boshqa bir oyatda shunday deyilgan: «Agar ularga Alloh tushirgan narsaga ergashinglar, deyilsa, ular, yo‘q biz ota-bobolarimizdan ko‘rganimizni qilamiz, deydilar. Ota-bobolari hech narsani bilmagan bo‘lsalar va to‘g‘ri yo‘lda yurmagan bo‘lsalar, unda nima bo‘ladi. Kofirlar xuddi bir qo‘y podasiga o‘xshaydilarki, ular cho‘ponning qichqirig‘ini eshitadilar-u, ma’nosiga tushunmaydilar. Ular kar va ko‘rdirlar, aqllarini ishlatmaydilar» («Baqara» surasi, 170-171-oyatlar).

Qur’onning shu oyatlaridan ko‘rinib turibdiki, aql ishlatmay, o‘zi ishonch hosil qilmay — ko‘r-ko‘rona taqlid qilish kofirlarning ishi ekan. Har bir inson Islomni bilib, unga ishonch hosil qilmaguncha, ko‘r-ko‘rona taqlid qilgani bilan mo‘min bo‘la olmaydi. Qur’on xalqlarni boshliqlar va yo‘lboshchilarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan ehtiyyotlanishga chaqiradi. Uning aytishicha, yo‘lboshchilar ham va unga ergashganlar ham noto‘g‘ri yo‘lda bo‘lsalar — qiyomat kunida teng azob chekadilar.

Buning ma’nosi shuki, bu dunyoda yo‘lboshchilik qilganlar, qiyomat kunida o‘ziga ergashganlardan qochar ekan. Ikki guruh ham azobga duchor bo‘lib oralaridagi aloqa uzilar ekan.

Qur’on ota-bobolarga, boshliqlarga va yo‘lboshchilarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan qaytarish bilan birga, faqat bir taraflama fikrlashdan ham qaytardi va biror narsa qilmoqchi bo‘lsa o‘sha narsaning yaxshisini tanlab olishga chaqiradi: “Ular (musulmonlar) gapni eshitganlaridan so‘ng, eng yaxshisiga ergashadilar. Shunday kishilarni Alloh to‘g‘ri yo‘lga boshlaganlar va ular aql egalaridirlar” (“Zumar” surasi, 18-oyat).

Mana shu oyatda Alloh musulmonlarni barcha gaplarni eshitib, tushunib, so‘ngra yaxshisiga ergashishga buyuradi. Alloh shunday qilganlarni ilohiy hidoyatga erishganlar va o‘tkir aql egalari, deb ataydi.

Aslida ilm degani ishlarni aql yordamida bajarishga aytildi. Aql esa, uchragan narsani tushunib olish qobiliyatidir. Qur’on barcha ishlarda aqlni ishlatishga chaqiradi, aqlni ishlatmaganlarni qattiq tanqid qiladi. Qur’onda aqlga taalluqli so‘zlar 50 marta ishlatilgan. Aql egalarining so‘zi esa 10 martadan ko‘proq ishlatilgan. Shuning o‘zi ham Qur’on aqlga katta e’tibor bergenini dalilidir. Qur’on aqlning ulkan ne’mat ekanligini bayon qiladi: “Albatta bu narsalarda aqli kishilar uchun belgililar bor” (“Ra’d” surasi, 4-oyat). “Biz oyatlarni aqli kishilar uchun bayon qilib qo‘ydik. Aqlni ishlatmaydilarmi” (“Baqara” surasi, 76-oyat) va hokazo.

Boshqa oyatlarda esa, aqlni ishlatmaganlarni ayblaydi: “Allohnинг huzurida eng yomon jonzotlar kar-soqov, aqlni ishlatmaydiganlaridir” (“Anfol” surasi, 22-oyat). “Sen ularning ko‘plari eshitadilar va aql ishlatadilar, deb hisoblaysanmi. Ular xuddi hayvonlarga o‘xshaydilar, balki hayvonlardan ham battardurlar” (“Furqon” surasi, 34-oyat).

Boshqa bir oyatda aqlni ishlatmaslik oxirat azobiga sabab bo‘lganligini eslatadi: «Ular (do‘zaxilar) agar eshitganimizda va aql ishlatganimizda do‘zaxilardan bo‘lmas edik, deyishadi» («Mulk» surasi, 10-oyat).

Mana shu narsalarning barchasi Islomdan aql va aqliy tarbiyaning naqadar ulkan baholanishini ko'rsatadi.

Ilmning asoslaridan biri shuki, tabiiy haqiqatlar o'zgarmasdir. Ishonchli dalil bilan sobit bo'lgan haqiqat barcha vaqtarda haqiqatligicha qolaveradi. Bu narsa Qur'onda shunday ta'kidlab o'tilgan: "Avvalgilarning qilganlariga qaramaydilarmi, Allohning qilgan ishlariga hech qachon o'zgarish topa olmaysan. Allohning qilgan ishlarini hech qachon boshqachasiga aylantir-ganini ham topa olmaysan" ("Fotir" surasi, 43-oyat).

Boshqa bir oyatda "Allohning yaratganini o'zgartirib bo'lmay-di" deyilgan ("Rum" surasi, 30-oyat).

Bu oyatlarda tabiiy qonunlar va Alohning qilgan ishlari o'zgarmasdan o'z holiga sobit qolajagi ochiq-oydin aytilgan.

Biror narsani atroflicha o'rganish Qur'on buyurgan ilmiy asoslardan biridir. Qur'on oyatlarida bir narsani atroflicha o'rganish uchun ko'z, qulqoq, xususan aqlni ishlatib oldinga suriladi. «Ankabut» surasida shunday deyilgan: «Er yuzida yurib, maxluqotlar qanday yaratilganligini o'z ko'zingiz bilan ko'ringlar» (20-oyat).

Shunga o'xshash oyatlar Qur'onning boshqa suralarida ham ko'plab uchraydi. Ularning umumiy ma'nosidan ma'lum bo'ladiki, inson onadan tug'ilganidan so'ng ko'rish, eshitish va aqlni ishlatish orqali ilm hosil qiladi.

Qur'on oyatlarida tabiiy ilmlarni o'rganishga chaqiriqlar bor. "Rum" surasida shunday deyilgan: "Osmonlarning va yerning yaratilishi Allohning alomatlaridandur, shuningdek, sizlarning tillaringiz, ranglaringizning turlicha bo'lishida ham, albatta, olimlar uchun alomatlar bor" (22-oyat). "Fotir" surasida esa: "Ko'rmaysanmi, Alloh osmondan suvni tushiribdi va u suv bilan ranglari turlicha bo'lgan mevalarni o'stiribdi. Shuningdek, tog'larning ham rangi turlichadir – oq, qora, qizil. Odamlar, jonzotlar va uy hayvonlarining ham ranglari turlicha. Albatta, olim bandalar Allohdan qo'rqadi" (27-28-oyatlar).

Bu oyatlarda zikr qilingan "Olimlar"dan murod, Alloh yer yuzida yaratgan mahluqotlarning sir-asrorlarini biluvchi shaxsdir. Bu oyatlarning mavzui ham tabiiy ilmlardir. Chunki tabiiy ilmlar borliqdagi narsalarni va ularning

xususiyatini o‘rganadi. Avvalgi oyatda aytib o‘tilgan “osmondan suv tushirish sirini” faqat tabiiy ilm orqali bilinadi. Bu so‘zning tarkibini va xususiyatlarini kimyo ilmi orqali bilinadi. Shu suv sababli o‘sib chiqqan o‘simliklar va mevalarning sirini esa tabiyot ilmi tushuntiradi. Tog‘lar va ulardagi oq, qizil, qora turlarin jug‘rofiya o‘rganadi. Inson jinslarini va hayvonot olamini esa, antropologiya, zoologiya, biologiya o‘rganadi. Oyatning oxridagi “Albatta olim bandalargina Allohdan qo‘rqadi” degan jumлага nazar solsak, unda Allohni haqiqiy tan olib, unda haqiqatan qo‘rqadigan kishilar, tabiiy ilmlarni yaxshi biluvchi kishilar ekanligini tushunamiz. Chunki bunday olimlar agar imonli bo‘lsalar, ularning ilmi Allohdan qo‘rqishga chorlaydi.

Qur’on oyatlarida insonni o‘ziga nazar solish va qanday vujudga kelganini tafakkur qilishga da’vat bor: “Inson nimadan yaratilganligiga nazar solsin, u bir otilib chiquvchi suvdan yaratilgandir, bu suv sulbdan (orqa umurtqa suyak) va taroibdan (ko‘krak suyagi) chiqadi” (“Tortiq” surasi, 5-7-oyat).

Vujudga kelishning asliga nazar solish orqali inson biologiya ilmiga yetishadi, bu ilm esa, unga inson bir xujayradan rivojlanib borib, o‘zining to‘liq inson bo‘lib yaratilganicha bosib o‘tadigan bosqichlarining sir-asrorlarini bildiradi.

Qur’onda insonni o‘z nafsi haqida fikr yuritishga chaqiruvchi oyatlar bor: “Va o‘z nafsingizda ham alomatlar bor, bularni ko‘rmaysizmi” (“Zariyat” surasi, 21-oyat). O‘z nafsigiga nazar solish orqali psixologiya ilmiga yetib boriladi. Bu psixologiya ilmi esa, insondagi his-tuyg‘ular, sezgi – hayajonlar va boshqa ko‘pgina holatlarni o‘rganadi.

12-mavzu: Islom dinida axloqiy – ma’naviy qarashlar.

Reja:

- 1.Xalq pedagogikasi mabaalarda islom dinining axloqiy– ma’naviy qarashlar talqini.
- 2.Yoshlar tarbiyasida islom ta’limotining tarbiyaviy ahamiyati.

3.Diniy aqidaparastlikning zararli oqibatlari haqida.

Tayanch tushunchalar: Iymon, e’tiqod, tolibi ilm, ilmu hikmat, hikmat, sabr-qanoat, exsonli, saxovatli, muruvvatlik.

1.Xalq pedagogikasi mabaalarda islom dinining axloqiy– ma’naviy qarashlar talqini.

Islom dini – ma’naviy axloqiy o‘g‘itlarning majmuidir, ya’ni uning mazmuni yagona Ollohgaga iymon keltirishdir. Bu dinning asoschisi Muhammad s.a.v. (570—632) musulmonlar tomonidan payg‘ambar, ya’ni Allohning elchisi, deb e’zozlanadi. Islom danining muqaddas kitobi — Qur’oni Karimdir. Xalifa Usmon davrida Qur’oni yagona kitob shakliga keltirilgan va boshqa barcha matnlari yo‘q qilingan: Qur’oni 114 suradan iborat, Oddiy musulmon Qur’onning murakkab suralarini faqatgina tafsirlar orqali tushunishi mumkin. Islomga muvofiq Qur’on barcha musulmonlar buysunishlari lozim bo‘lgan muqaddas kitobdir. VI asrning o‘zidayoq islom insonning ijtimoiy xuquq va erkinliklarini e’lon qildi. Bu erkinliklar inson va jamiyat hayotining barcha jabxalarini qamrab olgan holda ta’lim tarbiya jarayonlariga tadbiq etildi. Shariatning huquqiy qadriyatları ijtimoiy tavsifga ega va quyidagi tamoyillarga asoslangan adolatli jamiyatni barpo etishga qaratilganligidir. Jamiyat yashayotgan barcha insonlarning irqi, tili va diniy mansubligidan qat’iy nazar tengligi, Jamiyat barcha a’zolarining teng mas’uliyatga egaliklari, chunki ular bitta manbadan kelib chiqqanligi, Inson hayoti va erkinligi tengligi, oila jamiyatning asosidir, jamiyat oilani o‘z himoyasiga oladi va unga g‘amxo‘rlik qiladi, boshqaruvchi va boshqariluvchilarining tengligi kabilar.

Har bir inson jamiyatda bo‘layotgan va insonlar uchun tegishli bo‘lgan barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar xalq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozimligi, o‘zining dunyoviy ishlari uchun har bir kishi jamiyat oldida, ma’naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa faqatgina Olloh oldida javob berishi belgilab dasturi amal qilib qo‘yildi. Bundan tashqari hadislarda islom dinidagi eng muhim insoniy huquqlar sifatida quyidagilar kafolatlanadi:

Ta’limiy - tarbiyaviy vositaga ega bo‘lgan Qur’on oyatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ota-onada va farzand o‘rtasidagi munosabat, bolalarni tarbiyalayotgan ota ona nimaga intilishi kerakligi, shuningdek, ular erishmoqchi bo‘lgan maqsadlar aniq belgilab qo‘yilgan. Qur’on musulmonlarning hayot mazmuni va maqsadi haqidagi qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatgan va uning g‘oyalari musulmon xalqlarining madaniyatidan chuqur joy olgan bo‘lib, xalq pedagogikasi manbalari: maqol, rivoyat, ertaklar va boshqalarga har tomonlama ta’sir ko‘rsatgan. O‘sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo xisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko‘rinish kasb etmoqda.

Qur’oni karim yoshlarni bilim olishga da’vat etuvchi muhim manba vazifasini bajaradi. Ma’lumki, Qur’onda “ilm” so‘zi 750 marta uchraydi. Agar Qur’on 780000 so‘zdan iboratligini inobatga olsak “ilm” so‘zi muqaddas kitobning 1104 qismini tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Qur’on inson bilimlarini ikkiga ajratadi: diniy va dunyoviy. Diniy bilimlar dunyo asoslarini, dunyo yaratilishini bilishga qaratilgan bo‘lib, bilimning bu turi - inson yetishishi mumkin bo‘lgan eng oliy chuqidir. Qur’onda inson ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan dunyoviy bilim xaqidagi oyatlarni uchratamizki, bunda dunyoviy bilimlarga inson tanasining uch a’zosi -ko‘z, quloq va yurak orqali erishish mumkinligi ta’kidlanadi. Bilimning holatlaridan tashqari, Qur’on bilim rivojlanishining dialektik dinamik jarayonlarini va inson tomonidan o‘zlashtirilishini ham qayd etadi. Buning hammasi mazkur manbada bu holatga alohida e’tibor bergenlardan dalolat beradi. Shuningdek bilim olishga intilish hadislarda ham o‘z ifodasini topgan.

Qur’onda har bir shaxsni ijtimoiylashuvi hamda har bir insonning hayot va mexnatiga munosabati xaqida g‘oyalalar mavjud. Islomshunoslar islom dinining inson hayoti va mehnatga nisbatan munosabati borasida izlanishlar olib borganlar. Ularning ta’kidlashlaricha, Qur’on boyliklarni qoralaydi, biroq u barcha boylikni emas, balki Xudo qismatni, musulmonning farzlarini unutishga chorlovchi boyliklarnigina qoralaydi. Agar boylik din nuqtayi nazaridan xalol topilgan bo‘lsa va zakoti berilsa, uni islom qonuniy xisoblaydi. Qur’on xarakatsizlikni ham

qoralaydi. U ham dunyoviy, ham diniy ishlardagi faol kishilarni yoqlab chiqadi. Ana shu sababli tarbiyaviy tizimda hadislardan foydalanish nihoyagda muhim xisoblanadi. Chunki ularda payg‘ambarning hayoti va faoliyatidan turli xikoyalar, axloqiy pandlar mavjud. Hadislarda islom asoslarining sharxlari berilgan bo‘lib mexribonlik ruxiy poklik tozalik xalollik iymon kabi tushunchalar ko‘rib chiqilgan. Hadislarning pedagogik taxlili ushbu man’baning ta’lim- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi eng muhim mazmuniy yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi: —“Go‘zal xulq soxibi”. U insonlarning bir-biriga ishonchini shakllantiradi; — O‘z xatolarining tan olinishi xalqning buyukligidan dalolat beradi; — o‘z fikrini bildirish inson kuchining ifodasidir. O‘z fikrini bildirmaslik esa shariat va sog‘lom fikrlashga nisbatan norozilik alomati; — O‘z farzini tushunish va uni ixtiyoriy bajarish insonda yaxshi xislatlar paydo bo‘lishiga olib keladi; insonning o‘z Vatani, do‘satlari, xalqi oldida majburiyatini bajarishi inson tarbiyalanganligining ko‘rsatkichi; — Hayotda vaqtning qadriga yetish insonning va jamiyatning rivojlanishining asosiy shartidir; — Sabr qilish baxtsizlik yetishmovchilik kasallikkarni yengishga yordam beruvchi xislatdir. Muvaffaqiyatga erishish uchun doimo sabr talab qilinadi; — Insonni farishta darajasiga ko‘taruvchi - bu xislatdir, undan mahrum bo‘lgan kishida asl sevgi bo‘lishi mumkin emas. Ichkilikbozlik, faxsh, zino - buning hammasi irodasizlikdir. Bunday insonlar atrofdagilarga, o‘z xalqiga zarar keltiradi; — Chuqur fikr yuritish — insonning aqliy voyaga yetganlik alomatidir; “Kim o‘z o‘tmishini yo‘qotsa uning kelajagi yo‘qdir. Qariyalarning xikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni ham unutadi va shunda yovuzlik yaxshilik ustidan galaba qozonadi. Xulosa o‘rnida shuni ma’lim qilamizki ta’lim-tarbiya jarayonlarini qaysiki davrda va qaysiki jamiyatda o‘tmishi va ajdodlar merosiga alovida o‘z etiborini qaratmas ekan bu jamiyatda rivojlanish va kelajak uchun ishonch bo‘lmaydi. Ma’nnaviy-ma’rifiy tarbiya ishlari asosan rahbar, o‘qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirlarning mazmundorligini ta’minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lgan manbalarni ajrata bilishi kerak buning uchun u quyudagi ko‘rsatmalarga amal qilishi lozim: — o‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik

darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lishi; — tarbiyaviy tadbirlar uchun metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilishi; — ilg‘or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi; — yangi ilg‘or pedagogik texnologiyani joriy etishi; — tarbiyaviy tadbirlarni o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi; — tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o‘z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim. Yuqorida gilarni amalga oshirsagina har tamonlama barkamol sog‘lom fikrli xar jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalashlari mumkin.

2.Yoshlar tarbiyasida islom ta’limotining tarbiyaviy ahamiyati.

Shariatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Shuning uchun ham yoshlar tarbiyasini qachondan boshlash kerak degan savolga oila qurishdan oldin, ya’ni onasini (yoki otasini) tanlashdan avval deb javob beriladi. Ulamolarimiz ta’kidlab aytishadiki, farzand hali dunyoga kelmay turib, uning kimlar orqali dunyoga kelishi mumkinligiga e’tibor berishni aytishadi. Bo‘lg‘usi ona yoki ota tug‘ilajak farzand tarbiyasining zohiriy asoschilaridir. Chunki farzand tug‘ilganida uning tabiatli sof holda tug‘iladi va qaysi muhitda tarbiya ko‘rib, o‘sib ulg‘aysa, o‘sha muhittan ta’sirlanadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Har bir tug‘ilgan go‘dak Islom fitratida (ya’ni sof tabiatda) tug‘iladi. Ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi”, – deb marhamat qilganlar. Agar ota-onasi diyonatli bo‘lsa, farzandini ham diyonatlik qilib tarbiyalaydi. Ko‘p jihatdan farzandning tarbiyasida onalarning ta’siri katta bo‘ladi. Bo‘lajak ona ham o‘z farzandining bo‘lajak otasini tanlashi lozim. Bunda ham bo‘lg‘usi otaning dinu diyonati, axloq va odobiga qaraladi.

Kishi o‘z farzandlarini ularning go‘daklik chog‘laridan boshlab tarbiyalashi, odob berishi lozim. Ma’lum yoshga yetgach, ba’zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo‘ladi. Oila boshlig‘i oila a’zolarining ba’zi ayblarini kechirishi, ularni qo‘rkitib tarbiyalashdan ko‘ra kechirib yuborish yo‘li bilan tarbiyalashi kerak bo‘ladi. Alloh taolo ota-onalarga qarata xitob qilib: “Ey, imon keltirganlar! O‘zlarizingizni va oila a’zolaringizni yoqilg‘isi odamlar va toshlar bo‘lmish

do‘zaxdan saqlangiz” deydi. Binobarin, Ibn Umar roziyalohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: “Har biringiz mutasaddidir va har biringiz qo‘l ostidagilari uchun mas’uldir. Imom mutasaddidir va qo‘l ostidagilari uchun mas’uldir. Erkak o‘z oilasida mutasaddidir va qo‘l ostidagilari uchun mas’uldir. Ayol erining uyida mutasaddidir va qo‘l ostidagilari uchun mas’uldir. Xodim o‘z xojasining mol-mulkida mutasaddidir va qo‘l ostidagilari uchun mas’uldir”. Yuqoridagi oyat va hadisda, har bir shaxsning jamiyat oldidagi mas’uliyati, har bir erkakning o‘z ahli ayoli oldidagi mas’uliyati, har bir ayolning o‘z erining xonadonidagi mas’uliyati va barcha insonlarning boshqa kishilar oldidagi mas’uliyatini bayon qilib berdi. Go‘zal xulq insondagi barcha fazilatlarning eng oliv va afzalidir. Chunki odob va go‘zal axloq egasi bo‘lgan kishilardan doimo yaxshilik kutiladi. O‘ziga, oilasiga, jamiyatiga va butun atrof-muhitga undan faqat manfaat yetadi.

3.Diniy aqidaparastlikning zararli oqibatlari haqida.

Butun dunyoda diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Bu borada bizning mamlakatimizda xam diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish yuzasidan samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

2000 yil 15 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuning qabul qilinishi davlatimiz suvereniteti va xalqimiz farovonligi, yurtimiz taraqqiyotiga katta tahdid soluvchi terrorizmga qarshi kurash borasida katta qadam bo‘lgan.

Terrorizm (lotincha “qo‘rqtish”, “vahimaga solish”) – aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi. Bunday shaklda u xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan qo‘poruvchilik sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an’naviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo‘lgan g‘oyalarni aldov va zo‘rlik bilan targ‘ib

qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir.

Diniy-ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash va g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Diniy ekstremistik tashkilotlarning aksariyati o‘z nomini muqaddas islom dini bilan bog‘lashga urinadi. Ular o‘zlarini “najot topgan guruh”, qolgan musulmonlarni esa kofir deb hisoblaydilar.

“Islom” so‘zining lug‘aviy ma’nolaridan biri “tinchlik” bo‘lib, u hech qachon buzg‘unchilikka, qotillikka undamagan va undamaydi.

Zamonaviy terrorchilar esa buzg‘unchilik va qotillik, odamlarni dahshatga solishni o‘zlarining maslaklariga aylantirib olganlar. Qur’oni karimda begunoh odamlarning joniga qasd qilish qoralanadi. Jumladan, “Niso” surasining 93-oyatida bunday marhamat qilinadi: “Kimda-kim qasddan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannamda abadiy qolishdir. Yana unga Alloh g‘azab qilgay, la’natlagay va unga ulkan azobni tayyorlab qo‘ygay”. Hadislarda ham bu borada ko‘plab xabarlar kelgan. Jumladan, Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda bunday deyiladi: “Rasululloh (s.a.v.): “Alloh taoloning nazdida bir musulmon kishining nohaq qatl etilishidan ko‘ra, yorug‘ dunyoning barbod bo‘lib ketishi yengilroqdir”, dedilar”. Hozirda dunyoda ekstremistik va terrorchi tashkilotlar mavjud bo‘lib, afsuski, ularning muayyan qismi islom dini niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatorida “al-Qoida”, “Hizbut-tahrir al-islomiy” (Ozodlik islomiy partiyasi), “al-Jihod”, “at-Takfir val-hijra” (Takfir va xijrat), “Turkiston islom harakati”, “Islomiy jihod

ittihodi” (Islomiy jihod uyushmasi), “Katibatul Imam al-Buxari” (Imom Buxoriy batalboni), “Jamoat Ansorulloh” (Allohnning yordamchilari jamoasi), “Jabhatun-nusra” (G‘alaba fronti) va “Islom davlati” kabi tashkilotlarni sanash mumkin.

Oxirgi paytlarda dunyoning bazi mintaqalarini qamrab olgan terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq muammolar faol muhokama qilinmoqda. Dunyo davlatlarida diniy-ekstremistik, terroristik harakatlarga nisbatan olib borilayotgan kurashlar natijasida guruh a’zolari o‘z harakatlarini ochiq namoyon etishni ma’qul ko‘rmay, aksincha, xufyona targ‘ibot-tashviqot ishlari orqali, jumladan internet orqali o‘z g‘oyalarini tarqatish bilan faoliyatlarini yuritishga intilmoqda. G‘oyaviy jihatdan milliy manfaatlarga zid bo‘lgan diniy mazmundagi mahsulotlarni tarqatishga urinish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu kabi ekstremistik ruhdagi mahsulotlarni internet va boshqa yo‘llar orqali tarqatilishi aholi tomonidan dinning noto‘g‘ri talqin etilishiga, kam ma’lumotga ega o‘quvchilar ma’naviy ongingin buzilishiga, turli e’tiqod va qarashlarga ega bo‘lgan odamlar, xususan yoshlardan orasida adovat va xusumat uyg‘onishiga olib kelmoqda.

XX asr oxirlarigacha diniy-ekstremizm va aqidaparastlikni tarqatish va aholi orasida yoyishning asosiy qurollari bo‘lib turli adabiyot va nashrlar xizmat qilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiya vositalari rivojlangan hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, ayniqsa internet tarmog‘i diniy ekstremistik va aqidaparastlik g‘oyalarini tarqatishning eng optimal va qulay manbaiga aylandi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirda turli guruh va oqimlar tomonidan diniy ekstremizm va aqidaparastlikni targ‘ib qilishda, jamiyatda norozilik kayfiyatini tarqatishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilmoqda.

Internet tarmog‘ining chegara bilmasligi, sun’iy yo‘ldosh orqali efirga uzatiladigan fazoviy kanallarga to‘siq qo‘yishning iloji yo‘qligini hisobga oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda bu kabi buzg‘unchi g‘oyalardan aholini, xususan yoshlarni asrash uchun ularda bu kabi yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetni hosil qilish, internet va OAV orqali mazkur guruhlarga asosli raddiyalar berish, sof diniy ta’limotlarni yoshlarga yetkazish, ularni xalqparvarlik, vatanparvarlik, milliy va diniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega ekanligi

yaqqol namoyon bo‘ladi. Turli buzg‘unchi oqimlarning domiga ilinib qolmaslik uchun yoshlarimiz quyidagilarga e’tiborqaratishlari lozim:

- diniy-ekstremistik ruhdagi saytlarga kirmaslik;
- ijtimoiy tarmoqlar, turli forumlarda diniy mavzuda ilmoqli, nozik savollar berib suhbatga chorlayotgan shaxslar bilan muloqotdan tiyilish, dunyoviy jamiyatni tanqid qilib, mutaasibona diniy turmush tarzini da’vat qilayotgan shaxslar bilan umuman aloqa qilmaslik;
- elektron pochta orqali noma’lum shaxslardan kelgan diniy mazmundagi da’vat va tanishuv haqidagi takliflarga javob bermaslik, yuborilgan elektron materiallarni yuklab olmaslik;
- mobil telefonlarga bilib-bilmay mutassiblik ruhidagi nashidalar (qo’shiqlar), ma’ruzalar, suratlar, videoroliklar yuklab olmaslik va tarqatmasik.

Yurtimizda tinchlik, farovonlik va millatlararo o‘zaro totuvlik hukm surmoqda. Bu beba ho ne’matlarning qadriga yetish barchamizning burchimizdir. Bu tinchlik, taraqqiyot va farovonlik o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q, albatta. Bu avvalambor, hukumatimiz tomonidan vijdon erkinligi va diniy bag‘rikenglikni ta’minalashda olib borilayotgan oqilona siyosat natijasidir. Shunday ekan, diniy-ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda barchamiz o‘z mas’uliyatimizni his etishimiz, ogoh bo‘lishimiz, vatanimizning kelajagi uchun javobgar ekanimizni unutmasligimiz lozim.

13-mavzu: Hadislarning mazmun mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati.

Reja:

- 1.Xalq pedagogikasi manbaalarida hadislarning o‘rni.
2. Hadis ilmiyning paydo bo‘lishi.
- 3.Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Hadis, Ilm, hikmat, axloq, odob, iymon, e’tiqod, tolibi ilm, ilmu hikmat, hikmat, sabr-qanoatli, ehsonli, saxovatli, muruvvatlik.

1.Xalq pedagogikasi manbaalarida hadislarning o‘rni.

Hadislarning birida ilm o‘rganmoq uni tarqatmoq bilan barobar olib boriladi, deyiladi: “Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab yetkazsa, qiyomat kunida men uni shafoatimga loyiq kishilar safiga kirgizaman” (112-Hadis).

Tolibi ilmnинг xolis, kamtarin bo‘lishi o‘ta muhimdir. Bilganini ko‘z-ko‘z qilish, maqtanish gunohdir. Kishi bilganini e’tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Ayniqsa, diniy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ulamolar, maktab va madrasalarda tolibi ilmlarga saboq beruvchi ustoz-mudarrislar aytadigan gapini, qiladigan ishini, chiqaradigan fatvosini va beradigan bilimini o‘ylab berishi kerak. Hatto aytadigan maslahati ham holisona, beminnat bo‘lishi lozim. Hadislarning birida shunday deyiladi: “Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto‘g‘ri maslahat bersa, demak birodariga xiyonat qilgan bo‘ladi” (110-Hadis).

Ilm o‘zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir Ilm olimniki pesh qilish vositasi bo‘lmasligi zarur. “Kimki olimlarga maqtanish uchun, - deyiladi hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yoxud odamlarning dillarini o‘ziga moyil qilish uchun ilm olsa do‘zaxga boradi” (108-Hadis).

Ilmli kishilarni e’zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrixoh. Bir hadisda aytildi: “Ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham” (93-hadis).

Ilm olish hunar o‘rganish olajanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli noplak ishlardan asraydi: “Hattoki bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir” (536-hadis).

Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o‘rganib boshqalar yo‘lini yorug‘ qilishlari, ularga rahnomo bo‘lishlari joiz. “Ilm ikki xildir, biri qalbda bo‘ladi – uni ilmi nofe’ (foyndali) deyiladi, ikkinchisi tilda bo‘ladi – u odam bolasiga yuborgan Alloh taolonning xujjatidir” (95-hadis). Ilm foydali bo‘lishi uchun u odamlarga o‘rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo‘lishi, kishilarga

yaxshilikni o‘rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo‘lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi zarur.

“Odamlarga yaxshilikni o‘rgatib, o‘zini esidan chiqargan olim, kishilarga yorug‘lik berib, o‘zini quydiradigan shamchiroqqa o‘xshaydi” (106-hadis) yoki “Ilmni o‘rganib uni hech kimga aytmayotgan odam boylikni to‘plab uni hech (narsaga) sarf qilmayotgan baxilga o‘xshaydi” (106-hadis).

Ilmu xikmat o‘tkinchi emas, u abadiy. Shuning uchun mo‘min kishiga vafotidan keyin yetib turadigan savob narsa uning tarqatgan ilmdir.

Hadislarda ilmli kishi mevali daraxtga o‘xshatiladi. Lekin ilmli kishining aytadigan fikrlari boshqalarga xush kelishi, tushunarli bo‘lishi darkor. Muhammad payg‘ambar o‘z hadislarida va’z aytganda kishilarni zeriktirmaslik, aytilayotgan fikrni tushunarli bo‘lishini ta’kidlagan: “Osonlashtiringiz, qiyinlashtirmangiz! Xushxabar aytingiz, nafratlantirmangiz (o‘zingizdan bezdirmangiz)” (121-hadis).

Ilmni o‘rganish shaxsiy manfaat uchun bo‘lmasligi darkor. “Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis).

Ilm kishilarni odillik va insonparvarlikka undaydi. Ilmli kishilarni hadislarda unumdar tuproqqa o‘xshatiladiki, undan ungan o‘simgiklar, giyohlar insonlarni oziqlantiradi. Suv yerlarga hayot bag‘ishlaganidek, ilm ham kishilarga ezgulik, yaxshilik keltiradi: “Ilm ko‘p yoqqan yomg‘irga o‘xshaydir. Ba’zi yer sof unumdar bo‘lib, yomg‘irni o‘ziga singdiradirda, har xil o‘simgiklar va ko‘katlarni o‘stiradilar va ba’zi yer qurg‘oq, qattiq bo‘lib, suvni emmasdan o‘zida to‘playdir. Undan Alloh taolo bandalarini foydalantirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydir, hayvonlarni va ekinlarni sug‘orgaydirlar. Ba’zi yer esa tekis bo‘lib, suvni o‘zida tutib qolmaydir, ko‘katni ham ko‘kartirmaydir”, - deyiladi hadislarda.

Ilm, hikmat o‘rganmoq mo‘minning eng yuksak fazilatidir. Chunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziynat, mo‘min uchun ilm hayotining yo‘ldoshi

va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. “Ilm egallang!- deb xitob qilgan payg‘ambarimiz. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir”. Shuning uchun ilm olish yo‘lida har qanday riyozat bo‘lsa ham kishi undan qaytmasligi kerak. Ilm-hunar o‘rganish mashaqqatdir. Ammo inson o‘z irodasi, aql-zakovati bilan unga intilmog‘i lozim. “Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar”, deydi (126-hadis) Muhammad payg‘ambar.

Ilm – bu ma’rifat, fazilat. Ilm jamiyat musaffoligining belgisidir. Ilm- ma’rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa – jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, qotillik avj oladi.

Ilm, xikmat jamiyatdagi ma’naviyat manbai. Shuning uchun ilm o‘rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o‘rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o‘rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. Shu bilan birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo‘minlarning ma’naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o‘zidek ilm, xikmat ham umumbashariyat mulki bo‘lmog‘i lozim.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta’limning hozirgi ko‘p muammolari o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. “Har bir muslimonga ilmgaga intilish farzdir”. Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtai-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma’naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o‘zi ham xikmat, ham ilmdir.

Shunday qilib, Qur’oni Karim va Hadislarda insonni o‘qib-o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqealarning tub mazmun-mohiyatini anglab yetishga targ‘ib qilinadi.

2. Hadis ilmiyning paydo bo‘lishi.

Ma'lumki, VIII - IX asrlar Hadis ilmi uchun «oltin davr» hisoblanadi.

Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to‘plam (as-sahih as – sitta) ni yaratgan muhaddislar “ham vatandoshlarimiz bo‘lib, ilm – u fan rivojlangan IX asrda yashab ijod etganlar. Bular Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al - Buxoriy 194 (810) – 256 (870), Imom Muslim ibn al – Xajjoj 206 (819) – 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at –Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) – 275 (880), Imom Ahmad an – Nasoniy 215 (830) – 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) – 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko‘rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.
2. Imom Muslim an-Nishonpuriy (imom Muslim ibn al - Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.
3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan “Sunnai”.
4. Imom Abu Dovud Sulaymon – Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnai”.
5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-Kabir”.
6. Ahmad an – Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnai” kabi to‘plamlardir.
7. Imom al – Buxoriyning shoh-asari “Al-Jome’ as-sahih” (“Ishonchli to‘plam”) 4 jiddan iborat bo‘lib, unga 600 ming hadidan 7275 ta eng “sahih” hadislar kiritlgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytganda, islom ta’limoti mujassamlashgan Qur’oni Karimdagи “Biz odam bolalarini aziz-mukarram qildik... ularga halol-pok narsalardan rizqu – ro‘z berdik va ularni o‘zimiz yaratgan juda ko‘p jonzotlardan afzal-ustun qilib qo‘ydik”; “Ey mo‘minlar, sizlarga rizq qilib berganimiz-pokiza narsalardan yenglar”, “Bandalarimga aytingki, ular eng go‘zal so‘zlardan so‘zlashsinlar”, “Odamlarni aldab fitnaga solish o‘ldirishdan yomonroqdir”, “Alloh zulm qiluvchilarni sevmaydi”, “Parvardigoringiz... ota-onaga yaxshilik qilishlariningizni amr etdi...” kabi muhim g‘oyalar; shuningdek, Hadisi Sharifdagи

“Ilm egallang! Ilm-sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida – yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg‘uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda - quroldir”; “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir”; “Beshikdan to qabrga kirgunlaringizcha ilm izlangiz”, “Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir”; “Yolg‘on so‘zlama”, “o‘zinga ravo ko‘rganni boshqalarga ham ravo ko‘r”, “Englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofarchilikka o‘tmanglar”, “Ahmoqdan uzoqlashing”, “Nonni e’zozlanglar”; deb zikr etilgan hikmatlar komil insonni tarbiyalashda muhim manbadir.

Ta’kidlash joizki, Muso al-Xorazmiy, Imom Ismoil al – Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Shayx Najmiddinov Kubro, Sulaymon Boqirg‘oniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Davoniy, Voiz Koshifiy va ulardan keyin ijod qilgan boshqa mutafakkirlar islom ta’limotini, Qur’oni Karimni, payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, diniy va axloqiy yo‘l-yo‘riqlari, hikmatlaridan iborat manba-Hadisi Shariflarni yaxshi bilganlar, ularning ta’sirida ijod etib, kelgusi avlodlar uchun benazir meros qoldirganlar. Aslini olganda esa, mutafakkirlarimizning tabiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi, shuningdek, asarlarining mazmun – mohiyati va g‘oyasi ham Qur’oni Karim va Hadisi Sharif ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlarni o‘rganish va ulardagи ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan olib borilgan. Shunga ko‘ra, Qur’oni Karim va Hadisi Shariflardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga kuchli ta’sir etgan va islom ta’limoti allomalarimiz asarlarida ilmiy talqin etiladi. Bularda ilgari surilgan g‘oyalar yosh avlodning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishiga, pedagogik fikr taraqqiyoti tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, biz islom ta’limotida, ta’lim-tarbiya masalalarining tutgan o‘rnini tahlil etar ekanmiz, bu davr ma’naviy-ma’rifiy tafakkurining xarakterli

tomoni shundaki, ma’naviyat, ma’rifat, odob-axloq sohasidagi tasavvur, fikr, bilimlar islom diniy aqidalari va ta’limotlarini ham bilimning, ilmiy tasavvurning bir ko‘rinishi sifatida o‘z ichiga singdirib yubordi. Dunyoviy ilmlar va diniy ilohiy tasavvurlar bir butun holda qabul etilib, inson ilmiy tushunchalari asosida talqin etilib, ular jahonga mashhur qomusiy mutaffakkirlarimiz asarlarida keng o‘rin egalladi.

3.Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Hadislarning qimmatli, insoniy va axloqiyligi shundaki, ularda barcha masalalar holisona ifodalangan. Ularda ta’limning hozirgi ko‘p muammolari o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. “Har bir musulmonga ilmga intilish farzdir”. Bu fikr ta’limning umumiy majburiyligiga ishora emasmi? Bu fikrlar Ya.A. Kamenskiyning “Buyuk didaktika”si yozilmasdan bir necha asr avval aytilgan.

Umuman hadislardagi fikrlarning qimmatli tomoni yana shundaki, ular umumbashariydir. Ular biron bir ijtimoiy guruh manfaati nuqtai-nazaridan yozilmagan. Bundan tashqari ular insoniyat ma’naviyati, axloqi, madaniyati taraqqiyotining sarchashmalari, ular rivojining poydevorini tashkil qilganligi bilan ham ardoqlidir. Qolaversa, hadislarning o‘zi ham xikmat, ham ilmdir.

Shunday qilib, Qur’oni Karim va Hadislarda insonni o‘qib-o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyodagi voqeа-hodisalarning tub mazmun-mohiyatini anglab yetishga targ‘ib qilinadi.

Qur’oni Karim ba Hadislarda axloq va odob masalasiga alohida e’tibor berilgan. Ta’kidlanishicha, insonning jamiyatda tutgan o‘rni bilan chambarchas bog‘liq axloq-odob, ota-onasi va qarindosh-urug‘larga hurmat yetim-esir, qambag‘al-miskinlarga muruvvat va saxovatlilik, halollik, poklik, to‘g‘rilik, o‘z halol mehnati va kasb-hunari bilan yashash, oila va nikoh munosabatlari, o‘z bolalarini boqish, ta’lim va tarbiya berish, omonatiga xiyonat qilmaslik, adolatparvarlik, do‘stlik va birodarlik kabi yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir.

14-mavzu: “Xalq pedagogikasi”da milliy urf-odatlar, an’analar, udumlar, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni.

Reja

- 1.“Xalq pedagogikasi”da manbaalarida - milliy urf-odatlar.
- 2.Milliy urf-odatlar xalqona qadriyatlar sifatidagi o‘rni.
- 3.Milliy an’analar va udumlarlarning tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Milliy istiqlol, ma’naviy qadriyatlar, urf-odat, an’ana, marosim, axloqiy tarbiya.

1.“Xalq pedagogikasi”da manbaalarida - milliy urf-odatlar.

Ma’naviy qadriyatlar, urf-odat, an’ana, marosimlar va istiqlol istiqboli hamda mafkuraviy ong , yashash tarzi haqida, ya’ni avlodlar mushtarakligi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz , uni uch toifaga bo‘lish lozim :

Xo‘sish , ma’naviy qadriyatlarimiz xususida sharq mutafakkirlarimizning ilmiy , ma’rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi qanday? Qayd qilish lozimki o‘rtalasrlar uyg‘onish davri, bunyodkorlari bo‘lmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz . Bu borada Ibn Sinoning ma’naviy merosida qator muammolar tizimida axloq-odob masalalari e’tiborli salohiyatga egadir. Uning «Burch haqida risola» , «Axloq haqida risola» , «Insof haqida risola» kabi asarlarida axloq-odobning g‘oyat muxim qirralari bayon etilgan .

Mutafakkirlarning asarlarida, jumladan « Tadbiri manzil» risolasida ham inson tabiatini azaldan axloqli yoki axloqsiz bo‘lmaydi, degan g‘oya muhim ahamiyat kasb etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat , odat va hayotiy ko‘nikmalar bilan tug‘ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiyaning faol ta’siri ostida asta-sekin shakllana boradi. Ta’lim-tarbiya o‘zgalarning

ma’naviy ta’siri ostida inson o‘zida ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi yoki «yomon do’stlar» ya’ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi .

Jaxonda XII asrdan boshlab hanuzgacha algebra fani asoschisi sifatida Al-Xorazmiy nomi ulug‘lanadi . Hozirgi zamonda kosmik kemalar, havo transporti, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlar algoritmi qoidasi asosida ishlaydi.

Abu Nasr Farobiy inson aqliy va ijodiy faoliyatining takomillashuvida musiqiy ohanglarning fizikaviy xolatiga asos soldi.

Bunday yaratuvchanlik milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz sifatida ulug‘lanar ekan, ularni o‘rganish, o‘zlashtirish yosh avlodning muhim burchi bo‘lmog‘i kerak.

Xalq pedagogikasining barcha manbalarida tasvirlangan pedagogik fikrlarda, qahramonlar dunyoqarashlarida inson barcha hayotiy muammolarni, orzu- umidlarini faqat ilm-ma’rifatni eagallah, ezgu amallar, mehnat va yaratuvchilik, do’stlik va hamkorlik, go‘zal ma’naviy-axloqiy sifatlarni egallah yordamida amalga oshirish mumkinligi haqidagi g‘oya olg‘a suriladi. Shuning uchun bugungi davrda xalq pedagogikasi durdonalarini kengroq o‘rganish g‘oyat muhimdir. Milliy qadriyatlar, urf-odat, an’ana va marosimlar - tarbiyaning eng ta’sirchan quroli. Undan oqilona foydalanish, farzandlarimiz ongida vatanparvarlik, rostgo‘ylik, xalq-parvarlik tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kun talabi.

Axloq- avvalo, inson va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma’naviy – ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Milliy qadriyat quyidagi axloqiy tarbiya tushunchalaridan iborat :

- barkamol inson ota- onasi, farzandlari, qarindoshlari, butun oila a’zolari, qo‘ni - qo‘sishlari, mahalla- ko‘y, xamqishloqlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘uradi;

- tevarak atrofni o‘rab olgan insonlar unga kerak bo‘lganidek, u ham atrofdagilarga kerakli inson bo‘lishga intiladi;

- milliy qadriyatlarni e’zozlaydi va ularga sodiq bo‘lib qoladi;

- milliy qadriyatlar asosida odob-ahloq, fe'l-atvor, tarbiyani yoshlarning ongiga singdiriladi;

- ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy- madaniy merosni qadrlaydi;

- Vatanni sevib, himoya qiladi, yoshlarni xarbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi.²

Ma'naviy- axloqiy tarbiya, madaniyat to‘g‘risida so‘z borar ekan, VIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan qomusiy olimlar o‘z asarlarida inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishga, insoniyat ongini, madaniy-ma'rifiy qarashlarini o‘sirishga alohida e’tibor qaratganlariga amin bo‘lamiz, Ular o‘z asarlari bilan sharqona odob-axloq talablari asosida komil inson, adolatli jamiyat va davlatni shakllantirishning ma'naviy asosini yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

O‘zbekistondek ona zaminimiz jahonga ne-ne buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalarni yetishtirib bergen.

Ulug‘ bobokalonlarimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, abu nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Bahouddin Naqshband, Hoja Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, az Zamashshariy Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Abdulla Avloniy va boshqa alloma mutafakkirlarning shuningdek, jadichilarning ismlarini va ular tomonidan ta’lim – tarbiyaga oid asrlarini tilga olish kifoyadir.

Bu mavzuni kengroq yoritishda milliy qadriyatlarimizga uzviy bog‘liq bo‘lgan diniy qadriyatlarimizning roli haqida to‘xtalib o‘tmasdan ilojimiz yo‘qdir.

Diniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ajratib o‘rganish yoki tahlil qilish qiyin. Sababi, milliy qadriyatlar diniy qadriyatlar bilan qo‘silib ketib, mukammal umuminsoniy qadriyatga aylanadi.

2.Milliy urf-odatlar xalqona qadriyatlar sifatidagi o‘rni.

Millatning ravnaq topishida tarixan shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, an’ana marosimlarning ahamiyati beqiyosdir. Milliy qadriyatlar

² G.M.Ergasheva.Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy ximoyasining huquqiy mexanizmlarini takomil-lashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- T.: “Akademiya”, 2007. 211-212 betlar.

avvalo, har bir millatning iftixori, faxri shu bilan birga ma’naviy merosining poydevori hamdir.

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish, ularni yanada teranroq anglashimiz uchun keng yo‘l ochib berilgan.

Hamma davrlarda, barcha xalqlar uchun ta’lim-tarbiya eng dorlzarb masala sifatida qaralgan. Xar bir millatning tarbiya borasida o‘ziga xos ma’naviy merosi, tajribalari va yondashuvlari mavjud.

Koreya davlati ta’lim tizimida milliy tarbiyaga alohida e’tibor qaratiladi. tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma’naviyat tarixini o‘rganish mакtab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Xitoy ta’lim tizimining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoya dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV asrlarda yashagan) Kun Szi (Konfutsiy) qator ilg‘or pedagogik g‘oyalarni olg‘a surgan va xususiy o‘qitishga asos solgan.

Globallashuv jarayonining milliy ma’naviyat va ahloqiy qadriyatlardagi o‘ziga xosliklari yemirilishining oldiga to‘siq bo‘la oladigan omillarni yuzaga keltirsa va ulardan samarali foydalanish yo‘lida har bir millat harakat qilishga intilsagina integratsiyalashuv jarayonining tabiiy kechishi davom etish imkoniyatlari saqlanib qolishi mumkin. Aks holda globallashuvning milliy o‘ziga xosliklarini bir qolipga solishga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri avj olishi davom etadigan bo‘lsa kuchlarning kuchsizlar ustidan hukmronlik qilishi uchun shart-sharoitlar yuzaga kelishi xavfi kuchayib boradi. Yana ham aniqrog‘i Integratsiyalashuv jarayonining milliy, ma’naviy madaniyat, qadriyat va ilm-fan sohalarida millatlarning o‘zaro tabiiy ta’sir o‘tkazish va boyitishdagi imkoniyatlarining cheklanib borishi o‘z navbatida har bir millatning mustaqil sub’ekt sifatida mavjud bo‘lishiga tahdidning kuchayishiga olib keladi. Aslida globallashuv internatsionallashuv va integratsiyalashuv ta’sirida amalga oshsagina barcha sohalarda tenglik tabiiylik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillarining amal qilishiga zamin yaratiladi.

3.Milliy an'analar va udumlarlarning tarbiyaviy ahamiyati.

O'zbek xalqi barcha zamonlarda o'zining rang-barang va yuksak madaniyati, urf-odat va an'analar bilan ajralib turgan. Ma'lumki, milliy, urf-odat, an'analar va udumlar ming yillar davomida yaratilgan va xalqning turmush tarziga aylanib ketgan. Ular millatning hayot tomiri, mustahkam ildizlaridir.

Barcha davrlarda bosqinchi-mustamlakachilar xalqning ustidan hukmronlik qilish uchun ularni milliy urf-odatlari, an'analar, qadriyatları, tili, dini, umuman, milliy o'zligidan ayirishga harakat qilganlar. Bizning xalqimiz ham o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida mana shunday harakatlarni boshidan o'tkazdi. Birgina qadimgi yunon sarkardasi Aleksandr Makedonskiy yurtimizga bostirib kelgan vaqtida ajdodlarimizning ma'naviy boyligi bo'lgan "Avesto" kitobini yoqib, yo'q qilishi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Xalqimizni milliy an'ana va urf-odatlaridan mahrum qilish siyosati sho'rolar mustamlakachiligi davrida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Ular xalqimiz turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan udumlar, urf-odat va an'analar, turli bayramlari, marosimlari, hattoki, do'ppisi, sumalagi, beshagini cheklab qo'yish uchun turli bahonalarni o'ylab topdilar va ustalik bilan amalga oshirdilar.

"Hosil bayrami", "Xirmon bayrami", "Qovun sayli", gap-gashtaklar, ko'pkari, nikoh to'yi va boshqa udumlarimiz eskilik sarqitlari deb qoralandi. "Dorboz" kabi milliy xalq o'yinlarimizga e'tibor berilmadi. Milliy urf-odat, an'ana va udumlarimizga ayovsiz munosabatda bo'lish, ularni mensimaslik xalqimizga, madaniyatimizga hurmatsizlikning yorqin namunasi bo'ldi.

Bularning hammasiga mustaqillikka erishganimizdan so'ng chek qo'yildi. Milliy ma'naviyatimiz va madaniyatimizning tarkibiy qismi bo'lgan urf-odat, an'analarimiz bugungi kunda o'zini qaytadan namoyon etib, rivojlanmoqda. Xalqimizning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan va turmush tarzining tarkibiy qismiga aylanib ketgan milliy urf-odat, an'analarimizdan kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmondo'stlik, betob, ojiz, qiyngalganlarga yordam berish, hasharlarga borish, etimlarning haqini emaslik va boshqa insoniy fazilatlar rivojlanmoqda.

Urf-odat va an'analar har bir xalqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. O'z xalqining urf-odat va an'analarini bilish va hurmat qilish zarurdir. Chunki milliy urf-odat va an'analarga hurmat - o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Rivojlanishning muhim omillari - milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy o'zlikning tiklanishi va rivojlanishidir. Milliy g'urur, milliy o'zlikning tiklanishi va rivojlanishida urf-odat va an'analarni bilish va hurmat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'z xalqining urf-odat va an'analarini bilishi va hurmat qilishi shart. Ularni hurmat qilmaslik natijasida inson o'z millatidan ajralib qolishi mumkin.

Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo'lida. Yoshlarimizni har tomonlama etuk insonlar qilib shakllantirishda milliy urf-odat va an'analarning o'rni beqiyos. Har bir yosh avlodni, avvalambor oilada, so'ngra ta'lim-tarbiyaning keyingi bosqichlarida milliy urf-odat, an'analar ruhida tarbiyalash lozim. Ularda milliy urf-odat va an'analarimizga hurmat tuyg'usini shakllantirish barkamol insonni shakllantirishning muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston xalqi uchun umuminsoniy qadriyat, ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviyat va uning boyliklari ham g'oyat qimmatlidir. Bularga o'zbek xalqining o'zi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan-avlodga o'tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy-ma'naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan, an'ana va marosimlar, axloqiy pand-nasihatlar kiradi.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosida o'zbekona axloq-odobga oid ma'naviy fazilatlar haqida ko'plab qimmatli fikr, ma'lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida o'beklarga xos bo'lgan ko'plab ma'naviy-axloqiy sifatlarni tasvirlaydi. Bular iymon va e'tiqodli, andishali bo'lish, oilaga muhabbat, bolajonlik, xalollik, qarindosh-urug'lariga mehribonlik, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe'llik, shirinso'zlik, mardlik, odillik, hayolilik, saxylik, odamiylik, oq ko'ngillilik, mehnatsevarlik va boshqalardir.

Mintaqamizga sayohat qilgan xorij olimi German Vamberi «Buxoro yohud Movarounnahr tarixi» asarida Oltin O‘rdadagi o‘zbeklarning musulmoncha tarbiyalanganini, savdo-sotiqlida og‘ir vazminligi, oq ko‘ngillilik va samimiyligini, kamgapligi, sadoqatliligi, dovyurakligi, shinavandaligini, oilaviy munosabatlarda pokligini, mulohazaliligi, andisha bilan to‘g‘ri so‘zlashishini, ota-onaga hurmati va e’tiqodi kuchliligini, birinchi bo‘lib o‘tirmaslik va birinchi bo‘lib so‘z boshlamasligini, mug‘ombirlikni bilmasligini, dinga e’tiqodi kuchli ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatları o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, o‘rtoqlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoa ichida o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqliq, xushfe’lllik, mardlik, samimiylilik, karamllilik, oilaparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ota-oni va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insofilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliy jihatlar doim saqlanib qoladi. Xalqimizning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarning o‘ziga xos sharqona axloqiy fazilatları, ota-oni, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog‘liq, ma’naviyati faqat o‘tmish sadosi emas, balki hozirgi kun uchun ham xosdir.

Kattalarga, ota-onalarga hurmat, kamtarlik, xalollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo‘stlik singari milliy-ma’naviy fazilatlarimiz hamisha barqaror. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus bobida, oila, qarindosh-urug‘larga nisbatan munosabat bobida, sharqona, o‘zbekona fazilatlarni tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug‘lar hurmatini va kichiklar izzatini o‘z o‘rniga qo‘yish milliy ma’naviyatimizga kiradi.

Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog‘liq bo‘lgan tashabbus, kuch va g‘ayrat bo‘ladi. Keksalarda esa hayot yo‘lida ko‘p issiq-sovuq kunlarni boshdan kechirib, boy tajriba orttirganlari uchun uzoqni o‘ylab, bosiqlik bilan ish qilish, etti o‘lchab bir kesish singari ma’naviy boylik va etuk tafakkur salohiyati bor. O‘zbeklarning “Qari bilganni pari bilmas”, degan hikmatida ko‘p ma’no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g‘ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog‘langandagina ko‘zlangan ijobiy samaraga erishish mumkin. Keksa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlardan uchun ma’naviy kamolot va ibrat maktabidir.

15-mavzu: “Xalq pedagogikasi”da turli xalq va millat milliy urf-odatlari, an’analari, marosimlari xalqning madaniy merosi sifatida.

Reja:

- 1.Turli xalq va millat urf-odatlari, an’analari, udumlari – xalqona qadriyatlar.
- 2.Turli xalqlardagi an’analar bilan bog‘liq urf-odatlar.

Tayanch tushunchalar: xalq pedagogikasi, hikmatli so‘zlar, milliy tarbiya, ma’naviyat, qadriyatlar, urf-odat, an’ana, marosim, tarixiy meros, afsona, diniy tarbiya, mahalla, globallashuv, modernizatsiya.

1.Turli xalq va millat urf-odatlari, an’analari, udumlari – xalqona qadriyatlar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, milliy tabiatimizga xos bo‘lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizning ko‘p jihatdan ajratib turadigan bag‘rikenglik, mehmondo’stlik, oqko‘ngillilik xususiyatlari haqida uzoq gapirish mumkin. Hech birimizni xalqimizga xos ana shunday fazilatlar tark etishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham

doim qadimiy va navqiron bo‘lib turaveradi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g‘amho‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doimo saqlab qolaveradi.

Adolat, tenglik, ahil qo‘snnichilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do‘stlik, xalollik, vatanparvarlik singari fazilatlar umuminsoniy ma’naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi.

O‘zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g‘amho‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalminalchilik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgan.

O‘z taraqqiyoti uchun har bir millatning umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy, zaruriyatdir. Busiz zamonaviy ilg‘or millat haqida orzu qilish mumkin emas. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig‘idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko‘rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma’naviyat bo‘lmasa, umuminsoniy ma’naviyat bo‘lmaydi, umuminsoniy ma’naviyatsiz esa hozirgi zamon ilg‘or millati bo‘lmaydi. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma’naviyatning yaratuvchilaridir.

Umumjahon, umuminsoniy ma’naviyat hozirgi zamon ilg‘or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir. O‘zbekiston taraqqiyotida milliy va umuminsoniy ma’naviyatning ana shu dialektik bog‘liqligini hisobga olishimiz davr talabi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Milliy madaniyatning o‘ziga xosligini tiklashga alohida e’tibor berilishi kerak. Shu bilan birga milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi va jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatları, ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’alaridan ajralib qolish mumkin emas”, - deb ta’kidlagan edi. Mamlakatimizni rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish

borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma'naviyatimiz boyliklari bilan birga umuminsoniy ma'naviyat boyliklaridan foydalanish negizida ko'rmog'imiz lozim.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida ko'p millatli davlatlar uchun milliy siyosatni to'g'ri, aniq ko'zlangan maqsad asosida olib borish juda muhimdir. Butaraqqiyotning jadallahuviga yordam beradi. Millatlarning va ular madaniyatlarining bir-biriga ta'sir ko'rsatishi ko'p millatli davlatda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qilib kelgan.

Millatlar o'rtasida turli munosabatlarni uyg'unlashtirish mustaqil milliy davlatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masala ziyraklik va noziklik bilan yondashishni talab qiladi. Ko'p millatli davlatlarda milliy masalani barcha millat xalqlari manfaatlarini hisobga olmasdan hal qilishga urinish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqai nazardan qaraydigan bo'lsak, ko'p elatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O'zbekiston Respublikasi uchun ham millatlararo munosabat juda muhimdir. Bu hududda asosiy millat - o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyati, an'analarini va ma'naviyatiga ega bo'lган 135 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Ularning mamlakat aholisi umumiyligi tarkibidagi ulushi 20 foizdan ortiqni tashkil etadi. O'zining tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlashda qonunlarimiz asosiy omil bo'lmoqda.

Konstitustiyamizda "O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", deyiladi. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar saylov xuquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasining hamma fuqarolariga ijtimoiy kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqi va qaysi millatga mansubligidan qat'iy nazar teng saylov huquqini beradi.

O'zbekiston hududida yashaydigan fuqarolar huquqlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha

millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Bugungi kunda millatlararo ma'naviy va madaniy-ma'rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlanib kelmoqda. Hozirda O'zbekistonda yuzga yaqin milliy-madaniy markazlar mavjud. Koreys madaniy markazlari assostiastiyasi (1993y.), Qozoq madaniy markazi (1995y.). Kirg'iz madaniy markazi (1995 y.), Nemislar "Videgeburg" madaniy markazi (1994 y.), Rus madaniy markazi (1994 y.), Turklar "Axisxa" turk madaniy markazi (1994 y.) va boshqalar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda etnik guruhlari va millatlar o'rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o'zini erkin va teng huquqli his qilish imkonini beradigan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Asosiy maqsad yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'iy nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlashdan iborat.

2.Turli xalqlardagi an'analar bilan bog'liq urf-odatlar.

Kuzatishlar, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xalqlardagi an'analar, urf-odatlar tarixan rivojlanib, sayqallanib bugungi kunga yetib kelgan. Shuni aytish joizki ular xalqning yashash tarziga, kundalik xayotiga mos kelganligi uchun ham asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelgan. Odat va an'nalar xalq hayotiga, turmush tarziga ongli ravishda kirib keladi, lekin ularning ta'siri esa stixiyali bo'ladi. Shuning bilan birga ayrim urf-odat va an'analar o'z umrini o'tab bo'lgan bo'lsa ham, yashovchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun yana uzoq vaqt saqlanib, odamlar ongiga tasiri yetib turadi. Bu narsa insonlar psixologiyasi bilan bog'liq bo'lgan fenomen hisoblanadi. Chunki, mustahkamlanib qolgan urf-odat va an'analarga amal qilmaslik ko'pchilik tomonidan qoralanadi. Ko'pchilikning tanamalomatiga qolishdan qo'rqish va tortinish, jamiyatning har bir azosini urf-odatlarga ongli yoki ko'r-ko'rona bo'lsa ham amal qilishga majbur qilib qo'yadi. Urf-odat va an'analar ko'pincha sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham, bu

terminlar tushunchalar o‘rtasida faqat terminologik tafovut bo‘lib qolmasdan, yana ma’no jihatdan ham farq bordir.

Urf-odatlar asosan oilaviy, maishiy sohalar bilan bog‘langan bo‘ladi va unda

axloqiy, diniy va huquq normalari o‘z aksini topadi. An’analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo‘lish bilan birgalikda, yana ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. Ananada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo‘lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma’lumki, fanda, san’at va adabiyotda, armiya va oliy o‘quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo‘lmaydi, balki ananalar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilishi, oliy o‘quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilish tantanalari, yirik sport musobaqalarida g‘olib sportchi sha’niga mamlakat bayrog‘ining ko‘tarilishi va madhiyasini yangrashi - bular an’nalar hisoblanadi. Bundan tashqari an’ananing ta’sir doirasi nisbatan keng bo‘lib, bitta an’ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o‘zida qamrab olgan bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida xalqimizda mavjud bo‘lgan mehmondo‘stlikni olib qaraydigan bo‘lsak, ushbu fazilat u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo‘lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, o‘ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta’siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o‘zbek xalqida o‘ziga xos bir yo‘sinda namoyon bo‘ladiki, bu o‘zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an’anaga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo‘stlik an’anasi bir necha urf odatlar, udumlar orqali to‘la namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek oilalarida mehmonlar doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng yaxshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo “mehmon uchun”, deb saqlanadi) mehmon oldiga qo‘yiladi. Mehmon xonadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, “xush kelibsiz”, deb kutib olinadi va hurmatli zot sifatida eng yuqori joyga, dasturxonning to‘riga o‘tqaziladi. Qo‘ni-qo‘shnilar chaqirilib, mehmonga hamsuhbat va ulfat qilinadi. Ovqat ham birinchi bo‘lib, yoshidan qatiy nazar mehmonga tortiladi. Mehmon boshlamaguncha, oilaning birorta a’zosi birinchi bo‘lib taomga qo‘l urmaydi.

O‘tirishda birinchi so‘z ham mexmonga beriladi, uning so‘ziga diqqat bilan qulq solinadi. Unga e’tiroz bildirish, rayini qaytarish, katta ayb hisoblanadi. Mehmon oldida oila a’zolari bir-birlari bilan xush-muomalada bo‘lishlari, hatto “mushugini ham pisht”, demasligi kerak. Mehmon kuzatilayotganda, kutib olish chog‘idagidek ikki qo‘l ko‘ksida bo‘lib, “xush ko‘rdik”, “yana kelib turing”, deb hayr-ma’zur qilinadi. Kavkazdagi tog‘li xalqlarda xun olish bor. Agar xundor dushman uyi ostonasidan kirib kelsa, dushmanlik yo‘qoladi. Hamma uni aziz mehmondek kutib olishi shart. Qishloqdan, ovuldan chiqib ketgach, dushmanlik yana tiklanadi. Ularda ham mehmon daxlsiz. Ikki qo‘shni xalq - o‘zbeklar bilan qozoklarning to‘y o‘tkazish vaqtida bajaradigan turli udum va marosimlarini mashhur yozuvchimiz Oybek “Bolalik” qissasida juda mohirlik bilan tasvirlagan. Mana, qozoqlar to‘yida bo‘ladigan marosimlar qanday tasvirlangan. “Bir o‘tovda odamlar tiqilinch... Ayollar erlardan qochmaydi. Aralash-kuralash. Bir-birlarining yelkalarini qoqib, bemalol hazillashib so‘zlashishadi. Birdan qozoqlar tipirchilagan, osmonga sapchiydigan arg‘umoqlariga minib, uloqni boshlab yuborishdi. Uloqdan sho‘h qizlar, ayollar o‘tirgan ulovga bir to‘da yasangan yigitlar kirib keladi. Qizlar baland, qo‘ng‘iroq ovoz bilan, jonli imolar bilan, ko‘zlarini chiroyli o‘ynatib qo‘shiq aytadi. Kulgi, qiyqiriq o‘lan tinmaydi. Kuyov bilan kelin o‘lan aytishadi. Endi to‘y marosimi o‘zbeklarda boshqacha kechadi. Karomatning tuyi tasvirida erkaklar va ayollar deyarli qo‘shilishmay, marosimni alohida-alohida o‘tkazishadi. “Qiz oshi” kuni qizning uzoq-yaqindagi dugonalari va mahallaning qizlari to‘planishadi. Dutorga jo‘r bo‘lishib, ashula aytishadi. Atrofda erkaklar bo‘lmasa ham, iymanishib, “Sen tur, sen tur” deyishib birbirlarinio‘yinga tortishadi. To‘y kuni turli ko‘ngil ochuvchi o‘yinlar tashkil qilin adi, ayollar “yor-yor” aytishadi va hakozo. Mana shu badiiy tasvirdagi ikki xalqda mavjud bo‘lgan to‘y o‘tkazish jarayonidagi udum va marosimlar an’ana sifatida bir necha asrlar davomida avloddan-avlodga yetib kelgan. Urf-odat, an’ana, udum va marosimlar bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq va doimo bir-birini to‘ldirib, bir-biriga o‘tib turishi mumkin. Bazan ma’lum urf-odat an’ana ham sanalishi mumkin, deb ko‘rsatadi professor N.Sarsenbayev. Masalan, mehmonga borganda

“yuvosh o‘tir”, degan o‘zbek maqoli bor. O‘zbeklar orasida bu - odat boshqa millat vaqillari doirasida esa bu odat o‘zbek xalqining milliy an’anasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy mazmuni va ahamiyati ga qarab urf-odat va an’analar ilg‘or va qoloq bo‘ladi. Ilg‘or urf-odat va an’analar keng xalq omma manfaatlariga xizmat qiladi va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qoloq urf-odat va an’analar deb, umrini o‘tab bo‘lgan davr ruhiga mos kelmaydigan, ijtimoiy hayot taraqqiyotiga monelik qiladigan urf-odat va an’analarga aytildi. Shuning uchun ham urf-odat va an’analarni o‘rganishda, rioya qilishda, nihoyat darajada extiyotkorlik bilan yondoshish zarur bo‘ladiki, shoshma-shosharlik bilan ular to‘g‘risida xulosa qilish noroziliklarga tuzatib bo‘lmas xatolarga olib kelishi mumkin. Bizning asosiy vazifamiz va burchimiz ham ajdodlarimizdan yetib kelgan ko‘plab urf-odat, an’ana, udum va marosimlarni har tomonlama o‘rganish, asrlar sinoviga bardosh bergen va davr sinovidan o‘tgan, turmushimizga fayz kiritadigan, kishilarni yetuklikka chorlaydigan ilg‘or urf-odatlarimizni saqlab qolishimiz va ularni kegingi avlodlarga yetkazishimiz kerak.

TEST SAVOLLARI

O‘zbek xalq pedagogikasi deganda nimani tushunasiz?

- a) xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq kishilar qilib yetishtirishdagi g‘oyalari;
- b) ta’lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda qo‘llagan usul, vosita va tajribalar yig‘indisidan iboratdir.
- s) muyyan bir xalqqa mansub bo‘lgan xalq pedagogikasi mazmuni, xususiyatlari;
- d) xalq og‘zaki ijodi namunalaridir;

O‘zbek xalq pedagogikasi qanday shaklda mujassamlashgan?

- a) dostonlar, ertaklar, asotirlar, askiyalar;
- b) latifalar, qo‘shiqlar, naqllar, rivoyatlar;
- s) afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, topishmoqlar, tez aytimlar, o‘yinlar, erkalashlar va h.k.;
- d) a, b, s,

O‘zbek xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar

- a) insonparvarlik, saxovatlilik, poklik, to‘g‘ri so‘zlik;
- b) haqiqatgo‘ylik, rostgo‘ylik, tinchliksevarlik;
- s) baynalmilallik, vatanparvarlik, yaxshi qo‘schnichilik, yosh avlodni aqliy va mehnatsevarlik ruhida barkamol inson qilib tarbiyalashdir;
- d) a, b, s.

“Avesto” singari qaysi muqaddas kitoblar uzoq asrlar mobaynida ta’lim-tarbiya manbai bo‘lib xizmat qilgan?

- a) “Injil”, “Tavrot”;
- b) “Qur’oni Karim”;
- s) “Rigveda”, “Shastra”;
- d) a, b, s.

“Avesto” dagi “....ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal” qanday fazilatlarni shakllantirishda dasturilamal vazifasini o‘tagan?

- a) fikrlar sofligi;
- b) so‘zning sobitligi;

s) amallarning insoniyligi, xayrli ishlarni qilish;

d) a, b, s.

Sparta va Afina usulidagi ta’lim-tarbiya tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini nimadan iborat?

a) spartaliklar bolalarni 7 yoshgacha uyda tarbiyalar;

b) keyin “agella” deb ataluvchi tarbiya muassasiga topshirar, 18-20 yoshdan “efeblar” guruhiga o‘tkazilar;

s) afinaliklar bolalarni 7 yoshgacha uyda tarbiyalar, keyin 7 yoshdan 14 yoshgacha “grammatist” va “kifarist”, keyin esa “polestra” maktablarida o‘qitishadi, “gimnaziy” maktabida o‘qishni davom ettiradi;

d) a, b, s

“Tarbiya davlat tomonidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruahlarning ... manfaatlarini ko‘zlamog‘i lozim” degan nazariyani qaysi mutafakkir ilgari surgan edi?

a) Sokrat;

b) Demokrit;

s) Platon;

d) Arastu;

“Ulug‘ dao hamma yoqqa qarab oqadi... U tufayli jami mavjudot tug‘iladi, bu mavjudot hamisha o‘zgarishda bo‘lib bir joyda to‘xtab qolmaydi” degan ta’limot qaysi mutaffakkir tomonidan ilgari surilgan?

a) Lao-szi;

b) Kun Futszi;

s) Konfutsiy;

d) Kun Chjunni;

Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari berilgan qatorini toping.

a) Yurtga sodiqlik, insonparvarlik, mexnatsevarlik, xushhulqlik insonni komillik sari yetaklaydi;

b) Ta’lim-tarbiyada nazariy va amaliy masalalar muxim o‘rin tutadi

- s) Bola tug‘ilgandan to oyoqqa turguncha ma’lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim;
- d) Bilimdon bo‘lish tarbiya bilan chambarchas bog‘liq, shu bois bola tarbiyasiga ertaroq kirishmoq lozim.

«Inson bo‘lib dunyoga keldingmi, biror kasb egalla, hunar o‘rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek yashamaysan».

Yuqoridagi fikrlar kim tomonidan aytilgan?

- a) Abu Ali ibn Sino.
- b) Beruniy.
- c) Al-Xorazmiy
- d) A. Navoiy

Ta’lim-tarbiya mazmuni nima asosiga quriladi?

- a) Odob-axloq me’yorlari asosida.
- b) Muayyan tuzum yuritgan siyosat o‘z oldiga qo‘ygan vazifa va maqsadlar asosiga quriladi.
- c) Ko‘nikma, malakalarni shakllantirish asosiga.
- d) Tashqi muhit ta’siriga ko‘ra

Donishmand iborasi qanday kishilarga nisbatan qo‘llaniladi?

- a) Ko‘p narsa biladigan, bilimdon, olim, dono.
- b) Bu olam xaqidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar to‘plami.
- c) Bu mifologik negizda shakllangan va rivojlangan dunyoqarashdir
- d) Bola tarbiyasi shug‘ullanuvchi kishi

Milliy iftixor deganda nimani tushunasiz?

- a) Millatning (aloxida shaxsning) o‘zligini anglashi, millat ravnaqini ta’minalash yo‘lidagi hatti-harakat, o‘z millati istiqboli yo‘lidagi mas’ullilikni ongli ravishda xis etishi.
- b) Muayyan davlat yoki jamiyatning umumiylarini ifodalash.
- c) Shaxs ,davlat va jamiyat, uzuksiz ta’lim, fan, ishlab chikarish kabilar
- d) Muayyan davlat yoki jamiyat umumiylarini ifodalaydi

E’tiqod bu ..

a) shaxsning o‘z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan

b) Aqliy jarayonga tegishli xolat

s) Muayyan bir oqimga xos qonun-qoidalarga rioya qilish

d) Shaxsning kundalik extiyojiga aylangan intilish

Qadimgi Yunonistonda o‘qituvchilar ni ma deb atashgan?

a) Pedagog

b) O‘qituvchi

s) Ta’lim beruvchi

d) Muallim

Tarixda buyuk pedagoglar o‘zining pedagogik g‘oyalarini ilgari surishda qaysi jihatlarga e’tibor qaratganlar?

a) xalqning kelib chiqishiga;

b) xalqning mentalitetiga;

s) yoshlarning ta’lim-tarbiya, odobi va zehniga;

d) xalqning ta’lim va tarbiya sohasidagi bosh tajribalariga;

“Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan” - degan ta’rif kim tomonidan berilgan?

a) A. Avloniy; b) H. H. Niyoziy; s) Abu Ali ibn Sino; d) Beruniy;

Xalq pedagogikasi talaba yoshlarda qanday jihatlarni shakllantiradi?

a) fanlar bo‘yicha olingan bilim, malaka, ko‘nikmalarni umumlashtiradi;

b) pedagogik bilimlarni chuqurlashtiradi, yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda kasbiy maxoratni yuksaltiradi;

s) Xalq pedagogikasi va pedagogika fani bo‘yicha olingan bilimlarni jamlaydi;

d) mutafakkirlar o‘gitlaridan baxra olish, udumlar, urf-odatlarga sodiqlik, milliy odob-ahloq me’yorlariga rioya qilish jihatini tarbiyalash;

Xalq pedagogikasining asosiy manbalari...

a) o‘gitlar, pand-nasixatlar, odob-axloq mavzusidagi asarlar;

b) xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi, asrlar davomida to‘plagan boy tajribalari;

- s) allomalarning pedagogik g‘oyalari;
- d) o‘rganish ob’ekti shaxs bo‘lgan barcha fanlar.

Xalq pedagogikasi qay tarzda shakllanib, rivojlanib borgan?

- a) avloddan-avlodga o‘tib kelgan tajribalar asosida;
- b) pedagogika fani zamirida;
- s) xalqning boy va betakror odobnama va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalari asosida;
- d) mavjud shart-sharoit ta’sirida.

Insonni shakllantiruvchi odob-axloq haqidagi xalq qarashlari nimalarda ifoda etilgan?

- a) xalq og‘zaki ijodi xususan dotsonlarda ifoda etilgan;
- b) xalq pedagogikasi va pedagogika fanidan;
- s) mutafakkirlarning asarlarida;
- d) ertak, maqol, matal, hikmatlarda.

O‘zbek xalq ijodi bola tarbiyasiga qanday usul orqali singdiriladi?

- a) bevosita;
- b) to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita;
- s) yangi pedagogik texnologiya yordamida;
- d) o‘yin tarzida.

Insonni yuksakka eltuvchi, go‘zallikdan baxramand qiluvchi mezon – aql – idrok – degan hurmano fikr kimga tegishli?

- a) B. Naqshband;
- b) A. Assaviy;
- v) N. Kubro;
- g) Yu. X. Xojib;
- d) M. Qoshg‘ariy.

Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari berilgan qatorini toping.

- a) ta’lim-tarbiyada nazariy va amaliy masalalar muxim o‘rin tutadi;
- b) yurtga sodiqlik, insonparvarlik, mexnatsevarlik, xushhulqlik insonni komillik sari yetaklaydi;
- s) bola tug‘ilgandan to oyoqqa turguncha ma’lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim;
- d) inson tarbiyasining maxsuli uning xulqida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya mazmuni nima asosiga quriladi?

- a) muayyan tuzum yuritgan siyosat o‘z oldiga qo‘ygan vazifa va maqsadlar asosiga quriladi;
- b) odob-axloq me’yorlari asosida;
- s) ko‘nikma, malakalarni shakllantirish asosiga;
- d) umumxalq me’yorlariga asosan.

Aqliy tarbiya nima?

- a) yoshlarni odob-axloq ko‘nikmalari bilan qurollantirish;
- b) fikrlash, xis qilish, tasavvur, xayol va xotira qobiliyatlarini o‘tsirish, bola ichki dunyosini ma’naviy jihatdan boyitish;
- s) mehnat qobiliyatini o‘tsirish, bilim olishga qiziqtirish;
- d) bilimdon yoshlarni tarbiyalash, kasbiy mahoratini shakllantirish.

Xalq pedagogikasi orqali yoshlarda qaysi jihatlar tarbiyalanadi?

- a) xalqning milliy, tarixiy turmush va tafakkur tarzi, xalq an’analari va urf-odatlariga sodiqlik xissi;
- b) xalqning qadimiy turmush tarzi tajribalariga sodiqlik;
- s) milliy urf-odatlarga sodiqlik;
- d) milliy g‘urur, milliy iftixon.

Xalq pedagogikasi xalqni maqsadli yo‘nalishga safarbar qilishda nimaga tayanadi?

- a) allomalar o‘gitlariga;
- b) hadis ilmiga;
- s) xalq og‘zaki ijodiga;
- d) ijtimoiy masalalarga.

O‘zbek xalq pedagogikasida yoshlarni jismoniy jihatdan necha yo‘nalishda tarbiyalangan?

- a) 6 yo‘nalishda; b) 2 yo‘nalishda; s) 4 yo‘nalishda; d) yo‘nalishlar mavjud bo‘lmagan.

“Inson bo‘lib dunyoga keldingmi, biror kasb egalla, hunar o‘rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek yashamaysan”. Yuqoridagi fikrlar kim tomonidan aytilgan?

- a) Abu Ali ibn Sino; b) A. Navoiy; S) H. H. Niyoziy; d) Al Xorazmiy.

Sa’diy ta’limoti to‘g‘ri yozilgan qatorni toping.

- a) o‘z mehnatidan non yegan kishi;
b) Hotamtoy himmatidan ozod qilish;
s) qo‘ling mehnatda, qalbing ilm olish va ezgu ishlarda bo‘lsin;
d) bilimli hor bo‘lmas.

Xalq pedagogikasi yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda q o‘llaniladigan muxim usul qaysi?

- a) tushuntirish, rag‘batlantirish, suhbat orqali;
b) ishontirish, o‘git, nasixat, namuna ko‘rsatish;
s) ibrat ko‘rsatish, ko‘rgazma va tanbeh orqali;
d) nasixat qilish, ibrat ko‘rsatish, rag‘bat.

Xalq pedagogikasi orqali nimalar o‘rganiladi?

- a) nozik tuyg‘ular orqali eng go‘zallikni anglashni o‘rgatadi;
b) yuksak fazilat egasi bo‘lib yetishish usullarini o‘rgatadi;
s) milliy me’rosimizga aylangan nafis san’at asarlari, mumtoz kuy-qo‘schiqlarning ta’lim-tarbiyada tutgan o‘rnini o‘rganadi;
d) yoshlarni mutsaqil, erkin firklashga o‘rgatadi.

Bolaning ota-onva kattalarga bo‘lgan mehribonliklarini qanday tushunasiz?

- a) tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma’naviy fazilatdir;
b) tug‘ma hodisalar;
s) zaruriyat;
d) ta’lim-tarbiya natijasi.

Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan tarbiya usullari ko‘rsatilgan qator qaysi?

- a) o‘git, nasihat, maslaxat, namuna ko‘rsatish, erkalash, tanbeh berish; nasihat qilish, maslaxat ko‘rsatish, rag‘bat;
b) ibrat ko‘rsatish, raxbatlantirish, uyaltirish, jazo

- s) rag‘bat, jazo, namuna ko‘rsatish;
- d) o‘git, nasihat, maslaxat, namuna ko‘rsatish, erkalash, tanbeh berish.

O‘zbek xalq pedagogikasida qoralash metodiga berilgan ta’rif qaysi?

- a) o‘ziga nisbatan kuchli bo‘lgan ikkinchi tomondan kuchini ko‘magidan madad tilash;
- b) turli shaklda uyaltirish, koyish, urishish, so‘kish, oq qilish va jismoniy jazo berish;
- s) bolalarga odob-axloq me’yorlariga rioya qilmaganlarida qo‘llaniladigan jazo usuli;
- d) keraksiz bo‘lgan jazo usuli.

O‘zbek xalq pedagogikasining metodologik asoslari bu...?

- a) O‘zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotining moziygacha borib yetgan tarixiy ildizlari.
- b) Alla, laparlar, ertak, dostonlar;
- s) xalq og‘zaki ijodi;
- d) Pedagogika fanining kelib chikishi va uning rivojiga xissa kushgan olimlar ijodi.

Xalq pedagogikasining tarbiyaning oiladagi o‘rni?

- a) Oilada ota-onaning o‘rni, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o‘rgatish kabi masalalarni urganadi;
- b) Oilaga oid Qonunlarni o‘rganadi;
- s) Oilada uchraydigan muammolarni o‘rganadi;
- d) Oilani mehnat jamoasi va maxalla-ko‘y doirasida rivojlantirish.

Komillik so‘ziga ta’rif bering ?

- a) mexr-muxabbat,adolat,to‘g‘rilik,vijdon,or-nomus,iroda,tadbirkorlik,matonat kabi asl insoniy fazilatlarning majmuidir;
- b) Insonning aqliy kamoloti bosqichlariga muntazam ravishda erishuvchi jarayondir;
- s) Ma’naviy va jismoniy go‘zallik;
- d) Yetuklik va bekamu-ko‘stlik.

Axloq bu..

- a) jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon;
- b) kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- s) arabcha "xulqning ko'pligi";
- d) shaxsni ijtimoiylashishi.

Donishmand iborasi qanday kishilarga nisbatan qo'llaniladi?

- a) ko'p narsa biladigan, bilimdon, olim, dono;
- b) bu olam xaqidagi yaxlit umumlashtirilgan bilimlar to'plami;
- s) bu mifologik negizda shakllangan va rivojlangan dunyoqarashdir ;
- d) bola tarbiyasi shug'ullanuvchi kishi.

O'zbekistonda pedagogik tafakkur va ta'lim tarbiya taraqqiyoti tarixini asosan necha davrga bo'lib o'rghanish mumkin?

- a) 3 davrga; b) 4 davrga; s) 2 davrga; d) 5 davrga.

Ta'lim-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim kim?

- a) Aristotel;
- b) Abu Nasr Forobiy;
- s) Ulugbek ;
- d) Ibn Sino.

Tarbiya jarayonining mohiyati nimadan iborat?

- a) Ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchilar bilan aniq maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqoti;
- b) Shaxsiy xislatlarni rivojlantirish, kamol toptirish;
- s) Pedagoglar va o'quvchilar, talabalar o'rtasida ma'naviyat va ma'rifat bo'limlarining topshiriqlarini bajarish bo'yicha o'tkazadigan;
- d) Tajribalarni uzlusiz ravishda yoshlarga ilg'or vositalar yordamida berish.

O'zbek xalq pedagogikasida yoshlarni jismoniy jihatdan necha yo'nalishda tarbiyalangan?

- a) 6 yo'nalishda; b) 2 yo'nalishda; s) 4 yo'nalishda; d) yo'nalishlar mavjud bo'lмаган.

Xalq pedagogikasi yoshlarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda q'llaniladigan muxim usul qaysi?

- a) tushuntirish, rag'batlantirish, suhbat orqali;
- b) ishontirish, o'git, nasixat, namuna ko'rsatish;
- s) ibrat ko'rsatish, ko'rgazma va tanbeh orqali;
- d) nasixat qilish, ibrat ko'rsatish, rag'bat.

Nafosat tarbiyasi bolada qaysi jihatlarni shakllantiradi?

- a) insonlar bilan muloqotda odob-axloq me'yorlariga rioya qilishni;
- b) chiroyli muomala va kamtarlik;
- s) insoniylikning barcha fazilatlarini;
- d) etsetik zavq-shavq olish va uni anglab yetish.

Bolaning ota-onha va kattalarga bo'lgan mehribonliklarini qanday tushunasiz?

- a) tarbiya natijasidagina shakllantirilgan ma'naviy fazilatdir;
- b) tug'ma hodisalar;
- s) zaruriyat;
- d) ta'lim-tarbiya natijasi.

O'zbek xalq pedagogikasida qoralash metodiga berilgan ta'rif qaysi?

- a) o'ziga nisbatan kuchli bo'lgan ikkinchi tomondan kuchini ko'magidan madad tilash;
- b) turli shaklda uyaltirish, koyish, urishish, so'kish, oq qilish va jismoniy jazo berish;
- s) bolalarga odob-axloq me'yorlariga rioya qilmaganlarida qo'llaniladigan jazo usuli;
- d) keraksiz bo'lgan jazo usuli.

Xalq pedagogikasining asosiy manbalari...

- a) o'gitlar, pand-nasixatlar, odob-axloq mavzusidagi asarlar;
- b) xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi, asrlar davomida to'plagan boy tajribalari;
- s) allomalarning pedagogik g'oyalari;

d) o‘rganish ob’ekti shaxs bo‘lgan barcha fanlar.

Xalq pedagogikasi qay tarzda shakllanib, rivojlanib borgan?

a) avloddan-avlodga o‘tib kelgan tajribalar asosida;

b) pedagogika fani zamirida;

s) xalqning boy va betakror odobnoma va odatnomasi, pandnomalar, folklor ijodi namunalari asosida;

d) mavjud shart-sharoit ta’sirida.

Insonni shakllantiruvchi odob-axloq haqidagi xalq qarashlari nimalarda ifoda etilgan?

a) xalq og‘zaki ijodi xususan dotsonlarda ifoda etilgan;

b) xalq pedagogikasi va pedagogika fanidan;

s) mutafakkirlarning asarlarida;

d) ertak, maqol, matal, hikmatlarda.

Maqollarga ta’rif qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

a) odob-axloq qoidalarini o‘z ichiga olgan, hayot tajribasidan o‘tgan eng kichik jarayondir;

b) mehnat, do‘tslik, insoniylik kabi fazilatlarga ta’rif beruvchi xalq og‘zaki ijodining bir turi;

s) ibratli pand-nasihatlar to‘plami;

d) xalq og‘zaki ijodi namunasi.

Ertak va dotsonlarni tarbiya uchun muhim tomoni nimada?

a) bola dunyoqarashini rivojlantiradi;

b) unda topishmoq, maqol, qo‘shiqlar kabi janrlar ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi;

s) bolaga sodda til va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirish orqali tarbiyada muximdir;

d) bola tomonidan ertaklar oson o‘zlashtirilishi jihatni bilan muximdir.

Xalq og‘zaki ijodi bu...

a) Xalq ommasining badiiy faoliyati.

b) Ertak va afsonalar.

s) Badiiy adabiyot.

d) Qadimgi yozma manbalar

Mavlono so‘zining ma’nosi kanday?

- a) Bizning janob
- b) Xurmat ma’nosidagi so‘z.
- c) Olim va fozil kishilar.
- d) Amaldor shaxslar

“Xar bir millatning dunyoga ko‘rsatadigan oynai xayoti- tili va adabiyotidir” bu fikr kimga tegishli?

- a) A.Avloniy.
- b) A.Navoiy.
- c) A.Cho‘lpon.
- d) X.X.Niyoziy.

O‘rta Osiyo xalqlari orasida tarqalgan harbiy–jismoniy tarbiyaning mazmuni?

- a) kurash tushish, ot chopish, tirondozlik, qilichbozlik, kamon bilan o‘q otish, miltiq otish, nayza sanchish, suvda suzish, gurzi urish kabilar.
- b) kurash tushish, ot chopish, qilichbozlik.
- c) kurash tushish qilichbozlik, kamon bilan, o‘q otish
- d) kurash tushish, ot chopish.

Ertak va dotsonlarni tarbiya uchun muhim tomoni nimada?

- a) bola dunyoqarashini rivojlantiradi;
- b) unda topishmoq, maqol, qo‘shiqlar kabi janrlar ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi;
- c) bolaga sodda til va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushuntirish orqali tarbiyada muximdir;
- d) bola tomonidan ertaklar oson o‘zlashtirilishi jihatni bilan muximdir.

Quyidagi ma’lumotlar kaysi asarda keltirilgan: “Kadimgi saklar, forslar va massagetlar insondagi sifatlarning eng sharaflisi jasurlikdir, deb xisoblaydilar”.

- a) Gerodot “Tarix” kitobida.
- b). Ya.A.Kamenskiyning “Buyuk Didaktika” asarida.

s) Ali Qushchining tarixga oid asalarida.

d) "Avesto" kitobida.

Xalq pedagogikasida qanday tarbiya vositalaridan foydalanilgan?

a) Bolalar o'yinlari, choyxo'rlik, gap yeyish, kattalar bilan birgalikda to'y-marosimlarida ishtiroki, sayillar, safar sayohatlar.

b). Tushuntirish, namuna ko'rsatish, rag'bat va jazo.

s) Ogohlantirish, tanbex berish, jazolash.

d) Ibrat ko'rsatish, na'muna ko'rsatish, rag'batlantirish, jazolash.

O'zbek xalq ijodi bola tarbiyasiga qanday usul orqali singdiriladi?

a) bevosita;

b) to'g'ridan-to'g'ri, bevosita;

s) yangi pedagogik texnologiya yordamida;

d) o'yin tarzida.

Xalq pedagogikasidagi tarbiya vositalari...

a) bolalar o'yinlari, choyxo'rlik, gap yeyish, kattalar bilan birgalikda to'y-marosimlarida ishtiroki, sayillar, safar sayohatlarga borish va hokazolar.

b) Intellektual uyinlar.

s) Didaktik uyinlar.

d) Ertak va topishmoqlar.

Bola tabiyada qanday sharoitda tajriba orttirib boradi?

a) Bola oilada, maktabda, ota-onalar bilan munosabatda, jamoat joylarida, katta yoshdagilar, o'rtoqlari bilan muloqotda tajriba orttirib boradi.

b) Maktabda va ko'cha- ko'yda.

s) Faqatgina oilada.

d) Ota-onsa va o'qituvchilar bilan muloqotda.

Hikoyat nima?

a) sharq va janubi-sharqi Osiyo xalqlaridagi adabiy termin..

b) Ertakka qiyoslangan badiiy asr.

s) 2-3 ta kitobdan iborat bo'lgan asar.

d) Og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan janr.

“Mifologik” tushunchasining lugaviy ma’nosi

- a) (yunoncha-mifos naql, rivoyat, logos- tushuncha, ta’limot).
- b) Naql va afsonalar to‘plami.
- s) Naql va afsonalar gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shakli
- d) Ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlangich davri.

Alla bu...

- a) Allalar – beshik qo‘shiqlarining keng tarqalgan an’anaviy janri hisoblanadi.
- b) Xalq orasida keng tarqalgan lirik janr.
- s) Onalar qo‘srig‘i.
- d) Folklor qo‘srig‘i.

Milliy iftixor deganda nimani tushunasiz?

- a) millatning (aloxida shaxsning) o‘zligini anglashi, millat ravnaqini ta’minalash yo‘lidagi hatti-harakat, o‘z millati istiqboli yo‘lidagi mas’ullikni ongli ravishda xis etishi.
- b) Muayyan davlat yoki jamiyatning umumiy mafkurasini ifodalash.
- s) Shaxs ,davlat va jamiyat, uzlucksiz ta’lim, fan, ishlab chikarish kabilar.
- d) Muayyan davlat yoki jamiyat umumiy mafkurasini ifodalaydi.

Mentalitet nima?

- a) (lot.mentalism-aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘iga xos tarixiy an’anlari, urf-odatlari, diniy e’tiqodi.
- b) Oilani mehnat jamoasi, mahalla-ko‘y doirasida rivojlantirish.
- s) Vatanga sadoqatli yoshlarni tarbiyalash.
- d) Xar bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari.

Afsona bu...

- a) hayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan xaqiqatdek tasavvur etiladi, og‘izdan og‘izga o‘tib keladi.
- b) Adabiy asarda aks ettirilgan xodisa, tuygu, personaj, xatti-xarakat, va taqdirdan kelib chiqadigan fikrdir.

- s) Adabiy asarda badiiy g‘oyaning extiros bilan g‘oyat ta’sirchan, xayrat va larzaga solar darajada ifoda etish.
- d) Xar bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari ifodasi.

GLOSSARIYLAR

Afsona – arabcha so‘z bo‘lib, sarguzasht, sehr-jodu va uydirmaga asoslangan hikoya ma’nosini anglatadi. Afsonada xalq orzusidagi qahramonlar vositasida dushmanlarni, tabiat stixiyalarini daf etishga mifologik obrazlar yordamida erishiladi. Ular o‘quvchini ushbu qahramonlarga o‘xshashga, ularga xos tarbiyaviy sifatlarni egallashga undaydi. Afsona xalq og‘zaki ijodi janri. U hayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lsa-da, so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan xaqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo‘lib o‘tgan davri, makoni ham ko‘rsatiladi. Afsonalar og‘izdan-og‘izga, eldan-elga o‘tib kelgan.

Allalar – beshik qo‘shiqlarining keng tarqalgan an’anaviy janri hisoblanadi. Jahonda biror xalq, elat yoki millat yo‘qli, ularning tilida alla kuylanmasa, ruslarda “bayki” yoki “bayushki” deb yuritiluvchi bunday qo‘shiqlar turkmanlarda “huvdilar”, ozarbayjonlarda “lay-lay”, tatarlarda “alli-balli”, qoraqalpoqlarda “heyya-heyya”, turklarda “ninni”, forslarda “lolo”, nemislarda “wiegelied”, , o‘zbek va tojiklarda “alla” va “allo” atamalari bilan mashhurdir. Binobarin, alla jahon onalarining mehrga yo‘g‘rilgan g‘amgin, eng muqaddas qo‘shig‘idir.

Askiya – arabcha “zakiy” so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘zamol”, “o‘tkir”, “zehnli” degan ma’nolarni anglatadi. Askiya – so‘z o‘yini yoki hozirjavoblar musobaqasidir. Askiyaning payrov turida “Bo‘lasizmi”, “O‘xshatdim”, “Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz” kabi turlari mavjud. Ularda kishilarning salbiy xislatlari achchiq kulgi vositasida tanqid (masxara) qilinadi. Askiya ko‘pincha to‘y, sayil, marosimlarda uyushtiriladi. Askiya Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan bo‘lib, u kishiga estetik zavq berish bilan birga did-farosat, aql-zakovat, sezgirlik, topqirlik, hozirjavoblik sifatlarini tarbiyalaydi. Insonni izza qilish vositasida o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma’qullangan jarayondir. Axloq avvalo, inson vaadolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Insonning insonligi, ma’naviy – ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi milliy qadriyatlarning qadriga yetishi bilan belgilanadi.

Donishmand – ko‘p narsa biladigan, bilimdon, olim, dono.

Doston – qissa, hikoya, ta’rif, sarguzasht ma’nolarini anglatadi. U keng tarqalgan etnopedagogik janr bo‘lib, xalqning ma’naviy-maishiy qiyofasi, kurashi, axloqiy-estetik qarashlari,adolat, ozodlik, tinchlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do’stlik kabi tarbiyaviy sifatlarni targ‘ib etadi. Dostonlarda komil shaxs tarbiyaviy sifatlari umumlashgan holda beriladi. Oliy insoniy sifatlar bo‘rttiriladi. Shuning uchun tinglovchida doston qahramonlaridan o‘rnak olish hissi tug‘iladi. Dostonlarni baxshilar kuylashadi. “Baxshi” mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod” , “ma’rifatchi” degan ma’nolarni anglatadi.

E’tiqod – bu shaxsning o‘z qarashlari, tamoyillari va dunyoqarashiga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimi.

Ertak – qadimgi turkcha “Etuk” (M. Qoshg‘ariy) so‘zidan olingan bo‘lib, biror voqeani og‘zaki so‘zlash ma’nosini anglatadi.

Hadis – (arabcha xabar, yaagilik) – Muhammad Payg‘ambar (s.a.v)ning aytgan so‘zlari, fe’l atvorlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar.

Hikmatlar -xalqning yuksak irodali, aql-zakovati donoligining ifodasini aks ettiruvchi so‘zlar.

Ko‘pvariantlilik - ma’lum bir etnopedagogik asarning yonma-yon yashay oladigan, bir-birini mantiqan inkor qilmaydigan, ammo o‘zaro farqlanuvchi nusxalarida o‘z ifodasini topadigan xususiyatdir. Masalan, “Alpomish” dostonining xalq orasida 30 dan ortiq variantlari yashab kelmoqda.

Komil inson – bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, fayzu karomatda tengi yo‘q, siyratu surati go‘zal, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmolim pokiza zot.

Ma’naviyat – bu shaxsning egallagan foydali bilimlari (bilim turidan qat’iy nazar) uning hayotida bir necha bor takrorlanishi natijasida ko‘nikma va malaka bosqichlaridan o‘tib, ruhiga singib, uning hayot tarziga aylanib ketgan ijobjiy ijtimoiy sifatlaridir.

Maqol-atamasi arabcha “kavlun” – gapirmoq, aytmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, ommanning muayyan voqeа-hodisalar, voqelik haqidagi lo‘nda xulosasi.

Mif -grekcha “myfhos”-so‘z, rivoyat so‘zidan olingan bo‘lib, dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalari, xudolar, afsonaviy pahlavonlar; goh inson, goh jonzod qiyofasidagi zulmkor dushmanlar haqidagi to‘qima afsonalardir.

Mifologik - (yunoncha-mifos naql, rivoyat, logos- tushuncha, ta’limot) dunyoqarash – ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang‘ich davriga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Mifologiya - miflarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, u ibtidoiy insonning tabiat sirlarini bilishga intilishi tufayli vujudga kelgan.

Milliy an’ana- millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish ko‘rinishi.

Milliy an’analar – millat hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan-avlodga o‘tish hamda meros bo‘lib qolish ko‘rinishi. Milliy an’analar umuminsoniy an’analarning bir millat darajasida namoyon bo‘lishidir. Ular orqali har bir millat bir davrdagi o‘ziga xos xususiyat, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti hamda boshqa sohalardagi erishilgan natijalar va yutuqlarni boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkazadi.

Milliy g‘urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘zligini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlar qoldirgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shtigan xissasi, o‘zga millatlar oldida qadr-qimmati, obro‘-e’tiborini, faxrlanish xissini ifodalovchi tushuncha.

Milliy pedagogika - ya’ni o‘zbek pedagogikasi juda qadimgi tarixga ega bo‘lib, o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiya borasidagi boy tajribalari, ulkan pedagogik merosiga tayanadi. Milliy pedagogikada ta’lim-tarbiya jarayoni orqali barkamol

shaxs tarbiyasi amalga oshiriladi va pedagogika fani asosida tarkib toptiriladi.

Milliy qadriyatlar – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

Milliy urf-odat- tarixiy-ijtimoiy kategoriya bo'lib, ular muayyan millatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida avloddan avlodga o'tib kelgan ishlab chiqarish, tirikchilik, xulq-atvor va boshqalarda o'ziga xoslikka ega bo'lib, rasm-rusumga aylangan munosabatlardir. Urf-odatlar asrlar davomida yashab, kishilarning axloqiy normalariga aylangan holda, ularning qon-qoniga, xatti-harakatiga, kundalik turmushi shakllariga singib ketadi.

Moddiy qadriyatlar – bu insonning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrli bo'lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlar, kishi faoliyati jarayonini amalga oshiradigan buyumlar.

Movarounnahr - (arab.-dunyoning nariga tomoni) – o'rta asrlarda islom mamlakatlarida keng tarqalgan geografik atama. Hozirgi zamon tarixiy-geografik ilmiy adabiyotida Movarounnahr deganda, asosan Turkmanistondan tashqari O'rta Osiyo xududlari, O'zbekiston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismi tushuniladi.

Naql – axloqiy-didaktik vazifani bajaruvchi, axloqiy sifatlar, fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan etnopedagogik janrdir. Masalan: "Ko'rpannga qarab oyoq uzat", "Har kim qilsa o'ziga", "Odam-odam bilan tirik", "Qaqillashi biznikida, tuxum qilishi qo'shninikida" kabi.

O'yin - inson faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. Murakkab va qiziqarli hodisa sifatida u turli kasbdagi kishilar diqqatini jalb etadi. O'yin - inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir.

O'zbek millatini o'z-o'zini anglashi – xalq haqiqiy mavjud sub'ekt muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning ifodalovchi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mas'ulligini, mafaatlar hamda ehtiyojlar

umumiyligini tushunib yetish jarayonining shakllanishi.

O‘yinlar – bolalarni jismonyi tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, milliy tarbiyada zarur vosita ekanligi hisobga olingan.

Og‘zaki drama – etnopedagogika yo‘nalishidagi ijodning mustaqil turi bo‘lib, qadim zamonlarda vujudga kelgan. U xalq ongi, axloqiy mezonlari, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi. Og‘zaki dramada tomosha ko‘rsatish bahonasida hayot qiyinchiliklari, sinfiy munosabatlar fosh qilingan, tomoshabinda zarur tarbiyaviy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Og‘zakichilik-etnopedagogika manbalarining yaratilish tarzidir. U hali yozuv vujudga kelmasidanoq ajdodlarimiz turmushi, dunyoqarashi, pedagogik qarashlarining ifodasi sifatida vujudga kelgan.

Oila - xayotiy mazmuniga xamda jamiyat tomonidan ma’qullanadigan xususiyatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy xodisa.

Oilaviy maishiy marosimlar - jumlasiga to‘y, (beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi), kelin salom, motam marosimi, yig‘i-yo‘qlovlar va boshqalarda ko‘zda tutilgan kishining tarbiyaviy sifatlari ulug‘langan, insoniyat qadr-qimmati yuqori ko‘tarilgan, insonparvarlik, yoshlarda ularga havas, hurmat uyg‘otishga undalgan.

Qadriyat – bu qadr qimmat ma’nosini anglatib, u inson uchun qadrli bo‘lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Qadriyatlar – faqat o‘tmish uchun qadrli bo‘lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi hamda kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui.

Qarg‘ishlar – “qarg‘ish” –“qir” fe’liga “-g‘a” va “-ish” qo‘sishimchalari qo‘shilishidan yasalgan. Qarg‘ishda yomon kishilarga baxtsizlik, yomonlik tilansa, so‘kishda kishi shaxsi haqoratlanadi. Qadimgi kishilar qarg‘ish insonga tegishiga ishonganlar, qarg‘ishni yo‘llash va qaytarib olish mumkin deb hisoblaganlar.

Qo'shiqlar – voqelikni yakka shaxs kechinmalari orqali aks ettiradi. “Qo'shiq” – turkiy “qo'shmoq” so'zidan olingan bo'lib, misraga misrani qo'shib kuylash, aytish ma'nolarini anglatadi.

Rivoyat – hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi etnopedagogik manba bo'lib, unda tarixiy voqealar, ayrim shaxslar va geografik joy bilan bog'liq voqealar, ularning bunyod yoki vayron etilishi hikoya qilinadi. Rivoyat o'quvchida Vatanga, ajdodlarga, xalqqa muhabbat, zulmga nafrat, do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ma'naviy va jismoniy kamolotga intilish hissini uyg'otadi.

Shariat - (arab.- ostona va suv ichish joyi, yo'l, musulmonchilikda shariat qonunchilik ma'nosida qo'llaniladi) – Allah joriy qilgan amaliy xukmlar majmuasi, shu ma'noda shariat fiqh ma'nosida ham tushuniladi.

Tabiiy qadriyatlar – bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar, ya'ni yer va yer ostiboyliklari, suv, havo, o'rmonlar o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyg'ulari hosil qilinadi.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li, tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullaridir.

Tasavvuf, so'fiylik – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyasidir.

Topishmoq – deb, bir-biriga o'xhash ikki predmetdan jumboq yasalib, ikkinchisiga xos o'xhash belgilari asosida uni topishga mo'ljallangan she'riy yoki nasriy topshiriqqa aytildi. Masalan: “Bir parcha patir, olamga tatir” topishmo g'ida

eng to‘yimli ozuqa – patir “Oy” ga o‘xshatilgan. Oy ham go‘zal, tunda olamni munavvar qiladi.

Umuminsoniy qadriyatlar – bu umumbashariy axamiyatga ega bo‘lgan va uning svilizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar majmuasidir.

Vorisiylik - etnopedagogika manbalari bo‘lmish folklor asarlariga xos xususiyat bo‘lib, ular zamirida pedagogik fikrlar xalqning xotira manbaidan og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodi – xalq ommasining badiiy faoliyati.

Xalq pedagogikasi – xalq ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shunday ekan Markaziy Osiyoda ilk pedagogik tasavvurlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti ham mahalliy xalq ma’naviy madaniyatining o‘sishi bilan bog‘liqdir. Xalq pedagogikasining rivoji esa nazariy pedagogika ilmi taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017 y.
3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta’minalash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017 y.
4. Abdullayeva. N.J. Xalq pedagogikasi. Darslik. “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, Toshkent – 2021 y.
5. Abdurauf Fitrat. “Oila yoki uni boshqarish tartiblari” (o‘quv q o‘llanma) - T., 2000 y.
6. Al-Buxoriy , Abu Abdullosh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Arab durdonlari). Tarjimon, muqaddima va izoxlar muallifi Sh.Burxonov – Toshkent, O‘zbekiston, 1990 y, 16-bet
7. Al-Buxoriy, Abu Abdullox Muxammad ibn Ismoil. Xadis. 4 jildli kitob. 1-kitob. Al-jome’ as-saxix (Ishonarli to‘plam). Arabchadan Ismoil tarjimasi. – Toshkent, qomuslar bosh taxririysi, 1991. 14-bet
8. Akromov B. Mehmon yigit ziynati // Sog‘lom avlod uchun .-2009 y.
9. Bekmurodov M. Qarindoshlik nikoh, va oila // Sog‘lom avlod uchun .- 2009 y.
10. Bobomirzayev X. “Xalq og‘zaki ijodi va uning ta’lim-tarbiyadagi samarasi”. T. “O‘qituvchi”. 1996 y. 173-bet.
11. Ergasheva. G. M. Milliy qadriyatlar va shaxs ijtimoiy ximoyasining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- T.: “Akademiya”, 2007 y. 211-212 betlar.
12. G‘aniyev J.G‘. Xorijda ta’lim. T.: Sharq, 1995 y.
13. Hasanboyeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. - T.: Aloqachi, 2007 y.

14. Hoshimov K , N ishonova S. va boshqalar. “Pedagogika tarixi” (darslik) -T , 1996 y.
15. Hoshimov K Ochilov S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (darslik) - T, 1995 y.
16. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi - T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005 y. 287-297-b.
17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008 y.
18. Karimov. I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997 y.
19. Karimova O. Oilaning xuquqiy asoslari (o‘quv qo‘llanm a) - T. 2003 y.
20. Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T.: O‘qituvchi, 1994 y.
- 21.Musurmonova O. “O‘qituvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish” T. “Fan” 1993 y. 105-bet.
- 22.Mutalipova M. “Xalq pedagogikasi” T. “Bayoz”. 2013 y.
- 23.Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011 y.
- 24.Muhammad Payg‘ambar qissasi. Xadislar. – Toshkent. Kamalak. 1991 y. 60-bet.
25. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Imon. –T.: “Kamalak”, 1991 y. 128-136-betlar.
26. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol ta’lim metodlari: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
27. Sattarov M. “O‘zbek udumlari” T. “Fan”. 1994 y. 223-bet.
- 28.Sodiqova T. O‘g‘lim senga aytaman, qizlarga atalgan so‘zlar (metodik qo‘llanma). - T., 2005 y.
- 29.Volkov G. N., Baubekova G. D. “Etnopedagogika” Toshkent 2000 y.
30. Xidirova F. Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash (metodik qo‘llanma) - T., 2007 y.

31. Xoshimov K. “O‘zbek pedagogikasi antalogiyasi”. Toshkent 1995 y

Elektron ta’lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTERNET. Ped

MUNDARIJA

| | | |
|-----------|--|----------------|
| 1 | Kirish: | 3 |
| 2 | 1-MODUL. “Xalq pedagogikasi” fanining nazariy asoslari. Xalq pedagogikasi – fan sifatida | 4-8 |
| 3 | Xalq pedagogikasi manbalari | 8-17 |
| 4 | Xalq pedagogikasining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari | 18-27 |
| 5 | “Xalq pedagogikasi” va O’rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining pedagogik g’oyalari | 27-39 |
| 6 | Xalq og‘zaki ijodi xalq pedagogikasining muhim manbai sifati-da | 39-43 |
| 7 | “Avesto” va xalq pedagogikasi g‘oyalardagi uyg‘unlik | 43-48 |
| 8 | Masal, matal va maqollarning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati | 48-56 |
| 9 | Dostonlar va afsonalar – bebahо qadriyatlar majmui sifatida | 56-61 |
| 10 | Oila tarbiyasining xalq pedagogikasi manbalarida aks etishi | 61-69 |
| 11 | “Xalq pedagogikasi”da yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari. | 69-79 |
| 12 | Diniy ta’limotlar xalq pedagogikasining muhim ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida | 79-89 |
| 13 | Islom dinida axloqiy – ma’naviy qarashlar | 89-97 |
| 14 | Hadislarning mazmun mohiyati va tarbiyaviy ahamiyati | 97-103 |
| 15 | “Xalq pedagogikasi”da milliy urf-odatlar, an’analar, udumlar, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o‘rni | 104-111 |
| 16 | “Xalq pedagogikasi”da turli xalq va millat milliy urf-odatlari, an’analari, marosimlari xalqning madaniy merosi sifatida | 111-117 |
| 17 | Test savollari | 118-132 |
| 18 | Glossariylar | 133-139 |
| 19 | Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati | 140-142 |

СОДЕРЖАНИЕ

| | | | |
|-----------|--|----------------|--|
| 1 | Введение: | 3 | |
| 2 | МОДУЛЬ 1. Теоретические основы науки “Народная педагогика”. Народная педагогика - как наука | 4-8 | |
| 3 | Истоки народной педагогики | 8-17 | |
| 4 | Дидактические и воспитательные возможности народной педагогики | 18-27 | |
| 5 | “Народная педагогика” и педагогические идеи великих мыслителей Центральной Азии | 27-39 | |
| 6 | Народное устное творчество как важный источник народной педагогики | 39-43 | |
| 7 | Гармония в идеях “Авесто” и народной педагогики | 43-48 | |
| 8 | Логическое осмысление важности притч, маталов и пословиц в развитии мышлений | 48-56 | |
| 9 | Эпосы и легенды - бесценные ценности как совокупность качеств | 56-61 | |
| 10 | Отражение семейного воспитания в истоках народной педагогики | 61-69 | |
| 11 | Методика, прием и методология воспитания молодежи в инструментарии “народной педагогики” | 69-79 | |
| 12 | Религиозные учения важные духовно-нравственные аспекты народной педагогики как средства воспитания | 79-89 | |
| 13 | Нравственные и духовные воззрения в Исламе | 89-97 | |
| 14 | Сущность и воспитательное значение Хадисов | 97-103 | |
| 15 | Национальные традиции, предания, достижения в “народной педагогике”, роль праздников и обрядов как средства воспитания | 104-111 | |
| 16 | Национальные обычаи различных народов и народностей в “народной педагогике”, традиции, обряды как культурное наследие народа | 111-117 | |
| 17 | Тестовые вопросы | 118-132 | |
| 18 | Глоссарий | 133-139 | |
| 19 | Список использованной литературы | 140-142 | |

CONTENT

| | | | |
|-----------|---|----------------|--|
| 1 | Intro: | 3 | |
| 2 | Module 1. Theoretical foundations of the science of “folk pedagogy”. Folk pedagogy-as a science | 4-8 | |
| 3 | Sources of folk pedagogy | 8-17 | |
| 4 | Didactic and educational opportunities of folk pedagogy | 18-27 | |
| 5 | “People’s pedagogy” and pedagogical ideas of the great thinkers of Central Asia | 27-39 | |
| 6 | Folk oral creativity as an important source of folk pedagogy | 39-43 | |
| 7 | Harmony in the ideas of “Avesto” and folk pedagogy | 43-48 | |
| 8 | Logical thinking of parables, matalis and proverbs importance in development | 48-56 | |
| 9 | Epics and legends-invaluable values as a set | 56-61 | |
| 10 | Reflection of family education in the sources of folk pedagogy | 61-69 | |
| 11 | Method, method and method of youth education in the “people’s pedagogy” tools. | 69-79 | |
| 12 | Religious teachings important spiritual and moral of folk pedagogy as a means of upbringing | 79-89 | |
| 13 | Moral and spiritual views in Islam | 89-97 | |
| 14 | The essence and educational significance of hadiths | 97-103 | |
| 15 | National traditions, traditions, achievements in “folk pedagogy”, the role of celebrations and ceremonies as a means of upbringing | 104-111 | |
| 16 | National customs of various peoples and nationalities in the “people’s pedagogy”, traditions, ceremonies as cultural heritage of the people | 111-117 | |
| 17 | Test questions | 118-132 | |
| 18 | Glossaries | 133-139 | |
| 19 | List of literature used | 140-142 | |

XALQ PEDAGOGIKASI O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: O.Abdullayev

Dizayner: J.Kabulov

“OMADBEK PRINT NUMBER ONE” MChJ

Andijon shaxri, Boburshox ko`chasi, 39 a uy.

Nashriyot litsenziya raqami: № 156677.

2023-yil 7-noyabrda berilgan.

+99899 906 90 71

Bosmaxonaga 2024-yil 10-oktabrda berildi. Bosishga

2024-yil 17-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.

Hajmi 9,1 bosma taboq. Times New Roman garniturası,

offset qog`ozı, offset usulida chop etildi.

Buyurtma 56 Adadi 150 dona.

“OMADBEK PRINT NUMBER ONE” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Andijon shahar Boburshoh ko`chasi, 39 a uy.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi

huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar

agentligining 12.07.2019 dagi 12-3971. raqamli guvohnomasi.

